

shaklidan pul qiymatiga o'tadi va tovar ishlab chiqarishni tiklashga iqtisodiy asos yaratiladi. Shuning uchun savdo texnologik jarayonini ratsional tashkil etilishi, savdoning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Shu maqsadda tovarlarning harakatlanish yo'nalishlari va eng qulay oqimlari aniqlanishi, tovarlarni ishlab chiqarishdan iste'mol joylariga yetkazishda samaraliroq transport turlaridan foydalanishi, hamda mos va zarur bo'lgan omborlarning vujudga keltirilishi shartdir. Savdo texnologik jarayonning qanchalik ratsional tuzilishi, aholiga yuqori sifatli savdo xizmatini ko'rsatish darajasiga, hamda tovar-moddiy boyligining aylanish vaqtiga ham bog'liq. Shuning uchun, savdo texnologik jarayonida shunday texnologik zanjir vujudga kelishi kerakki, bunda tovarlar ishlab chiqarishdan iste'molchiga zarur bo'lgan miqdorda, keng assortimentda, kam sarflangan mehnat, moddiy vosita va muddat ichida, yuqori sifatli tovarlarni tinimsiz o'z vaqtida yetkazib berilishi va ta'minlashi shart. Tovarlarni ishlab chiqarish sohasidan, iste'mol sohasiga bir yoki bir nechta ombor pog'onalaridan o'tib boradi. Savdo texnologik jarayonining ratsional tashkil etilishi esa shu pog'onalarni minimal sonini tanlashni ko'zda tutadi.

Savdo texnologik jarayonining tashkil etilishiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularni quyidagi guruhlariga birlashtirish mumkin: ishlab chiqarish, transport, ijtimoiy va savdo.

Ishlab chiqarish omillariga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarishni joylashtirish, ishlab-chiqarish tashkilotlarini ixtisoslashtirish, ayrim tovarlarni mavsumiy ishlab chiqarish.

Tovarlarni yetkazib berish jarayoniga, ishlab chiqarishni joylashtirish katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish tashkilotlarini xom ashyo manbalariga yaqinlashtirish, ularni mamlakat hududida notekis taqsimlashiga, iste'mol rayonlaridan uzoqlashishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida tovar yetkazish jarayonini qiyinlashtiradi, chunki tovarlarni uzoq masofalarga tashish, ularni ishlab chiqarishdan iste'molchiga etkazishni sekinlashtiradi.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish ham tovarlarni iste'molchilarga yetkazib keltirishni susaytiradi, chunki tor assortimentdagi tovarlar kichik chakana savdo tarmoqlariga faqat ulgurji tashki-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

Sh.D.Ergashxodjayeva, M.Yu.Saidkarimova,
S.Sh.Tashpulatov, M.K.Miryusupova

SOHA TEXNOLOGIYASI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2010

Taqrizchilar: *TTYESI «Menejment» kafedrasi mudiri, dotsent D. Yusupova;*
Toshkent politexnika KHK direktori o'rinbosari M. Rizayeva

S70 Ergashxodjayeva Sh.D.
Soha texnologiyasi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / Sh.D. Ergashxodjayeva, M.Yu. Saidkarimova, S.Sh. Tashpulatov, M.K. Miryusupova; O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010. -132 b.

Saidkarimova M.Yu., Tashpulatov S.Sh.,
 Miryusupova M.K.

Ushbu o'quv qo'llanma «Soha texnologiyasi» fani bo'yicha namunaviy o'quv dasturi asosida tayyorlangan. Unda savdodagi jarayonlar texnologiyasining nazariy asoslari, shuningdek, ulgurji va chakana savdo korxonalarida savdo jarayonlarini tashkil etish masalalari atroflicha yoritib berilgan.

O'quv qo'llanma kasb-hunar kolleji o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

BBK 65.42-80ya722

sharoitida har xil tashkiliy-huquqiy shakldagi tashkilotlar vujudga kelganligi tufayli, savdo jarayonlari texnologiyasida yangi yondoshishlarga ehtiyoj oshib borayapti. Bu, albatta, professional kichik mutaxassislarni tayyorlashga yangi talablar qo'yadi. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tovarlarni ishlab chiqarish joylaridan to iste'molchiga yetkazib berishda samarali usullarini aniqlash va qo'llash, ayrim savdo-texnologik pog'ona va operatsiyalarni jadallashtirishni bilishlari uchun «Soha texnologiyasi» fanini o'rganish mohiyati va ahamiyati juda kattadir.

Savdo tashkilotlari texnologiya masalalarini, tovar harakati jarayonini, ilmiy tashkil etishda umumnazariy va metodologik qoidalar va savdo tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish asosida amalga oshiriladi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga yo'nalganda, tovarlar ulgurji va chakana savdo pog'onalaridan o'tadi va ma'lum savdo-texnologik jarayonlarni amalga oshiradi.

Tovar harakatini har bir bosqichida, ya'ni tovarlarni ishlab chiqarishdan ulgurji savdo omboriga transport vositalarida yetkazilishi, ularni ombor ichidagi siljishi, qabul qilinishi va saqlanishi, chakana savdo tarmoqlaridagi tovar ta'minoti, do'kon ichidagi operatsiyalari, tovarlarni xaridorlarga sotilishi va ularga qo'shimcha xizmat ko'rsatilishi har xil mehnat qurollari va vositalari yordamida amalga oshiriladi.

1.4. Savdo texnologik jarayoniga ta'sir etuvchi omillar

Savdo texnologik jarayoni deganda, birinchi o'rinda tovar va uni harakatlanishini ko'z oldimizga keltiramiz. Ishlab chiqaruvchilardan tovarlar ulgurji va chakana savdo orqali iste'molchilarga yetib keladi. U nafaqat tovarlarni ishlab chiqarish joylaridan iste'mol joylariga o'tib borishi, balki ularni saqlash, sortirovkalash va savdo tashkilotlarida sotishga tayyorlash operatsiyalarini o'z ichiga oladi.

Savdo tashkilotlarida iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga ketgan aylanish vositalari, jarayoni yakunlanadi, tovar qiymati

1.2. Tovarlarining tarmoqlardan o'tib borishi

Tarmoqlarning ba'zilari yaxshi rivojlangan, ba'zilari esa yaxshi rivojlanmay qolgan bo'lishi mumkin. Bu holat mamlakatdagi ob-havo, iqlim, urf-odat, fan-texnikaning rivojlanishiga va boshqa omillarga bog'liq.

Ishlab chiqariladigan tovarlar xom ashyo davridan to iste'mol davrigacha bitta, ikkita yoki undan ko'proq tarmoqlardan o'tishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, ishlab chiqarishda tarmoqlar bir-biri bilan uzluksiz bog'liqdir.

Birinchidan, sanoatga tabiiy boyliklarni, qishloq xo'jalik tovarlarini, bog'dorchilik, baliqchilik, hirmon resurslarini yetkazish jarayonini o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, birinchi guruh tarmoqlariga qayta ishlov beruvchi tarmoqlar kiradi. Masalan, qishloq xo'jalik tovarlarini konservalash, matolardan kiyim-kechaklar tikish, o'rmon tovarlardan mebellar yasash va hokazolar.

Uchinchidan esa, birinchi va ikkinchi guruh ishlab chiqarish tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar kiradi. Ular xom ashyo va tovarlarni saqlash, savdo-sotiq, reklama va axborot bilan ta'minlashdan iboratdir.

Tarmoqlar korxonalardan tashkil topgan bo'lib, iqtisodiyotda mavjud yetishtirilgan tovarlarning barchasi korxonalarda ishlab chiqariladi. Bunda korxonalar mablag'lariga xom ashyo va kerakli narsalar sotib oladilar. Olingan xom ashyo qayta ishlanib, tovarlar va xizmatlar yaratiladi va bozorga chiqariladi. Shu tariqa korxona bilan bozor o'rtasida aylanma harakat davom etadi. Tarmoqlarda yetishtirilgan tovarlar tezroq o'z xaridorlarini topish uchun talabga javob beradigan holda ishlab chiqarilishi zarur. A'lo sifatli tovar ishlab chiqarish uchun texnologiya, ya'ni materiallarga ishlov berish usullaridan foydalanish zarur.

1.3. Texnologiya va uning usullaridan foydalanish

Texnologiya — bu, u yoki bu ishni bajarish uchun kerak bo'lgan operatsiya, harakat va usullar ketma-ketligidir.

Texnologiya qancha puxta o'ylab chiqarilgan bo'lsa, ish natijalari ham shunchalik yaxshi bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka ega bo'lishi iqtisodiy islohotlarni mustaqil ravishda: O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov taklif qilgan modeli zahirida amalga oshirish uchun xuquqiy asos yaratdi.

O'zbekiston iqtisodiy barqarorlashtirish va tarkibiy islohotlar borasida keyingi vaqtda yuksak taraqqiyotga erishdi.

Iqtisodiy yo'nalishdagi eng ustivor vazifa — bu yuqori sifatli xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishni keskin ko'paytirish va tovar yetishmovchiligini bartaraf etishdir.

Bozor islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari hamda mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilashda asosiy uzoq muddatli va strategik vazifa — bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir.

Prezidentimiz Islom Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida «Birinchil navbatda iqtisodiyotning mafkuradan holi bo'lishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligida o'z ifodasini topgan pragmatik iqtisodiy siyosat, davlatning bosh islohotchi vazifasini o'z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, islohotlarni bosqichma-bosqich va vazminlik bilan amalga oshirish kabi tamoyillar, ayniqsa, dunyoda avj olib borayotgan moliyaviy va iqtisodiy inqiroz sharoitida o'zining dolzarbligi va hayotiyiligini yana bir bor ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi» deb qayd etdilar.

Mana bu maqsadlarga erishish uchun jamiyat va shaxs manfaatlarini yo'naltirishning iqtisodiy manbalari, avvalo, tovarlar va xizmatlar bozoriga

tovar ishlab chiqaruvchilarning o'z mehnat natijalarini teng ayirboshlashlariga asoslanishi shart.

Jahonda ro'y berayotgan inqiroz sharoiti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarini yaratishga asos bo'ldi. Prezidentimiz o'z asarida «...jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq»¹ deb ta'kidladilar.

Bu esa, bozor munosabatlariga mos bo'lgan barcha vositalardan, eng yangi tajribalardan g'oyat samarali foydalanishni talab etadi. Mazkur «Soha texnologiyasi» fanidan yozilgan o'quv qo'llanma aynan shu fan bo'yicha tuzilgan dastur asosida bajarildi.

Yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish, savdo jarayonlarini tashkil etilishi va texnologiyasiga yangi yondashish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Zamonaviy texnologiya, savdo tashkilotlarida amalga oshiriladigan tovarlarni ishlab chiqarishdan to iste'molchilarga yetib borguncha bajariladigan barcha savdo — texnologik jarayonni nazarda tutadi.

Savdo-texnologik jarayoni tovarlarni ishlab chiqarishdan keltirish, ularni avval omborlarga qabul qilib olish, saqlash, sortirovkalash, chakana savdo tarmoqlariga jo'natishga tayyorlash va u yerda bevosita iste'molchilarga sotishni amalga oshiradi.

Bu borada ulgurji va chakana savdoni faol ishtirok etishi ham yaqqol ko'rsatiladi. Moddiy ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishda tovarlar savdo pog'onalari bo'lib hisoblangan ulgurji va chakana tashkilotlaridan o'tadi. Tovar harakatini barcha bosqichida, ya'ni tovarlarni ishlab chiqarishdan ulgurji savdo omborlariga transportirovkalash, ularni ombor ichidagi harakati, qabul qilish va saqlash, chakana savdo tarmog'ini tovar ta'minoti, do'kon ichidagi operatsiyalar, xaridorlarga tovarlarni sotish va qo'shimcha xizmat ko'rsatishda har xil vosita va mehnat qurollari qo'llaniladi. Shu tufayli o'quv qo'llanma ulgurji va chakana savdo tashkilotlarida bajariladigan savdo-texnologik jarayonlar ko'rib chiqilgan.

«Soha texnologiyasi» fanidan tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma bo'lajak tijoratchi, tadbirkor va marketologlarni tayyorlashda har tomonlama yordam beradi.

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent, «O'zbekiston», 2009- y.

1-bob. SAVDO JARAYONLARI TEXNOLOGIYASINING TUZILISH ASOSLARI

1.1. Savdo jarayonlari texnologiyasi va uni tashkil etish fanining mohiyati

O'zbekistonda hozirgi paytda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi — bu iqtisodiyotda bozor tizimlarini shakllantirish, soliq, moliya va pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishdir. Iqtisodiyotni o'rganish jarayonida albatta bozor iqtisodiyotini chuqur o'rganish nazarda tutiladi. Bozor iqtisodiyoti deganda esa, birinchi o'rinda aholi holati, uni yashash darajasi, zamonaviy turish-turmushi ko'zda tutiladi. Bozor iqtisodiyoti to'la-to'kis amalga oshirildi va kerakli cho'qqisiga yetdi degani — bu aholining turmush darajasining oshishi, barcha zarur kerakli bo'lgan tovarlarga ega bo'lishi, shu bilan birga ishlab chiqariladigan yoki xorijiy mamlakatlardan keltiriladigan tovarlarning aholi talabiga to'la javob berishi, ya'ni zamonaviy yo'sinda, zamonaviy xom ashyolardan, yuqori darajadagi sifatli tovarlar bo'lishini talab qiladi.

Aholi ehtiyojlarini turli xil tovarlar va xizmatlar bilan qondirish zarurdir. Xo'sh, o'sha tovarlar qayerda, kimlar tomonidan yaratiladi va ularni qaysi yo'llar va usullari bilan xaridorlarga yetkazib beriladi?

Mana shu savollarga javob olish uchun biz «Soha texnologiyasi» fanini chuqur o'rganib chiqamiz. O'zbekistonda ishlab chiqariladigan tovarlar har xil tarmoqlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, ko'pgina oziq-ovqat tovarlari «qishloq xo'jaligi» tarmog'ida, «kiyim-kechak», «oyoq kiyimlar», «yengil sanoat» tarmoqlarida, uy jihozlarni, oziq-ovqatlarni qayta ishlov berishda va normal iste'mol holatiga keltirishda boshqa tarmoqlar ham ishtirok etadi.

— vositachi ulgurji tuzilmalar — ularda tovarlar o'z mulkiga aylanmaydi (distribyutorlar);

— ulgurji aylanma tashkilotlari.

Mustaqil ulgurji savdogarlarning vazifasi tovar harakatining o'rta pog'onasida yirik tovar ishlab chiqaruvchilarni va chakana savdogarlarni bozorga chiqarish shart-sharoitlarini tashkil etishdan iboratdir. Ular ko'rsatadigan xizmat turlari har xil bo'lishi mumkin.

Vositachi ulgurji tuzilmalarda tashkilot-broker, tashkilot-agent (distribyutor) sifatida ishtirok etadi, o'z mijozni nomidan va uning hisob raqami orqali faoliyat ko'rsatadi. Ularning asosiy faoliyati ma'lumotlar bilan ta'minlashdir.

Ulgurji aylanma tashkilotchilar — bu tovar birjalari, ulgurji yarmarkalar, auksionlar, ulgurji oziq-ovqat bozorlaridir. Ular ulgurji infratuzilmaning muhim elementidir va ularning asosiy vazifasi — ulgurji savdoni tashkil etish uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Tayanch iboralar

Ulgurji savdo. Tovar harakati. Uzoq muddatli masalalar. Tovar bilan ta'minlash. Raqobatbardoshlikni rivojlantirish. Monopoliyaga chek qo'yish. Tovar harakati kanallari. Tovar oqimi. Muomala harajatlari. Talab. Taklif. Umummilliy tashkilotlar. Mintaqaviy tashkilotlar. Mustaqil ulgurji savdogarlar. Broker. Tashkilot-agent.

Nazorat savollari

1. Nima sababdan ulgurji operatsiyalar hajmi qisqardi?
2. Ulgurji tashkilotlar bo'yicha davlat siyosati nimalarni ko'zda tutadi?
3. Ulgurji xaridorga nisbatan qanday vazifalar qo'yilgan?
4. Ulgurji savdo tashkilotlari qanday tiplarga bo'linadi?
5. Ulgurji tashkilotlar qanday turlarga bo'linadi?
6. Mustaqil ulgurji tashkilotlarning vazifasi nimadan iborat?

lotlarda sortlarga ajratilgandan keyin kelishi mumkin, bu esa tovarlarni bir necha pog'onalaridan o'tishiga olib keladi.

Ayrim xalq iste'mol tovarlari mavsumiy ishlab chiqarish xarakteriga ega, bu esa aynan shu tovarlarni faqat o'zini mavsumiga mos paytda xarid qilishga va iste'mol qilishga olib keladi va texnologik jarayonga ta'sir ko'rsatadi.

Shu tufayli tovar harakati jarayonida ishtirok etuvchi tovar assortimenti yil davomida sezilarli o'zgaradi, bu esa tovar harakatining texnologik jarayonini tashkil etilishiga mos ravishda o'zgarishlar kiritilishini talab etadi.

Transport omillariga esa quyidagilar kiradi: transport, aloqa yo'llarining holati, tovarlarni yetkazib berishda qo'llanadigan transport turlari.

Hozirgi vaqtda, hali ko'p regionlar yaxshi rivojlangan tarmog'iga ega emas, shuning uchun, ularning ayrimlariga tovarlarni yetkazish ma'lum qiyinchiliklar bilan bog'liq (mavsumiy xarakterga ega, ratsional bo'lmagan transport turlarini qo'llash va boshqalar). Transport vositalari parkining tuzilishi tovar harakati jarayonini ratsional tashkil etish talablariga javob berishi uchun mos bo'lgan ixtisoslashgan transportga har xil yuk sig'imli transport vositalariga ega bo'lishi kerak.

Savdo texnologik jarayonining tovarlarni yetkazib berishiga **ijtimoiy** omillar ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni aholini joylashishi, aholi pul daromadi darajasi. Zich joylashmagan aholiga tovar yetkazib berish bir muncha murakkab, ko'p xarajatlarni talab qiladi va o'z yo'lida tovar yetkazib berish jarayonini sustlashtiradi. Tovar harakati jarayonining jadallashiga aholini ko'p daromadlik darajasi ham ta'sir ko'rsatadi.

Savdo omillari ham savdo texnologik jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Bular quyidagilar: savdo tashkilotlarining joylashishi, katta-kichikligi, ixtisoslashganligi, tovar assortimentining murakkablik darajasi va ularning xususiyatlari, chakana savdo tarmoqlarining tovar ta'minlanishini tashkil etish darajasi. Tovar harakati jarayoni yetarli darajada tovarlarni assortimenti va xususiyatlariga bog'liq. Masalan, murakkab assortimentdagi tovarlar chakana savdo tarmog'iga o'tishdan avval ulgurji bo'g'inda sortlarga

ajratiladi. Tovar harakati jarayonida tez buziluvchan tovarlar maxsus sharoitlar yaratilishini talab etadi.

1.5. Texnologik jarayonlarning ratsional tuzilish tamoyillari

Texnologik jarayonni ratsional tashkil etish quyidagi asosiy tamoyillardan iborat:

- tovarlarni keltirishda qisqa yo'llarni tanlash;
- chakana savdo tarmoqlarini ta'minlashda markazlashgan yetkazish usullarini keng qo'llanishi bilan birgalikda tovarlarni keltirish optimal shakli va pog'onalarini belgilash;
- ratsional transport vositalarini tanlash va ulardan samarali foydalanish;
- ortish-tushirish va ombor ishlarini mexanizatsiyalash va tara jihozlarini keng qo'llash;
- tovar harakati texnologik zanjirlarini doimo takomillashtirish va optimallashtirish.

Tovarlar ishlab chiqarish rayonlaridan iste'mol rayonlariga qisqa yo'llar bilan yetib kelishi kerak, bu esa ularni ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha eng qisqa yo'l bilan o'tib borishini ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirishni va tovar harakati uchun eng kam xarajatlarni sarflanishini ta'minlab beradi. Tovarlarini keltirishda tranzit va ombor usullaridan foydalaniladi. Tranzit usuli tovarlarni ishlab chiqarish korxonalaridan to'g'ridan-to'g'ri chakana savdo tarmog'iga keltirishdan iborat. Oddiy tovar assortimentlari bo'yicha ko'proq tranzit usuli qo'llaniladi. Tovar harakatining ombor usuli, asosan, murakkab assortimentdagi tovarlarni chakana savdo tarmog'iga yetkazib berishda qo'llaniladi. Bunda tovarlar ularni sortlarga ajratish maqsadida ombor pog'onalaridan o'tadi. Tovar harakatini ombor usullari bir pog'onali va ko'p pog'onali bo'ladi. Ombor pog'onaligini aniqlashda quyidagi koeffitsiyent qo'llaniladi:

$$K_o = \frac{T_{uo}}{T_{ch}},$$

xilma-xilligini ta'minlashni qo'yadi. Ular ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirish bilan birga iste'mol bozorini tovar bilan to'ldirishiga olib keladi, ularni to'siqlarsiz taqsimlash kanallari bo'ylab harakatlanishiga sharoitlar yaratib beradi, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarini ko'paytiradi.

Ulgurji savdo tashkilotlari umummilliy (federal) va mintaqaviy (region ichidagi) tiplarga bo'linadi.

Umummilliy darajasidagi ulgurji tashkilotlar tovarlarni butun mamlakat bo'ylab sotadi. Ular ulgurji savdoning ichki tarmoq tuzilmasini asosiy mohiyati bo'lib hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi bo'lib, xorijiy tovar ishlab chiqaruvchi va ta'minotchilarga va mamlakatdagi yirik ishlab chiqaruvchilarga xizmat qilishga mo'ljallangan va tovar harakatining zarur bo'lgan yo'llarini tashkil etish hisoblanadi.

Umummilliy ulgurji tashkilotlarni asosiy tashkiliy-huquqiy shakli bo'lib ochiq tipdagi aksioner jamiyatlari hisoblanadi, ularning boshlang'ich mablag'larida davlat ham ishtirok etishi mumkin.

Bundan tashqari davlat konsernlari ham bo'ladi. Tovarlarining ulgurji sotish jarayonini regional darajadagi ulgurji tashkilotlar yakunlaydi. Ular tovarlarni bevosita tovar ishlab chiqaruvchilardan va federal darajasidagi ulgurji tashkilotlardan harid qilib olishadi va ularni o'z faoliyat doirasida ulgurji haridorlarga yetkazadi.

Ularning xizmat ko'rsatish asosiy masalasi bo'lib regional tovar bozorlarini tovar bilan ta'minlashdir.

Mintaqaviy (regional) darajadagi har xil birlashmalar ham keng avj olmoqda. Ular bir-biri bilan bog'langan ulgurji savdo kompaniyalari yoki ixtiyoriy ulgurji-chakana zanjirlari sifatida vujudga kelishi mumkin.

2.4. Ulgurji tashkilotlarning turlari va vazifalari

Ulgurji tashkilotlarning turlari quyidagilarga bo'linadi:

- mustaqil bo'lgan ulgurji savdogarlar — ular sotib olish-sotish operatsiyalarini to'liq kompleksini amalga oshiradi, bu holatda tovar ulgurji pog'ona mulkiga aylanadi;

2.2. Ulgurji savdoning zamonaviy masalalari

Ulgurji savdo oldiga yangi masalalar, yangi maqsadlar qo'yiladi:

- Tovar harakati kanallarining rivojlangan strukturasi tuzish;
- Tovar oqimini kerakli intensivlashni qo'llash;
- Tovar harakati jarayonini moliyaviy ta'minlashni qo'shimcha manbalarini shakllantirish;
- Muomala harajatlari kamaytirishni ta'minlash.

Xo'jalik munosabatlarining bozorga yo'nalgan tizimida ulgurji savdo vazifalari ham o'zgarib boradi.

Ulgurji savdoni ulgurji xaridorlarga nisbatan vazifalari quyidagilar:

- talab va taklifni baholash;
- ishlab chiqarish assortimentini savdo assortimentiga aylantirish;
- tovar zahiralarini to'plash va saqlash;
- tovarlarni yetkazib berish;
- kreditlash;
- axborot va konsalting xizmatini amalga oshirish.

Ulgurji savdoning tovar ta'minlovchilarga nisbatan vazifalari:

- tijorat faoliyatini bir joyga to'planishi;
- tovarga bo'lgan mulk shaklini o'zgarish jarayonini qo'llab-quvvatlash;
- tovar harakati jarayonini investitsiya yordamida ta'minlash;
- tijorat vazifasini kamaytirish;
- marketing xizmati.

Ulgurji savdoni maqsadli va vazifali munosabatlarini qayta yo'naltirish nafaqat savdoda islohotlarni chuqurlashtirishni, balki butun iste'mol bozorini strategik mustahkamligini ta'minlab beradi.

2.3. Ulgurji tashkilotlarning turlari

Avval ulgurji savdo davlat va kooperativga bo'linar edi. Hozir esa har xil mulkchilik shaklida taqdim etiladi.

Mamlakatda o'tkazilayotgan ulgurji savdoning rivojlanish tuzilmaviy siyosati uzoq muddatli maqsad qilib tuzilmaning bozor

bunda, T_{uo} — ulgurji-ombor tovar aylanishi; T_{ch} — chakana tovar aylanishi.

Bu usulda tovarlar ko'p pog'onalardan o'tib keladi va ko'proq xarajatlarni talab qiladi.

Texnologik jarayonni tovar keltirilishini tashkil etishda transport vositasini to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda tashish masofasi, tovarni turi va fizik-kimyoviy xususiyatlari e'tiborga olinadi. Shu bilan birga transportga maksimal darajada yuk ortishni, ularni turib qolishini qisqartirishni, ortiqcha bo'sh yurishlarini yo'q qilishni ta'minlash kerak. Idish-jihozlarni qo'llash ham samara beradi, mehnat unumdorligini va savdo madaniyatini oshiradi. Tovar harakati jarayonida idishlarning keng qo'llanilishi nafaqat og'ir qo'l jarayonini yo'q qilishni, balki uni joriy etishdan ko'p iqtisodiy samarlarga erishiladi.

Masalan, 1 t yukni keltirish va sotilishda idish-jihozlardan foydalanish xarajatlari 40-45 foizga kamaytiradi, avtotransport unumdorligini 1,8 marta oshiradi, avtomobillarga ortish va tushirish vaqtini 5 marta qisqartiradi. Bundan tashqari, idish-jihozlarini qo'llash savdoda 8 ta va transportda va ta'minlovchilar tashkilotlarida 13 ta texnologik operatsiyalarini qisqartirishga olib keladi.

Texnologik jarayonni barcha pog'onalarida ortish-tushirish ishlarini mexanizatsiyalash vositalari keng qo'llanilishi kerak. Ularni qo'llash transport vositalari va ish kuchidan samaraliroq foydalanishga, tovar harakati jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishga olib keladi.

Barcha texnologik zanjirini doimiy ravishda takomillashtirish va jadallashtirish tovar harakatining yuqori darajali samaradorligini ta'minlaydi. Bunga texnologik zanjirning birligi, uning yuklarga ketma-ket to'xtovsiz ishlov berish talablariga mos kelishi bilan erishiladi. Bu holatda har bir avval bajarilgan jarayon bir vaqtni o'zida keyingisiga tayyorgarlik bo'lib hisoblanadi. Bunda tovarlarni sotishga tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar (ularni qadoqlanishi, o'ralishi, kerakli assortimentni komplektlash va hokazo) muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitlarda bu jarayonlar

ham ulgurji ham chakana savdolarda katta hajmlarda amalga oshiriladi.

Barcha yuqorida aytib o'tilgan asosiy tamoyillarga amal qilgan holda tovar xarajatini texnologik zanjirini tashkil etilishi tovar harakati jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlashga yo'l ochib beradi.

Tayanch iboralar

Aholi holati. Aholi talabi. Tovar tarmoqlari. Tabiiy boyliklar. Qayta ishlov beruvchi tarmoqlar. Xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar. Texnologiya. Tovar harakati. Ulgurji savdo. Chakana savdo. Transportirovka. Saqlash. Ratsional tashkil etish. Texnologik zanjir. Minimal pog'onalar soni. Omillar ta'siri. Notekis taqsimlanish. Transport omillari. Savdo omillari. Tara - jihozlari.

Nazorat savollari

1. «Soha texnologiyasi» fanining mohiyati nimalardan iborat?
2. Tovar assortimenti ishlab chiqarish tarmoqlari bilan bog'liq deganda nimani tushunasiz?
3. Texnologiya nimalarni o'z ichiga oladi?
4. Savdo texnologik jarayonida tovar harakati ta'siri qay darajada?
5. Samara va unumdorlik bir-biriga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Ratsional tamoyillar nimalardan iborat?

2-bob. ULGURJI SAVDO TASHKILOTLARI, ULARNING VAZIFALARI, TIPLARI VA TURLARI

2.1. Savdo-texnologik jarayonida ulgurji savdoning roli

Ulgurji savdo — bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar harakati jarayonini tezlashtirish va zarur bo'lgan intensivlashtirishni ta'minlovchi asosiy bo'g'indir. Ulgurji savdo tovarlarni taqsimlash kanallari bo'yicha harakatni tashkil etish bilan birga tovarlarni ishlab chiqarilishini va iste'molini bir-biriga mos holda ishlashiga yordam beradi.

Hozirgi sharoit ulgurji savdoning qayta qurilishini talab qiladi. Shuning uchun ulgurji savdoni rivojlantirishda davlat siyosatini asosiy uzoq muddatli masalalaridan — bu, tuzilishi bo'yicha qayta o'zgarishi, kichik tadbirkorlik yo'nalishida ulgurji pog'onada xizmat ko'rsatishidir.

Oxirgi yillarda ulgurji operatsiyalar hajmi qisqardi.

Chakana savdo tarmoqlarini tovar bilan ta'minlash ham keskin qisqaradi. Shu tufayli, davlat siyosatining ikkinchi bosqichi bo'lib ulgurji tashkilotlarning roli qisqarishini to'xtatish va ulgurji operatsiyalari hajmini stabillashtirish bo'lib hisoblanadi.

Oxirgi yillarda mavjud bo'lgan ulgurji savdoning moddiy-texnika bazasi bir nechta o'n yilliklar davomida vujudga kelgan. Ombor xo'jaligi yangilashni talab qiladi. Bu holda nafaqat ularning yangisini qurish, balki eskisini rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash, moddiy-texnika bazasini rivojlantirishni talab etadi.

Davlat siyosatining keyingi masalalaridan biri ulgurji savdoda raqobatbardoshlikni rivojlantirish va ulgurji savdo faoliyati bozorida monopoliyaga chek qo'yish, mahalliy mollarni ko'proq sotishdan iboratdir.

Tovar namunalari zali bevosita hisoblash markazi yoki ma'lumotlarga mexanizatsiyalashgan usulda ishlov berish byurosi xonalari bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Tovarlarni qabul qilish, saqlash va berib yuborish texnologik operatsiyalarini bajarish uchun mos bo'lgan zonalar ajratiladi.

Umumtovar omborlarida quyidagi asosiy zonalar ajratiladi: transport vositalaridan tovarlarni tushirish; tovarlarni qadoqlash; xaridorlarning buyurtmalariga asosan tovarlarni ajratish va jamlash; avtomobil transportiga ortish.

Omborlarni barcha yuqorida ko'rsatilgan zonalar bir-biri bilan zarur bo'lgan o'tish va yurish joylari bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Transport vositalarini bo'shatish zonalar tovarlarni soni va sifati bo'yicha qabul qilish va u yerda joylashgan tovarshunos-nazoratchilarning ish joylari joylashgan zonalariga tutashgan bo'lishi kerak.

Ombor maydonining asosiy qismi tovarlarni saqlash zonalariga ajratiladi. Ular tovar egallaydigan maydon va o'tish maydonlaridan iborat.

Saqlash zonalariga tovarlarni qadoqlash va o'rab joylashtirish, ulgurji xaridorlar buyurtmalarini jamlash zonalariga tutashgan bo'lishi kerak, o'z yo'lida buyurtmalarni komplektlash zonalar tovarlarni jo'natish joylari bilan yonma-yon joylashtirilishi kerak.

Omborlar xonalarining bunday ichki joylashuvi ombor texnologik jarayonining oqimliliigi va uzluksizligini ta'minlashga yordam beradi

Tovarlar namunalari zalining joylashtirilishiga maxsus talablar qo'yiladi. Asosiy ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan jihoz va mebellarni joylashtirish imkoniyatiga ega bo'lishda va ulgurji xaridorlarga xizmat ko'rsatish vaqtida tijoratchi — tovarshunoslar uchun qulayliklar yaratishda funksional zonalar ajratilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari barcha tovarlar namunalariga bema'lol o'tish imkoniyati yaratilishi zarur. Odatda, tovarlar namunalari zalida ishchi zonalar, ekspozitsiya zonalar hamda kutish va dam olish, ma'lumotlar va o'tish zonalar ajratiladi.

Ishchi zonalar tovarshunos-tijoratchilarning ish joylarini tanlash uchun xizmat qiladi. Ular idora stollari va ishchi kreslolar,

3-bob. TOVAR OMBORLARI, ULARNING TUZILISHI VA JOYLASHTIRILISHI

3.1. Omborlarning vazifalari va ularning tavsifi

Ulgurji bazalarning asosiy bo'linmalaridan bo'lib omborlar hisoblanadi. Ular tovar zahiralarini mujassamlantirish va saqlash, savdo tovar assortimentini komplektlash vazifalarini bajaradi va ulgurji savdo tashkilotlarining asosiy kompleks inshootlarini tashkil etadi.

Ko'p omborlar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

— ta'minlovchilardan tovarlarni olish va ularning sifatini nazorat qilish;

— tovar zahiralarini to'plash, ularni saqlash sharoitlarini ta'minlash;

— tovarlarni saralash va sotishga tayyorlash;

— ulgurji xaridorlar buyurtmalarini komplektlash;

— chakana savdo tarmoqlarini tovar bilan ta'minlash.

Ulgurji omborlariga keltirilgan tovarlar sifatini nazorat qilish yo'li bilan chakana savdo tarmoqlariga sifatsiz tovarlarni kirib kelishiga to'sqinlik qiladi.

Omborlarda tovar zahiralarini saqlashni ta'minlash maqsadida tovarlarni har xil fizikaviy-kimiyoviy xususiyatlarini hisobga olgan holda zarur bo'lgan saqlash sharoitlari yaratiladi.

Omborlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, ko'plab tovar ta'minlovchilardan omborlarga tor assortimentda keltirilgan tovarlarni sortlarga ajratish hisoblanadi. Ulgurji baza omborlari ishlab chiqarish assortimentini savdo assortimentiga aylantirish jarayonida chakana savdo tashkilotlarining buyurtmalari asosida tovar keltirishni maksimal darajada qondirishga intilishadi.

Ulgurji omborlar zimmasiga tovarlarni sotishga tayyorlash va chakana savdo tarmoqlarini tovar bilan ta'minlash kiradi.

Omborlar bajariladigan vazifalarning xarakteriga ko'ra saralovchi-taqsimlovchi, tranzitli-o'tkazib yuboruvchi, mavsumiy saqlovchi, oldindan keltiruvchi va jamg'aruvchiga bo'linadi.

Saralovchi-taqsimlovchi omborlarda odatdagi tovar zahiralirini to'plash maqsad qilib qo'yiladi. Bu omborlarda tovarlar uzoq muddat saqlanmaganligi tufayli ularning asosiy vazifalariga tovarlarni son va sifat bo'yicha qabul qilish, ularni saralash va berib yuborishga tayyorlash va chakana savdo tarmog'iga jo'natish kiradi. Bularga iste'mol rayonlarida joylashgan ulgurji savdo bazalari, hamda chakana savdo tashkilotlarining omborlari kiradi. Bu omborlarda chakana savdo tashkilotlari uchun qulay assortimentdagi tovar oqimlari shakllanadi va savdo tarmoqlariga jo'natiladi.

Tranzitli — o'tkazib yuboruvchi omborlar temir-yo'l stansiya-larida, daryo bo'ylari pristanlarida joylashib, yuklarni bir joydan ikkinchi joyga o'tkazib yuborish maqsadida qabul qiladi. Bu omborlar yuklarni qabul qilishni, qisqa muddatli saqlashni va jo'natishni amalga oshiradi.

Mavsumiy saqlash omborlariga kartoshka va sabzavotlar omborxonalari va mavsumiy tovarlarga ishlov berish va saqlash omborlari kiradi.

Muddatdan oldin keltirilgan omborlarda uzoq vaqt mobay-nida saqlanadigan tovarlar joylashtiriladi. Bunday omborlar yilning ayrim davrlarida yetkazish qiyin bo'lgan rayonlarda tashkil etiladi.

Jamlovchi omborlar sanoat korxonalaridan kichik partiyada tovarlarni qabul qilib, katta partiyalarda iste'mol qiluvchi rayon-larga jo'natishadi.

Assortiment xususiyatiga qarab omborlar universal va ixtisos-lashgan bo'ladi.

Universal omborlarda oziq-ovqat yoki nooziq-ovqat tovarla-rining keng assortimenti mujassamlanadi. Bundan tashqari, bu guruhga oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarni asosiy guruhlarini saqlashga mo'ljallangan omborlarni kiritish mumkin. Bunday omborlar matlubot jamiyatlarining ombor tarmog'ini asosiy qismini tashkil etadi.

Bu talablarni barchasi umumtovar omborlarning tuzilishiga qo'yiladigan umumiy talablardir. Maxsus omborlarni tuzilishi fizik-kimyoviy xususiyatga ega bo'lgan tovarlarni qabul qilish, saqlash va berib yuborish texnologik jarayonini ratsional tashkil etishga yo'nalgan bo'lishi kerak. Masalan, sovitkich omborlarini qurishda har xil izolyatsion materiallardan foydalaniladi.

Bunday omborlar faqat sun'iy yoritishga ega va zarur bo'lgan sovitkich moslamalar bilan ta'minlanadi. Zamonaviy ombor sovitkichlarida yaxlatilgan tovarlarni eritish va nuqsoni bo'lgan tovarlarni saqlash maxsus xonalari ajratiladi.

Yonilg'i saqlanadigan omborlarni qurishda ularni va boshqa ombor xonalarini o'rtasida maksimal masofa bo'lishi nazarda tutiladi. Ularni tuzilishi yong'inga qarshi qo'yiladigan talablarga javob berishi shart. Kartoshka, sabzavot va mevalarni saqlash uchun moslamalar tovarlarni saqlashni gidrotermik rejimini ta'minlashi kerak.

3.3. Ombor xonalarining turlari va ularning joylashtirilishi

Umumtovar omborlarni barcha xonalari quyidagi guruhlariga bo'linadi: asosiy ishlab chiqarish maqsadiga ko'ra, yordamchi, qo'shimcha texnik va ma'muriy-maishiy.

Asosiy ishlab chiqarish maqsadiga ko'ra bo'linadigan xonalarga tovarlarni saqlash, tovarlarni qabul qilish va berib yuborish, qabul qilib olish, o'rash va tovarlarni qadoqlash xonalari kiradi.

Yordamchi xonalar idishlarni, ko'p oborotli konteynerlarni saqlashga mo'ljallangan. Bunga yana idishlarni ta'mirlovchi xonalari kiradi.

Qo'shimcha-texnik xonalar bu mashina bo'limlari, venti-lyatsiya kameralari, isitish, xo'jalik mollari va inventarlarni saqlash, ta'mirlash xonalari va boshqalar hisoblanadi.

Ma'muriy-maishiy xonalar ma'muriyat xizmatchilari, dam olish va ovqatlanish joylari, psixologik-razgruzka, garderob, tovar namunalari zali, dush, sanitari uzellari uchun mo'ljallangan bo'ladi.

xonalarining tuzilishiga tovar zahiralirining va tovaro almashtiruvining tuzilishi va hajmi ta'sir ko'rsatadi.

Omborlarning tuzilishiga qo'yiladigan ikkinchi asosiy talab bu ombor imoratlarining parametrlari va shakllari bajariladigan operatsiyalarning ratsional texnologik talablariga mosligi. Ko'p omborlarning turlari uchun bu talabga asosan eng qulayi imoratni to'g'ri burchak shakli hisoblanadi, chunki bunda kelish yo'llarini va ortish-tushirish rampalarini ratsional joylashtirish imkonini beradi va ombor ichidagi tovar oqimlarini ma'lum darajada to'qnashib qolishdan asraydi.

Yirik omborlar imoratlari II-shaklida joylashishi mumkin. Bu holatda imoratlarni parallel joylashgan qatorlari orasida debarkader (platforma) quriladi va temir yo'l shoxobcha yo'llari yotqiziladi.

Ombor imoratlari bajariladigan operatsiyaning ratsional talablariga javob berishi uchun bu ombor mos ravishda aniq eni va uzunlikka ega bo'lishi kerak. Eng optimal mosligi 1:2; 1:2,5; 1:3; 1:5 hisoblanadi.

Texnologik jarayonlar oqimini tashkil etish sharoitlarining tuzilishi ombor ichidagi poydevorlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu talabni hisobga olgan holda ombor imoratlarida asosiy poydevorlarining soni juda kam bo'lishi kerak va zarur bo'lganda qo'shimcha xarajatlarsiz omborning joylashishini qayta o'zgartirish mumkinligini nazarda tutish kerak.

Omborlarning tuzilishi ularni ishlatish qoidalariga qo'yiladigan texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish, shuningdek yong'inga qarshi xavfsizlik talablariga javob berishi kerak. Bu talablarning bajarilishi uchun omborlar ventilyatsiya moslamalari bilan ta'minlanadi va markazlashgan isitish sistemasi o'tkaziladi. Suv ta'minoti ham ichiladigan suvga, ham yong'inga qarshi va boshqa ehtiyojlarga zarur bo'lgan suvga talabni qondirishi kerak. Omborlarni yoritilishi belgilangan me'yorlarga mos bo'lishi kerak.

Ombor maydonlarining joylashishiga qo'yiladigan maxsus talablar chiqish, keltirish va o'tib borish yo'llarini zarur bo'lgan sonini ta'minlab berishi kerak. Omborlarni ayrim imoratlari va inshootlari orasida ularni yong'inga chidamliligiga qarab zarur bo'lgan masofani o'rnatish kerak.

Ixtisoslashgan omborlar bir tovar yoki bir necha bir-biriga mos kelgan tovar guruhlarini saqlashga xizmat qiladi.

Omborlar o'rnatilgan saqlash rejimlariga ko'ra umumtovar va maxsus omborlarga bo'linadi.

Umumtovar omborlari savdodagi omborlarning asosiy turi hisoblanib, ularda maxsus rejimni talab qilmaydigan oziq-ovqat tovarlari saqlanadi.

Maxsus omborlarga sabzavot saqlovchi omborlar, sovitkichlar va boshqalar kiradi.

Omborlar sinflanishining boshqa xususiyatlariga omborxonalarning balandligi va qavatlilik, texnologik jarayonlarning mexanizatsiyalash darajasi, tashqi transport aloqalari ta'sir ko'rsatadi.

Bu xususiyatlariga ko'ra omborlar bir qavatli — balandligi 6, 12, 16 va 30 metr va ko'p qavatliga bo'linadi. Ammo texnologik jarayonning ratsional tashkil etilishida bir qavatli omborlar afzalroq deb hisoblanadi.

Omborlar texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan va bundan tashqari, kichik mexanizatsiya vositalari qo'llaniladigan omborlarga bo'linadi.

Tashqi transport aloqalarini hisobga olgan holda omborlar suv bo'ylaridagi to'xtash joylari, temir yo'llariga tutashgan joylariga ega bo'lishi mumkin. Shunday joylarga ega bo'lmagan omborlarni temir yo'lga tutashmagan omborlar deyiladi.

Omborlar tuzilishiga qarab ochiq, yarim yopiq va yopiq omborlarga bo'linadi.

Ochiq omborlar yer maydonlari va ustunlarga o'rnatilgan maydonlar yoki lentasimon poydevorlar sifatida joylashtiriladi. Bu omborlar qurilish materiallari, yoqilg'i, konteynerdagi tovarlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

Yarim yopiq omborlarni faqat tepasi yopiq bo'ladi va bulardan qurilish materiallari va boshqa yomg'irgarchilikdan saqlash holatlarida qo'llaniladi.

Yopiq omborlar bir yoki ko'p qavatli, isitiladigan va isitilmaydigan bo'ladi. Isitiladigan omborlarda isitish jihozi va havo aylantiruvchi moslamalar bo'ladi. Ularda ma'lum namgarchilikni

va kerakli temperaturani talab etadigan tovarlar saqlanadi. Isitilmaydigan omborlarda past (0°C) bo'lgan holatda o'z xususiyatini o'zgartirmaydigan tovarlar saqlanadi.

Vaqtincha saqlovchi omborlar ham bo'ladi. Ular bojxona tashkilotlari ruxsatnomasi bilan ta'minlangan bo'lishi shart. Ruxsatnomani O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi tomonidan beriladi.

Vaqtincha saqlovchi omborlar ochiq va yopiq turlarga bo'linadi. Ochiq turdagi omborlardan xohlagan shaxs foydalanishi mumkin, yopiq turdagi omborlarda esa faqat ma'lum shaxslarning tovarlari saqlanadi.

Vaqtincha saqlovchi omborlar moslamalarining nazorati bojxona tomonidan ta'minlanishi va saqlanayotgan tovar va transport vositalarini uchinchi shaxslar kirishidan himoya qilinishi kerak. Bu omborlarda tovarlar va transport vositalari ikki oydan ortiq saqlanishi man etiladi, faqat ayrim holatlarda Bojxona Kodeksida ko'rsatilgancha o'zgarishi mumkin.

3.2. Omborlarning tuzilishiga qo'yiladigan texnologik va umumtexnik talablar

Ombor inshootlarining qurilishi asosan temir beton yig'iluvchi elementlardan amalga oshiriladi. Eng qulay va arzon ombor moslamalari bu bir qavatli omborlar bo'lib hisoblanadi.

Ombor inshootining asosiy konstruktiv elementlari: fundament (asos), devorlar, ustunlar, qavatlar orasidagi tomlar, pollar, tom, rampalar, oyna va eshiklar. Ombor fundamenti mustahkam va uzoq muddatga chidaydigan materiallardan quriladi. Uning konstruksiyasi ma'lum og'irlikni ko'tarishi kerak. Fundamentlarni qurilishiga temir beton bloklar qo'llaniladi.

Ombor devorlari g'ishtdan, temir beton bloklar va panellardan bo'ladi. Ular juda ham chidamli va zarur bo'lgan xarorat rejimini va havo namligini ushlab turishga qodir bo'lishi kerak.

Ombor inshootining asosiy elementi bo'lib, ko'tarib turuvchi ustunlar hisoblanadi, ular g'ishtdan, temir-betondan va temirdan bo'lishi mumkin.

Ko'p qavatli ombor imoratlaridan qavatlar orasidagi tomlari uchun katta og'irliklarni ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan temir-beton panellar qo'llaniladi.

Ombor xonalarini pollari ham og'ir yuklarni ko'taradigan, yuqori darajada chidamli bo'lishi kerak. Pollarni yopish uchun beton va asfaltdan foydalaniladi. Ombor imoratlarini tomlari havo yog'ingarchiliklaridan ishonchli darajada saqlaydigan o'ta chidamli materiallardan bo'lishi shart.

Ombor imoratlarini konstruktiv va hajmiy planirovkali yechimlarini tavsif qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: qadam (shag), oraliq (prolyot), va balandlik.

Qadam — ko'ndalang qo'yilgan ustunlar, ya'ni devorlar orasidagi masofa.

Oraliq — uzunasiga qo'yilgan konstruksiyalar orasidagi masofa.

Qavat balandligi - ship bilan pol o'rtasidagi masofa.

Bir qavatli ombor imoratlarida bu ko'rsatkichlar quyidagilarni tashkil etadi: ustunlar qadami — 6 va 12 m; oraliq uzunligi — 12, 18 va 24 m; ombor xonalarining balandligi — 6 metrdan kam bo'lmashligi kerak.

Ortish - tushirish ishlarini amalga oshirish qulay bo'lishi uchun ombor bo'ylab rampalar quriladi, ular 2,5 dan 6 metrgacha bo'lgan platforma sifatida bo'ladi. Ularning balandligi yuklar keltiriladigan va jo'natiladigan transport vositalari turlariga bog'liq. Rampalarning tepasiga yog'ingarchiliklardan yuklarni saqlash uchun moslamalar (kozirek) qilinadi.

Ombor xonalarining eshiklari har xil razmerda bo'ladi. Ularning eni va balandligi yuklarni ombor ichida joydan joyga ko'chirish uchun qo'llanadigan transport vosita turlariga bog'liq.

Ombor xonalarini tabiiy yoritish uchun oynalar xizmat qiladi. Bir qavatli omborlarda ularni stellajlardan balandroqda joylashtiriladi. Omborlarda tovarlar bilan murakkab kompleks savdo texnologik jarayonlar bajariladi, ularni talab darajasida amalga oshirish uchun omborlarning tuzilishi bir qancha texnologik talablarga javob berishi kerak.

Eng asosiy texnologik talablardan biri ombor xonalarining maydoni va hajmi texnologik operatsiyalar xarakteriga va hajmiga mosligi. Ombor maydonlari hajmining katta-kichikligiga ombor

turib qolish vaqtini qisqartirishga olib keladi. Ombor ishlarini mexanizatsiyalash, hodimlarni mehnat unumdorligini 3-5 marotaba oshiradi.

Yuk ko'targich-transport jihozlari quyidagi asosiy belgilariga ko'ra sinflanadi: funksional vazifalariga; ishlashini takrorlash prinsiniga; ishlov berilayotgan yuk turiga; elektr kuchi bilan ishlaydigan uzatma turlariga; mehnatni mexanizatsiyalash darajasiga.

Funksional vazifalariga qarab uchta guruhga bo'linadi: yuk ko'targich mashina va mexanizmlar; transportirovka qiladigan yuk tashuvchi mashina va moslamalar; ortish-tushurish mashinalari.

Yuk ko'targich mashina va mexanizmlariga kranlar, yuk tashuvchi liftlar, lebyodka va elektr karalar kiradi.

Kranlar yuklarni vertikal va gorizontal tashilishida ishlatiladi. Ular ko'priksimon, konsolga oid, chorpoya va avtomobil kran-shtabellerlar.

Ko'priksimon kranlar temir yo'llar ustida yuradigan, ombor devorlarini bo'rtib chiqqan joylariga yoki maxsus ustunlarga o'rnatilgan yuk ko'targich mashinalardir. Ular og'ir vaznli yuk va konteynerlarni ombor ichidagi honalarda, ochiq maydonlarda, usti yopiq joylarda ko'chirishda qo'llaniladi. Omborlarda 5-10 tonnali yukni ko'tarishga qobiliyatli, 8-16 metr balandlikka yuk ko'taradigan ko'priksimon kranlar qo'llaniladi.

Konsolga oid kranlar og'irligi ko'p bo'lmagan, kichik gabaritli yuklar bilan ishlashga mo'ljallangan va ularda bir ish joyidan ikkinchi ish joyiga yuklarni olib borish ko'zda tutiladi. Ular devorlarga, pollarga yoki ombor ustunlariga birlashtirilishi mumkin. Kranning aylanishi 360 gradusgacha.

Elektr chorpoya kranlarini yuk ko'tarish qobiliyati 30 tonnagacha, ochiq maydonlarda ortish-tushurish ishlarini amalga oshiradi. Bu kranlarning ish unumdorligi yuqori bo'lib, temir yo'llar ustida yuradi..

Avtomobil kranlari avtomobil shassilariga o'rnatilgan bo'ladi. Ularni yuk ko'tarish qobiliyati 3 tonnadan 45 tonnagacha va yuklarni 7 metr balandlikka ko'taradi.

hisoblash texnikalari va shaxsiy kompyuter, qo'zg'aluvchan kartoteka, xaridorlar uchun stullar va hujjatlarni saqlovchi mebellar bilan jihozlanadi.

Ko'rgazma zonalarini yana alohida kichikroq zonalariga bo'linadi, devor oldidagi va orol shaklidagi tovarlarni ko'rsatish polkalari, gorkalari, konsollari, shtangalari bilan ta'minlanadi. Kichikroq zonalar tovarlarni ayrim assortiment guruhlarini namoyish etish uchun ajratiladi.

Dam olish va kutish zonasi xaridorlarni albomlar, kataloglar va tovarlar ro'yxati bilan mustaqil ishlash va tovarlarni tanlab bo'lgandan keyin dam olish uchun mo'ljallanadi. Bu zona asosiy tovarlarni ekspozitsiya qiluvchi va tovarshunos — sotuvchilarni ish joyidan ajratilgani ma'qul.

Dam olish va kuzatish zonalarining asosiy jihozi bo'lib, jurnal stollari, kreslolar va banketkalar, guldona hisoblanadi. Xuddi shu yerda har xil reklama materiallari (varaqlar, prospektlar, kataloglar) va sotiladigan tovarlar haqida boshqa ma'lumotlar, me'yoriy-texnik hujjatlari (standartlar va hokazolar) bo'lishi mumkin. Shunday qilib, kutish va dam olish zonalarini ma'lumot zonalarini yonida mujassamlanishi mumkin.

O'tish zonalarini tovar namunalari zalida yurish va ulgurji omborni boshqa xonalariga o'tish uchun xizmat qiladi. Asosiy o'tish joylari eniga 2 metrdan kam bo'lmasligi va boshqalari 1 metrdan kam bo'lmasligi kerak.

Tovarlar namunalari zalida ish vazifalarini bajaruvchi zonalarini tashkil etish, ularni ajralganligi mebel va savdo jihozlarini tanlash va joylashtirilishi kafolat vazifalarining maqsadga muvofiqligiga, interyerni qabul qilinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerak.

3.4. Ombor maydonlariga va ombor hajmiga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash

Yangi qurilishlar yoki ishlayotgan omborlarni rekonstruksiya qilish masalalarini hal qilishda, ombor maydonlariga va hajmiga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi. U quyidagi formulaga asosan hisoblanadi:

$$S_n = NQ,$$

bunda S_n — ombor maydoni (hajmi)ga bo'lgan ehtiyoj; N — sig'imi 1 mln so'm tovar zahirasiga to'g'ri keladigan normativi; Q — omborda saqlanishi mumkin bo'lgan tovar miqdori.

Ma'lum qurilish hajmiga bo'lgan ehtiyoj har xil usullar bilan aniqlanishi mumkin.

Ombor maydoni (umumtovar maydonlari uchun) tovar zahiralari shartli ikki o'qli vagon sonida va kub metrda, hamda (sovutgich va sabzavot-xo'l mevalar omborlari uchun) shartli tonnalarida belgilanadigan ko'rsatkichlar bo'yicha hisoblanishi mumkin.

Bu holatda avval omborda mo'ljallangan har bir tovar guruhi bo'yicha maksimal tovar zahiralari quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Q_{\max} = \frac{O \cdot K}{365C}$$

bunda $Q_{\max}$ — tovarlarni maksimal zahirasi, shartli vagonlarda; O — mos tovar guruhi bo'yicha yillik ombor tovar oboroti, mln. so'mda; K — tovar zahiralari shakllanishini notekislik koeffitsiyenti, 1,2 — 1,3 ga teng bo'ladi; S — bir vagon tovarning o'rtacha narxi, mln. so'm.

Keyin tovarlar saqlash usulini hisobga olgan holda har bir tovar guruhini saqlash maydonlari hisoblanadi. Bunda shtabel shaklida tashlanadigan tovarlarni saqlashda har bir shartli vagonga 25 kv.m. maydon normasi belgilangan, balandligi 2,5 metr bo'lgan stellajlarda saqlanadigan o'ramidan ochilgan tovarlar uchun esa — 40 kv.m.

Ombor hajmi shartli vagonlarda yoki tagliklarda aniqlanadi. Shartli taglik 1 kub.m ($800 \times 1200 \times 1050$ mm.)ga teng. 20 tonnali ikki o'qli vagon 42 shartli taglikka teng, shartli konteyner (foydali hajmi 6 kub.metrli universal konteyner) oltita shartli taglikni sig'diradi. Ombor maydoni va tegishli hajmi normalariga ega bo'lgandan so'ng, ombor sig'imi ehtiyojini hisoblab chiqish mumkin.

Tovarlarini saqlash uchun maydon ehtiyojini aniqlashning ikkinchi usuli quyidagi formula yordamida hisoblab chiqishga asoslangan:

Tagliklarni qo'llash ombor ichidagi va ortish-tushurish ishlarini to'liq mexanizatsiyalash, mehnat harajatlarini qisqartirish, omborlar honalari maydonidan va hajmidan samaraliroq foydalanish zarur bo'lgan sharoitlarni yaratib beradi. Bunda mehnat unumdorligi 3-4 marta oshadi, transport vositalarining turib qolishi 2-3 marta qisqaradi.

Uyilgan va sochiladigan yuklarni saqlash bunker moslamalarida va omborlarda amalga oshiriladi.

Bunker moslamalar bu uyilgan va sochilgan holda yuklarni vaqtincha saqlash uchun mahsus jihozlangan omborlardir.

Ular to'g'ri burchakli, yumaloq va konus shaklida bo'ladi.

Yuqorida yuk qabul qiladigan — pastda yuk chiqaradigan qopqoqli tuynuk. Qanday materialdan tayyorlanganligiga qarab yog'ochli, temir-beton va temirli bo'ladi. Ularning sig'imi 20 m.kubdan 100 m.kub bo'lishi mumkin.

Uyilgan yuklarni vertikal pardevor bilan ajratib qo'yilgan joylar omborlar turiga kiradi. Ular maydaroq bo'linmalarga bo'linishi mumkin. Ko'pincha temir-beton va yog'och omborlar uchraydi.

Suyuq yuklar (o'simlik moylari, neft tovarlari va boshqalar) rezervuarlarda, bochkalarda va bidonlarda saqlanadi.

Rezervuarlar, ko'pincha po'latdan tayyorlanadi. Ularning sig'imi 5, 10, 25, 50, 75 va 100 m. kub. bo'ladi. O'lchash, tozalash va ta'mirlash uchun lyuklar bilan ta'minlangan bo'ladi, bundan tashqari neft tovarlarini quyish-to'kish va havo chiqarish uchun moslamalar bilan ham ta'minlanadi.

Suyuq yuklarni saqlash va tashish uchun maxsus brutto og'irligi 30, 20, 10, 5 va 1,25 t. teng bo'lgan konteynerlar qo'llaniladi. Ularni qo'llash iqtisodiy jihatdan qulay bo'ladi, chunki suyuqlik yuklarni saqlash va tashish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni maksimal darajada mexanizatsiyalash va yengillashtirishga yordam beradi.

4.3. Omborlardagi ortish-tushirish jihozlari

Omborlarda ortish - tushirish jihozlarini qo'llash texnologik jarayonini og'ir va sarmashaqqat ishlarni osonlashtirishga, ortish-tushurish operatsiyalarining bajarilishini tezlashtirish, transport

tovarlarni mexanizatsiya vositalari yordamida saqlash uchun qo'llashadi. Gravitatsion stellajlarida yuk tokchalari qiya joylashganligi uchun yuk o'zini og'irligi yordamida o'tib ketaveradi.

Maxsus stellajlar muayyan tovarlarni saqlash uchun xizmat qiladi. Ularni tirab qo'yiladigan, konsol (balkaning devordan chiqib turgan va balkon, karniz singarilarini ko'tarib turadigan qism) va mexanik stellajlar-kiyimosgichlarga bo'linadi. Tirab qo'yiladigan stellajlar gorizontaI ramadan va unga biriktirilgan ustunlardan iborat. Konsol stellajlarda yuk ko'taruvchi yuzi konsol sifatida bajarilgan. Tirab qo'yiladigan va konsol stellajlarda uzun yuklar (trubalar, sortli metallar va boshqalar) saqlash uchun joylashtiriladi. Mexanik stellaj-kiyimosgichlarga ilingan ustki kiyim-kechak, kostyumlarni saqlash uchun qo'llaniladi.

Stellaj tipini tanlash, saqlanadigan tovarlar assortimentiga, tara o'rinlarining gabaritlariga, yuklar bilan ish olib boruvchi yuk ko'taruvchi-transport jihozlariga bog'liqdir.

Stellaj jihozlari ehtiyojini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Q_{st} = \frac{Q_t}{V_{st}},$$

bunda: Q_{st} — stellajlarni soni; Q_t — stellajlarda saqlash uchun mo'ljallangan tovarlar miqdori, kub.m.; V_{st} — stellaj hajmi, kub. m.

4.2. Tovarlarini tashishda tagliklardan foydalanish

Tovarlarini tashish, shtabellarga joylashtirish va yuk paketlarini shakllantirishda tagliklardan foydalaniladi. Qo'llash jarayonida ular universal bo'ladi. Asosan, yog'ochdan ishlab chiqariladi. Konstruksiyasiga ko'ra tekis, tirgakli tirab qo'yiladigan va yashik tagliklarga bo'linadi. Tekis tagliklar tovarlarini yashiklarda, qoplarda va boshqa taralarda paketlash uchun qo'llaniladi. Tirgakli tagliklar to'rtta tirgakli bo'ladi, ularni yuklari bilan ko'p qavatli qilib taxlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Yashik tagliklarning devorlari yechiladigan yoki yechilmaydigan bo'ladi. Ularga qutichalardagi, o'ralgan, bog'langan tovarlar va oson shikastlanadigan yuklar joylashtiriladi.

$$S_n = \frac{Q \cdot K_1}{K_2 \cdot h}$$

bunda S_n — tovarlarini saqlash uchun maydonga bo'lgan ehtiyoj, m²; Q — zarur bo'lgan saqlash hajmi, m³; K_1 — tovarlarini keltirish notekislik koeffitsiyenti; K_2 — ombor xonalari hajmidan foydalanish koeffitsiyenti; h — ombor xonalarini balandligi m.

Mos bo'lgan tovarlar guruhlarini zaruriy hajmi omborlar summasini 1 kub.m. tovarlar narxiga bo'lish yo'li bo'lgan aniqlanadi.

Tovarlarini saqlash uchun ombor maydoni ehtiyoji aniqlangandan so'ng, tovarlarini saqlash uchun mo'ljallangan xonaning (kameraning) umumiy maydoni aniqlanadi. Bunda bevosita stellajlar yoki shtabellarda yuk maydoni joylashgan tagliklardagi tovarlar maydoni bilan birga tagliklar orasidagi tirqishlar va yuklarni devorlardan, isitish asboblariidan uzoqlashganligi hamda asosiy qatnov yo'llari va stellajlar va shtabellar orasidagi maydonlar hisobga olinadi. Bunga yana tovarlarini qabul qilish, tanlash va tovarlarini komplektlash zonasiga ajratilgan maydonlar ham kiritiladi.

Ekspeditsiya va ma'muriy-maishiy xonalar, qadoqlash sexlari, tovarlar namunalari zallari, tagliklarni saqlashga, yuk koridorlari va ma'muriy-maishiy xonalarni birlashtiruvchi koridorlar maydonlari maxsus normativlar asosida aniqlanadi.

Sovitkichning yuk maydonini aniqlashda kub.metrda, haqiqiy va shartli tonnalarda belgilangan tez buzuluvchan tovarlar zahiralarini ko'rsatkichi hisobga olinadi. Uni quyidagi formulaga asosan hisoblash mumkin:

$$S_{sov} = \frac{Q_{zah}}{N \cdot h}$$

bunda S_{sov} — sovitkichni yuk maydoni, m²; Q_{zah} — tez buzuluvchan mos tovar guruhi bo'yicha zahiralar, haqiqatdagi tonnalari; N — shu tovar guruhlarini bo'yicha sovitkichlarni to'ldirish normalari, t/m³; h — tovarlarini taxlash balandligi, m.

Sovitkichning saqlash kameralar maydonini aniqlash uchun yuk maydonini yuk mayddonining koeffitsiyentiga bo'linadi.

Koeffitsiyent esa yuk maydonini umumiy maydonga nisbati bilan aniqlanadi.

Tayanch iboralar

Tovar omborlari. Texnologik talab. Tovar zahiralari. Jamlash. Kompleks inshoot. Saqlash. Tovar xususiyati. Sotishga tayyorlash. Saralovchi — taqsimlovchi. Son. Sifat. Assortiment. Universal. Umumtovar. Maxsus omborlar. Tranzit. Mavsumiy saqlash. Ixtisoslashgan. Ochiq ombor. Temir-beton. Yopiq ombor. Qavat. Konstruktiv elementlar. Qadam. Oraliq. Xonalar.

Nazorat savollari

1. Tovar omborlarining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Omborlarga qanday talablar qo'yiladi?
3. Ombor xonalarining joylashtirishda nimalarni e'tiborga olish zarur?
4. Omborlar qanday turlarga bo'linadi?
5. Ombor imoratlarini konstruktiv tuzilishida qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

4-bob. OMBORLARNING TEXNOLOGIK JIHOZLARI

4.1. Tovarlarni saqlash uchun jihozlar

Tovarlarni saqlash uchun jihozlar quyidagi guruhchalarga bo'linadi: tarali-donali tovarlarni tahlash va saqlash uchun; ustma-ust ortiladigan va uyma va sochiluvchan tovarlarni saqlash uchun; suyuqlik tovarlarni saqlash uchun.

Tarali-donali tovarlarni tahlash va saqlash uchun stellajlar va tagliklar qo'llaniladi.

Ishlatilishi bo'yicha stellajlar universal va mahsuslarga bo'linadi. Konstruktiv xususiyatlariga ko'ra yig'iladigan va bo'laklarga ajraladigan va ajralmaydigan stellajlarga bo'linadi. Yig'iladigan va bo'laklarga ajratiladigan stellajlar unifikasiyalashgan qism va uzellardan yig'iladi.

Taralarda va tagliklarda keltirilgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat bo'lmagan tovarlarni saqlash uchun universal stellajlar qo'llaniladi. Ular javonli (polochnie), katak, yashik, karkas va gravitasiya tipida bo'ladi. Eng keng tarqalgani javonli stellajlar, ular bir nechta qator gorizontaal bir-biriga vertikal ustunlariga mahkamlangan tokchalardan iboratdir. Katakli stellajlarda tokchalar vertikal pardevorlar (peregorodka) bilan bo'lingan. Ular qutiga va pachkalarga solingan kichik donali tovarlarni saqlashda qo'llaniladi, bundan tashqari tovarlarni sortlari, turlari va belgilariga qarab joylashtirishda ham qo'llaniladi. Yashikli stellajlar mayda donali tovarlarni (radiodetallar, yorug'likni sezuvchi rasm materiallari) saqlashga hizmat qiladi.

Yashiklar katak bo'lib ham hizmat qiladi. Karkas stellajlar vertikal temirli rama va gorizontaal panjaralardan iboratdir. Perforatsiya yordamida ustunlarda panjara o'rnini almashtirishi va stellaj kataklari balandligini o'zgartish mumkin. Karkas stellajlari tagliklaridagi

Tovarni qabul qilish jarayonida tovar ortig'i bilan chiqsa, dalolatnomada bu haqida ko'rsatilishi kerak.

Tovarni soni bo'yicha qabul qilish dalolatnomasi barcha ishtirok etgan shaxslar tomonidan imzolanishi kerak va qabul qiluvchi tashkilotni rahbari tomonidan tuzilgan kun ertasi kundan kechiktirilmasdan tasdiqlanishi zarur.

Tovarlarni kamomati yoki ortiqchaligi to'g'risidagi dalolatnomaga tovar bilan birga jo'natilgan hujjatlar, o'ram yorliqlari, etiketka va tara o'rinlarining plombasi va barcha boshqa kamomatni tasdiqlovchi hujjatlar dalolatnomaga qo'shilishi kerak.

Tovarlarni sifat bo'yicha qabul qilish muddatlari ta'minlash shartnomalarida ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Boshqa vaziyatlarda tovarlarni sifati va butligi bo'yicha qabul qilish quyidagi muddatlari belgilanadi:

— boshqa shahar ta'minotida — 20 kundan kechikmasdan, tez buziluvchan tovarlar bo'yicha — tovar omborga kelganidan keyin 24 soatda — bitta shahar ta'minotida — 10 kundan kechikmasdan, tez buziluvchan tovarlar bo'yicha — tovarlar omborga keltirilgandan keyin 24 soat ichida qabul qilinadi.

Qabul qilishda tovarlarning sifatsizligi aniqlansa, dalolatnoma tuziladi va ta'minotchini vakili chaqirtirilib, 24 soat ichida bu to'g'risida ogohlantirish yuboriladi (telegraf yoki telefon orqali), tez buziluvchan tovarlar bo'yicha shu zahotiy o'gohlantiriladi. Uch kun ichida boshqa shahar ta'minotchisining ishtirokchisi yetib kelishi kerak. Bir shahar ichida bo'lsa, ertasi kundan kechikmasdan yetib kelishi shart. Tovarlarni uzil-kesil qabul qilib olish dalolatnomasi belgilangan stansiyaga ular kelib tushgan kundan boshlab uch kundan kechiktirilmay tuzilishi lozim. Tovarlarni qabul qilib olishda va dalolatnoma tuzishda omborning kamida uchta xodimi ishtirok etishi lozim. Tovarlarning kamligi yoki sortlari aralashganligi ma'lum bo'lsa, tovar qabul qilish to'xtatiladi, bu jarayonni davom ettirish uchun Savdo palatasi, Davlat ekspertizasi yoki mahalliy organlarining vakili, agar shartnomada ko'zda tutilgan bo'lsa, tovar yetkazib beruvchining vakili chaqiriladi. Dalolatnomalar uch nusxada tuziladi: ularning birida tovarlarning narxi va umumiy summasi ko'rsatilmay, faqat tovar birliklari miqdori ko'rsatiladi.

4.4. Yuk tashuvchi mashina va moslamalar

Yuk tashuvchi mashina va moslamalarga konveyerlar, gravitatsion moslamalar, og'ir yuklarni tashuvchi polda yuruvchi aravachalar va boshqa jihozlar turlari kiradi.

Konveyerlar (transportyorlar) — bu to'xtovsiz ishlovchi va yuk tashuvchi mashinalar. Ular konstruktiv xususiyatlariga ko'ra lentali, plastinkali va rolikli bo'ladi, sochiluvchan va donali yuklarni gorizont va unchalik qiya bo'lmagan holatda harakatlantirish uchun qo'llaniladi.

Gravitatsion moslamalarga gravitatsion konveyerlar va vertikal qiyaliklar kiradi.

Yuk tashuvchi polda yuruvchi aravachalar yuklarni gorizont va unchalik qiya bo'lmagan hollarda harakatlantirish uchun qo'llaniladi. Ular elektr va qo'l yordamida ishlatiladigan bo'ladi. Elektr aravachalarni yuklarni 1 kilometr ga bo'lgan masofaga tashish uchun qo'llaniladi. Ularni yuk ko'tarish qobiliyati 500, 750, 1000 va 2000 kg bo'ladi. Qo'l yordamida ishlaydigan aravachalarni uch-to'rt g'ildirakli, yuk ko'tarish qobiliyati 0,25 tonnadan 1 tonnagacha bo'ladi. Yuk tashuvchi polda yuradigan aravachalar donali yuklarni tashishda ishlatiladi.

Elektrtortgichlar prisepli aravachalar va tara-jihozlarni g'ildiraklarda gorizont holatda tashish uchun qo'llaniladi. Tashiladigan yuklar og'irligi 1500 kilogrammgacha bo'lishi mumkin.

Ortish-tushurish mashinalari — vilali yuklagich va shtabellerlar ortish-tushurish ishlarini, ombor ichidagi harakatlarni va yuklarni omborda joylashtirishni bajarish uchun mo'ljallangan.

Elektr yuklagichlar — relssiz polda yuradigan elektrlashgan transport mashinalari. Ular akkumulyatorli batareyalarda ishlaydigan elektrodvigatel yordamida harakatga keltiriladi. Asosiy ishlash organi bo'lib yukni tagidan ko'taruvchi, uni yuqoriga ko'taruvchi, yuk tashuvchi va joylashtiruvchi vilalar hisoblanadi. Yuk ko'tarish qobiliyati 0,5 tonnadan 5 tonnagacha, yukni 2,0 metrdan 5,6 metrgacha balandlikka ko'taradi. Ular yordamida tara va donali yuklar gorizont holatda tashiladi va shtabellar va stellajlarga joylanadi. Ular yuqori darajada chaqqon harakat-

lanadigan bo'ladi. Temir yo'l vagonlarini, bortli avtomobillar va avtopriseplarni ortish va tushirishda qo'llaniladi.

Avtoyuklagichlar ichki yoqilg'i dvigateli yordamida ishlaydi, shu tufayli ochiq maydonlarda ortish-tushurish ishlarini bajarishda qo'llaniladi.

Yuk ko'tarish qobiliyati 3,2 tonnadan 10 tonnagacha, yukni 8,2 metrgacha balandlikka ko'taradi.

Elektrstabbellerlar polda yuradigan relssiz transport mashinalariga kiradi. Pollari qattiq va tekis bo'lgan yopiq binolarda ombor ishlarini bajarish uchun xizmat qiladi. Ular yordamida balandligi 4,5 metrgacha bo'lgan stellaj va shtabellarga taralidonali yuklar joylashtiriladi. Yuk ko'tarish qobiliyati 0,8; 1; 1,25; 1,6 va 2 tonna bo'ladi.

Omborlarni ko'tarish transport jihozlari bilan ta'minlashda omborlar tuzilishi qayta ishlov berilishi lozim bo'lgan yuklarni assortimenti va gabaritlari, ortish-tushirish va ombor ishlari hajmi, mexanizmlar unumdorligi, omborlarni ish rejaları e'tiborga olinadi.

Mashinalarning ish unumdorligini aniqlashda quyidagi formulani qo'llash mumkin:

$$P_{mash} = P_t \cdot K_1 \cdot K_2,$$

bunda, P_{mash} — mashinaning 1 soatda ishlatish unumdorligi, t; P_t — mashinaning texnik unumdorligi, t; K_1 — mashinani ishlatish koeffitsiyenti; K_2 — mashinani vaqt bo'yicha koeffitsiyenti.

Bu vaziyatda K_1 ishning bir sikldagi tashilayotgan yukni o'rtacha og'irligini mashinani nominal yuk ko'tarish quvvatiga bo'linadi.

Vaqt bo'yicha mashinalarni qo'llash koeffitsiyenti K_2 mashinani haqiqatda ishlagan vaqtini ish smenaning normativ vaqtiga bo'lish bilan aniqlanadi.

4.5. Og'irlikni o'lchash va qadoqlash jihozlari

Konstruksiyasiga ko'ra omborlarda ishlatiladigan tarozilar toshli, shkalali-toshli, siferblatli, yarim avtomatlashgan va avtomatlashgan tarozlarga bo'linadi. Bundan tashqari, tarozilar quyidagi turlarga bo'linadi: vagonli, avtomobilli, kranli, platformali, stol ustiga joylashtiriladigan (oddiy, siferblatli, elektron).

transport hujjatida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiq kelishini tekshirib chiqish shart.

Agar yuk plombalari buzilgan yoki transport hujjatiga muvofiq kelmaydigan plombalari (oraliq stansiyada qo'yilgan) bo'lgan shikastlangan vagon yoki konteynerda etib kelgan bo'lsa, bunday hollarda yuk oluvchi transport organlaridan yuk og'irligining, tovar o'rnlari sonining, idishning butunligini va tovar o'rnlari hamda tovarlarning schyot-faktura bo'yicha tekshirilishini talab qilish kerak. Tovarlarning kamligi yoki buzilganligini aniqlanganda yuk oluvchi stansiyadan yoki portdan savdo (kommersiya) dalolatnomasini tuzishni talab qilish lozim. Dalolatnomani tuzishdan bosh tortilsa, yuk oluvchi transport organlaridan norozilik bildirib, yuqori transport organlariga shikoyat qilishi va tovarlarni Davlat arbitraji tasdiqlangan amaldagi ko'rsatmaga muvofiq qabul qilib olishi shart. Agar yuk sifati vagon buzuvchiligi asosida o'zgargan bo'lsa, kommersiya dalolatnomasiga qo'shimcha texnik dalolatnomasi ham tuziladi.

Stansiyaning tovar idorasi yuklarni berishdan oldin yuk oluvchi bilan uzil-kesil hisob-kitob qiladi. Yuklarni saqlash, og'irligini tekshirish, yuk kelganligi haqida xabar berish, vagonlarning bekor turganligi uchun jarima to'lash va boshqalar ana shu hisobga kiritiladi. Hisob-kitob naqt pul emas, balki cheklar bilan amalga oshiriladi. Ekspeditorga shu maqsad uchun limitlangan chek daftarchasi beriladi.

Agar tovarlarni omborga qabul qilish paytida sifatsiz tovarlar aniqlansa, yuk oluvchi javobgarlikni o'z bo'yniga olib, bu tovarlarni saqlash uchun qabul qiladi va haq to'lashdan voz kechadi hamda bu haqda tovar yetkazib beruvchiga xabar beradi.

Tovar yetkazib beruvchi xabar olgan paytdan boshlab qabul qilinmagan tovarlarni 10 kun ichida, tez buziladigan tovarlarni esa 24 soatdan kechiktirmay foydalanish to'g'risida ko'rsatma berishi shart. Belgilangan muddatda javob kelmasa, yuk oluvchi tovarni tovar yetkazib beruvchiga qaytarib yuborishi mumkin.

Moddiy javobgar shaxslar tovarlarni omborda miqdoriga qarab qabul qilib olishga javob beradi. Tovarlarni sifatiga qarab tovarshunos va tovarshunos-nazoratchilar qabul qilib oladi.

5.2. Omborlarga tovarlarni keltirish va qabul qilish texnologiyasi

Omborning normal ishlashi uchun tovarlarni keltirish va qabul qilib olishni to'g'ri tashkil etish katta ahamiyatga ega.

Tovarlar tovar yetkazib beruvchining omborida, yuk oluvchi omborida va temir yo'l stansiyasi yoki suv pristanida qabul qilinib olinadi.

Temir yo'l yoki suv transporti vositasida yetkazib beriladigan tovarlar vagon ochiladigan va tushiriladigan joylarda joylar soni va brutto og'irligi bo'yicha qabul qilinadi. Idishlarga joylanmagan tovarlar netto og'irligi (sof og'irligi) va tovar idishchalari miqdoriga ko'ra olinadi. Vagon yoki barcha ochiladigan va tushiriladigan joylarda tovarlar sifati, tashqi ko'rinishini ko'zdan kechirish yo'li bilan taxminiy tekshiriladi.

Tovarlarni qabul qilishda butun taralarda keltirilgan tovarlar ochib ko'rilmaydi va tara ichidagi tovarlar miqdori va sifati tekshirilmaydi. Tovar miqdori va sifati, odatda, eng ohirgi xaridor omborida, ya'ni do'konda tekshirib ko'riladi.

Ammo ba'zi hollarda idishlarga joylangan tovarlarning miqdori va sifati omborda ham tekshiriladi. Bunday tekshirish shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa amalga oshiriladi.

Yuk, vagon yoki konteynerda olinganida, xaridor avvalo, vagon yoki konteynerlarning butligini, plombalarning bor yo'qligi va butunligini tekshirib chiqishi zarur. Plombalarning butligi tekshirilayotganda tamg'alarning aniqligiga e'tibor beriladi.

Agar plombalar shikastlanmagan bo'lsa, yuk kamayish aloqmatlari bo'lmasa, bunday hollarda yuk oluvchi qoidalarga muvofiq yuk og'irligini tekshirib ko'rilishini talab qilishi mumkin. Yuk og'irligi tekshirilmay berilsa, yuk oluvchi buning isboti tariqasida transport yuk varaqasining teskari tomoniga stansiyaning maxsus belgi (shtempel) bosilishini talab qilishi lozim.

Yuklarni belgilangan stansiya (pristan yoki port) omboridan olishda yuk oluvchi idishlarning butunligini, ulardagi markalarning bor yo'qligini, yuknoma, og'irligi va tovar o'rinlari sonining

Omborlarni jihozlashda, ko'pincha, harakatlanuvchi platformali va stasionar tarozilar qo'llaniladi. Ulardan og'ir va katta hajmdagi yuklarni o'lchash uchun foydalaniladi.

Og'irligi 50 kilogrammdan 3 tonnagacha bo'lgan yuklarni o'lchash uchun tovar tarozilari qo'llaniladi, ular polga o'rnatilgan harakatlanuvchi bo'ladi.

Tarozilar quyidagi chegaraviy o'lchashlariga qarab bo'linadi:

— shkalali-toshli — 500 kg, 1, 2 va 3 t;

— shkalali 50, 100, 200, 500 kg, 1, 2 va 3 t;

— siferblatli — 60, 100, 150, 300, 600 kg, 1,2 va 3 t.

Barcha tovar tarozilarida eng kam og'irlik o'lchash miqdorining 1/20 qismini tashkil etadi.

Ishlatishda eng qulay bo'lib shkalali va siferblatli tarozilar hisoblanadi.

Katta hajmdagi yuklarni o'lchash uchun platformali statsionar tarozilar mo'ljallangan.

Yuklarni avtomashinalar bilan o'lchash uchun o'lchash og'irligi eng ko'p miqdorli 10, 15, 30, 60, 100 va 150 tonnaga teng bo'lgan avtomobil tarozilarida o'lchanadi.

Ulgurji bozorlarda tarozilarni vagonlar bilan o'lchash uchun vagon tarozilari qo'llaniladi. Ularni o'lchash miqdori 7,5 — 100 va 10 — 200 tonna bo'ladi.

Ulgurji bozorlarda qadoqlash jihozlari qo'llaniladi. Ishlatilishi bo'yicha ular boqqollik tovarlarini qadoqlash va o'rash (avtomatlashgan dozator, mexanizatsiyalashgan to'xtovsiz liniya) jihozlariga va kartoshka, sabzavot va xo'l mevalarni qadoqlash va o'rash uchun jihozlarga bo'linadi.

Qog'oz paketlarga shakarni va krupalarni 0,5 va 1 kg dan qadoqlash uchun avtomatlashgan tarozilar qo'llaniladi. Ularning unumdorligi 1 kg dan qadoqlanganda soatiga 1500 paketga teng bo'ladi.

Ular markazlashgan qadoqlash sexlarida qo'llaniladi. Polga statsionar holatda o'rnatiladi. Davlat standarti organlari tomonidan tekshiriladi va tamg'alanadi.

Tayanch iboralari

Tara. Stellajlar. Tagliklar. Katakalar. Tokchalar. Uyma tovarlar. Suyuqlik tovarlari. Vertikal ustunlar. Pardevorlar. Yashikli stellajlar. Gravitatsion stellajlar. Maxsus stellajlar. Bunker moslamalari. Kran-shtabeller. Yuk lifti. Elektr karalar. Ortish - tushirish mashinalari. Yuk ushlagich. Elektr shtabellerlar. Ombor tuzilishi. Mexanizm unumdorligi. Ehtiyoj. Stasionar tarozlar. Shkalalik toshli tarozlar. Platformali tarozilar. Mexanizatsiyalashgan liniya. Oqim liniyalari. Qadoqlash.

Nazorat savollari

1. *Tovarlarni omborlarda saqlashda qanday jihozlardan foydalaniladi?*
2. *Stellajlar qanday turlarga bo'linadi?*
3. *Yuk ko'targich — transport jihozlari qanday turlarga bo'linadi?*
4. *Yuk tashuvchi mashina va moslamalarga qanday jihozlar kiradi?*
5. *Elektr yordamida ishlaydigan qanday jihozlarni bilasiz?*
6. *Ko'taruv-transport mashinalariga ehtiyoj qanday aniqlanadi?*

5-bob. SAVDO OMBORLARIDA UMUMIY TEXNOLOGIK JARAYONLAR

5.1. Ombor texnologik jarayoni va uni tashkil etish prinsiplari

Omborlarda tovarlarni keltirish, saqlash va berib yuborish bo'yicha har xil birin-ketin bajariladigan operatsiyalar majmuyi amalga oshiriladi. Bu operatsiyalar birgalikda ombor texnologik jarayoni deb ataladi.

Ombor texnologik jarayonining mazmuni va hajmi ombor turiga, u yerda saqlanadigan tovarlarni fizik-kimyoviy xususiyatlariga, yuk hajmiga va boshqa omillarga bog'liq.

Tovarlar omborlarga har xil transport vositalarida keltiriladi. Tovarlarni keltirilishi bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarga uni transport vositasidan tushirish, qabul qilish, tovarni joyiga yetkazish, ochish, son va sifat bo'yicha qabul qilish kiradi.

Qabul qilingan tovarlarni saqlash joylariga yetkazish va peshtaxtalarga joylashtirish kerak.

Ombor texnologik jarayonini samarali tashkil etish asosida quyidagi muhim tamoyillar amalga oshirilishi kerak: rejali va ritm asosida, tovar oqimlarini samarali tashkil etish, ombor operatsiyalarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, mehnat vositalarini samarali qo'llash, tovar xususiyatlarini to'liq saqlash.

Ombor texnologik jarayonining ratsional tashkil etish shartlaridan xodimlar o'rtasidagi vazifalarni to'g'ri taqsimlash hisoblanadi.

Ombor texnologik jarayoni aniq rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Bu maqsadlar uchun kalendar rejalar va tovarlarni keltirish va berib yuborish grafiklari tuzilishi kerak.

Har xil operatsiyalarni ma'lum teng vaqt ichida barcha texnologik jarayon siklini ritmik ravishda qaytarilishi belgilab beriladi.

lardan foydalaniladi. Tovar savdo zalida bevosita yashiklar va yog'och tagliklarga taxlanishi mumkin.

Mamlakatimizda bu yo'lda eng ko'p tarqalgan usul — non-bo'lka tovarlarini tashish va realizatsiya qilish muammosi hal etilganligidir.

Shunday qilib, taraning yangi turlarini joriy qilish, mehnatni kompleks mexanizatsiyalash uchun sharoit yaratadi, omborlar va chakana savdo korxonalaridagi mustahkam qurilgan jihozlarni almashtirish, savdoda texnologik jarayonlarni ratsionalizatsiyalash imkonini beradi. Bunda tovarlarning do'kon ichki reklamasi va xaridorlarni xabardor qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Xaridor o'z-o'ziga xizmat ko'rsatiladigan do'konlarda, tovarlar o'ziga xos axborotchi vazifasini ham o'taydi. Demak, do'konda tovarlarni to'g'ri taxlash, aynan mos jihoz va taralar tanlash chakana savdo tarmoqlarida tovar reklamasining muhim tadbirlaridan biridir. Tara xaridor bexabar tovar haqida xabar tashuvchi asosiy omil bo'lib qoladi.

Savdoning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish usuli rivojlangan sari iste'mol tovarlarini o'rash-joylash bilan xaridorlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning ahamiyati oshib bormoqda. O'rash-joylash aynan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatiladigan do'konda ilgari sotuvchilar bajargan ayrim funksiyalarni bajarmoqda.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatiladigan do'konlarda xarid qilingan barcha buyumlarning taxminan 60 % i oldindan mo'ljallanmay sotib olingani aniqlangan. Bunda tara va o'rash-joylash muhim rol o'ynaydi.

O'rab-joylab qo'yilgan tovar xaridor e'tiborini tortadi, qiziq-tiradi, xarid qilish ishtiyoqini uyg'otadi. Bunday tara hal qiluvchi paytda tovar bilan xaridor o'rtasidagi vositachilik rolini o'ynaydi, tovar sotish texnologiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib hozirgi sharoitda savdoning texnologik jarayonini takomillashtirish tara va o'rash-joylash ishining yangi zamonaviy turlarini qo'llash bilan uzviy bog'liqdir.

Tara — saqlash va tashish uchun ishlatiladigan buyumdur. Yashik, bochka, biton, flyaga, katta shisha butilka, flakon, butilka, banka, qop, baraban, panjara, quti, o'rash materiallari va boshqa

5.3. Tovarlarini joylashtirish, taxlash va saqlash texnologiyasi

Tovarlar omborda saqlanayotganda ularning dastlabki sifati va miqdori to'liq saqlanishi lozim. Buning uchun quyidagilar zarur: har bir bir tovar uchun eng qulay saqlash rejimini yaratish; tovarlar saqlanayotganida ularning muttasil kuzatib borish va tovarlarga qarab turish; tovarni saqlash uchun oqilona joylashtirish; moddiy javobgarlik tizimini to'g'ri tashkil qilish va shunday ish sharoiti yaratish kerakki, bunda ularning o'g'irlanishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Tovarlarining omborda saqlanishi ularning do'konlarda saqlanishidan farq qilib, o'ziga xos bir qancha xususiyatlariga ega. Tovarlar omborda uzoq vaqt va ancha katta partiyalar bilan saqlanadi. Tovarlarining har bir turi uchun ularning fizik-kimyoviy xususiyatlariga bog'liq holda omborlarda tovar saqlashning ancha qulay sharoitlari yaratiladi.

Tovar saqlash uchun qulay rejim yaratish — ombor binosini tanlashdan boshlanadi.

Tovarlarini saqlash uchun isitiladigan, sovuq o'tmaydigan va sovuq o'tadigan ombor binolaridan, sovitadigan bo'limlardan, shiypolar hamda ochiq maydonlardan foydalaniladi. Isitiladigan omborlarda fizik-kimyoviy xususiyatlari doimiy issiq harorat va muayyan namlik bo'lishini talab qiladigan tovarlar saqlanadi. Bunday tovarlarga gazmol, tikuvchilik buyumlari, bosh kiyimlar, poyafzal, attorlik va parfumeriya tovarlari, foto va radio tovarlar, musiqa asboblari, o'yinchoqlar va boshqa sanoat tovarlari kiradi. Sovuq haroratda o'z sifatini yo'qotmaydigan, ammo haroratning va havo namligining keskin o'zgarishini himoya qilishni talab qiladigan tovarlar sovuq o'tmaydigan binolarda saqlanadi. Bu tovarlarga idish-tovoqlar, xo'jalik buyumlari, velosiped va motosikllar, xo'jalik sovunlari, tamaki tovarlari, un, don, krupa, em bo'ladigan donlar va hokazolar kiradi.

Sovuq o'tadigan omborlarda harorat va havo namligining o'zgarishlariga bardosh bera oladigan, biroq yomg'ir-sochindan hamda quyosh nuri ta'siridan tez buziladigan tovarlar saqlanadi.

Bunga sement, alebastr, qog'oz, tuz, mix, elektr o'tkazgichlari va elektr shnurlar, mebellar va boshqalar kiradi.

Faqat yog'in-sochindan saqlashni talab qiladigan tovarlar shiyponlarga qo'yiladi. Bunday tovarlar jumlasiga tomga yopiladigan va sortli tunukalar, yog'ochdan ishlangan tovarlar, faner, standart utler, tol, ruberoid, bo'r va boshqalar.

Ochiq maydonlarga o'zining sifatini ochiq havoda ancha uzoq saqlay oladigan tovarlarga qo'yiladi. Bularga yoqilg'i, yog'och, yog'och-taxta, g'isht, cho'yan va asbosement quvurlari kiradi.

Sovitish bo'limlarda fizik-ximyoviy xususiyatiga ko'ra saqlash paytida past yoki sovuq haroratni talab qiladigan oziq-ovqat tovarlari saqlanadi. Bu tovarlarga go'sht, kolbasa tovarlari, yog', mol yog'i, sut tovarlari, tuxum, baliq tovarlari va yangi baliq va boshqa tez buziladigan tovarlar kiradi.

Ayrim tovarlar uchun eng qulay harorat va havo namligi turlichadir. Sanoat tovarlari uchun qishda harorat 15-18 va havoning nisbiy namligi 60-70%, oziq-ovqat tovarlari (tez buziladigan tovarlar bundan mustasno) uchun harorat 6-10 va havo namligi 70-75% bo'ladi.

5.4. Omborlardan tovarlarni yetkazib berish texnologiyasi

Ko'pchilik savdo omborlarining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ular tovarlarni bevosita chakana savdo korxonalariga yuboradilar. Omborlarning tovar yetkazib berishning eng ilg'or usuli — bu ombor transporti yoki omborga xizmat ko'rsatayotgan transport tashkilotining transporti vositasida tovarlarni do'konlarga markazlashgan tartibda yetkazib berishdir.

Omborning tovar berishga oid ishlari buyurtmalar olish, mavjud tovar assortimenti bilan xaridorlarni tanishtirish, tovarlarni do'konlarga berishga tayyorlash va bu tovarlarni chakana savdo shoxobchasiga yetkazib berish ishlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi lozim.

Omborlarning bir tekis ishlashi, transportdan to'xtovsiz ravishda ta'minlab turish maqsadida omborda buyurtmalar olish,

Tovarlarni paketlarda berish qabul qilish vaqtini qisqartiradi. Bu esa savdoning iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirishda juda muhimdir.

Tovarlar sanoat korxonasida yoki ulgurji savdo omborida tagliklar ustida paketlanib, qayta ishlovsiz o'z-o'ziga xizmat ko'rsatadigan do'konning savdo zaliga bevosita tashiladigan bo'lsa, ishni shu zalda tashkil etish juda yaxshi samara beradi. Xaridorlar tovar xarid qilayotganlarida uni tagliklardagi paketlardan donalab oladi. Tovar temir trubalardan yasalgan ko'p qavatli va rolikli aravachalarda paketlanadi; bu aravachalarga 360 paket sig'adi. Paket taxlangan arava do'konning savdo zaliga g'ildiratib kelinadi va maxsus sovitgich shkafiga joylanadi.

Bu usulni boshqa tovarlar uchun ham qo'llash mumkin. U yuklash ishlarida tejamkorlikka erishish, qo'l mehnatini kamaytirish hamda do'kon maydonchalaridan maksimal foydalanish imkonini beradi.

Shunday qilib, tara va o'rash-joylash ishlari yangi tipdagi savdo korxonalarini yaratish, muomala xarajatlarini kamaytirish, hozirgi do'konlarning odatdagi jihoz va uskunalarini almashtirish imkonini beradi. Bu esa interyerlarni estetik jihatdan bezashga ta'sir qiladi.

Tovar, jihozlarga shunday joylashtirilishi kerakki, bunda ular ko'rinib tursin va ochib qo'yilishi oson bo'lsin. Savdo jihozlari yetarli darajada sig'imli bo'lib, ko'p joy egallamaydigan bo'lishi kerak. U mustahkam, ozoda va arzon bo'lishi lozim. Hozirgi savdo tarmoqlarida hamon eski jihozlardan foydalanilmoqda. Bu tovar sotishning zamonaviy usullariga o'tish hamma savdo maydonchalaridan oqilona foydalanishga xalaqit bermoqda. Ammo endilikda jihozlarning yangi turlaridan muvaffaqiyatli foydalanayotgan savdo korxonalari ham oz emas. Tovarlarni ochib taxlab qo'yish uchun asosiy jihozlardan tashqari eshiklar yoki derazalar orasidagi bo'sh joylar va kolonnalar tagiga qo'yiladigan perforatsiyalangan paketlar, turli xil tagliklar, simdan to'qilgan maxsus savatlar singari qo'shimcha jihozlardan ham foydalanilmoqda. Bulardan tovarlarni ombordan savdo zaliga o'tkazishda tara sifatida hamda tovar taxlanadigan va sotiladigan jihoz sifatida foydalaniladi. Ishlar qulay bo'lishi uchun g'ildirakli maxsus yashik va taglik-

Turli xil tagliklardan foydalanish savdoning ilg'or shakllarini joriy qilishda eng istiqbolli yo'llaridan biridir. Tovarlar sanoat korxonalarida paketlarga, yashiklik tagliklarga, konteynerlarga taxlanadi, ulgurji va chakana savdo korxonalariga shu tara kelib tushadi hamda shu holda realizatsiya qilinadi. Bunday transport tarasi do'kondagi jihozlar o'rmini bosadi. Buning uchun do'kon xiyla katta bo'lib, tovar qabul qiladigan estakada yoki platformasi, sanchiqli avto yuklagichlari bo'lishi kerak. Bundan tashqari do'konning pollari va qavatlararo shiplari mustahkam bo'lishi, yordamchi binolari va savdo zallari keng eshikli hamda o'tish joylari bo'lishi kerak.

Savdoda sanoat va qishloq xo'jaligi tovarlarini iste'molchilarga uzluksiz yetkazib berishni ta'minlash lozim. Tovarlarini saqlash ishiga ko'maklashishi tufayli tara savdosiga bu muhim vazifani bajarishda yordam beradi. Bundan tashqari tara savdo reklamasi vositasi bo'lib, reklama madaniy xizmat ko'rsatish maqsadlariga qaratilishi kerak.

Tagliklardan transport tarasi va tovarni ochib qo'yish vositasi sifatida foydalanish, tovarlarni tarada o'rash-joylash va yechish-ochish, shuningdek, boshqa bir qancha ortiqcha ishlarni bartaraf qilish imkonini beradi. Hozirgi paytda tagliklardan o'rab-joylangan turli tovarlarni do'konlarga tashish va sotishda muvaffaqiyatli foydalanilmoqda.

Savdodagi muayyan tovarlarni tashish va saqlash zarurati taqozosi bilan yashikli va ustunli tagliklar xili ancha ko'paytirildi.

Keyingi vaqtda chet elda yarim tagliklardan foydalanilmoqda. Ularning tag sathi 800-1200 mm li standart tagliklardan ikki baravar kichik. Tovar tanlash paytida xaridorlar old devorning yuqori qismini pastga tushirishlari mumkin. Savdo zalida bunday yarim tagliklar bir yoki ikki qator qilib yerga yoxud stellaj polkalriga o'rnatiladi.

Bunday taralardan foydalanish do'kondagi ayrim texnologik operatsiyalarni bajarishda vaqt va mehnat sarfini xiyla tejash imkonini beradi. Masalan, hozir transport tarasini ochish va 200 kg oziq-ovqat tovarini savdo zalidagi stellajlarga qo'yishni bir ishchi 20 minutda bajaradi. Yarim tagliklar va qo'lda ishlatilgan gidravlik aravachalaridan foydalanganda o'sha ishchi 300 kg oziq-ovqat tovarini tashish va sotishga tayyorlashni 2,5 minutda bajara oladi.

tovarlarni berish va ularni do'konlarga yetkazib berish jadvallari tasdiqlanadi.

Tovarlar yozilgan schyot- faktura asosida berishga tayyorlanadi. Tovarlarini berishga tayyorlash quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi: tovarlarni saqlanayotgan joylaridan tanlab olish va o'rab-taxlanadigan joyga tashib keltirish; do'konlarga eltib berish uchun ekspeditsiyaga topshirish.

Tayanch iboralar

Tovarlarini keltirish. Ombor texnologik jarayoni. Yuk hajmi. Transport vositalari. Sifat. Tovar soni. Tovarni saqlash. Ratsional tashkil etish. Reja. Ritm. Tovar oqimi. Mexanizatsiyalash. Tovar xususiyati. Grafiklar tuzish. Brutto og'irligi. Shartnoma. Plombalar butligi. Transport yo'l varaqasi. Vagon. Konteyner. Schyot-faktura. Dalolatnoma. Moddiy javobgar. Kamomat. Tovar xususiyatlari. Harorat. Markazlashgan usul. Buyurtmalar olish.

Nazorat savollari

1. Ombor texnologik jarayonini qanday tashkil etish tamoyillari mavjud?
2. Ombor texnologik jarayonini ratsional tashkil etilishi qanday amalga oshiriladi?
3. Tovar qanday belgilariga qarab qabul qilinadi?
4. Tovarlarini qabul qilishda qanday hujjat asos bo'lib hisoblanadi?
5. Tovarlarini saqlashda qanday shart-sharoitlar yaratilishi kerak?

6-bob. SAVDODA TARA VA TARA OPERATSIYALARI

6.1. Savdo texnologik jarayonida o‘ramni va taralarni roli

O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligining izchil rivojlanib borishi natijasida sanoat va qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqarish yildan-yilga oshib bormoqda. Xalq iste‘moli mollari (tovarlari)ning ishlab chiqarish jarayoni ularni korxona sexida tayyorlash bilan tugamaydi. Tovarni iste‘molchiga yetkazib berilgandagina uni tayyor deb hisoblash mumkin.

Ko‘plab turdagi xom ashyo, material, yarim tayyor va tayyor tovarlar ishlab chiqarish doirasidan iste‘mol doirasiga o‘tkazilayotganda o‘zining fizik-kimyoviy xususiyatlariga qarab turli xildagi xarajatlarni talab etadi va davlat byudjetida muhim o‘rin tutadi. Ko‘plab turdagi sanoat va qishloq xo‘jaligi tovarlari va materiallarini, ayniqsa, suyuqlik, ximikat, gaz va boshqa materiallarni tarasiz saqlash va tashish mumkin emas. Bu yerda tara tovarlari bir joydan ikkinchi joyga tashish va saqlashni ta‘minlovchi zarur vosita hisoblanadi.

Tara tovar sifatini, asl xususiyatini saqlashni, namlik, yorug‘lik va haroratning zararli ta‘siridan asrashni ta‘minlaydi.

Binobarin, tara yuqori sifatli tovar uchun kurashning muhim vositalaridan biri hamdir.

Tara, shuningdek, tovar miqdorini saqlashni, uni sochilib yoki oqib ketishdan hamda tashish va saqlash paytidagi boshqa nobutgarchilikdan asraydi. Tara bunday ishlab chiqarilgan ijtimoiy tovarni tejash va saqlash omili bo‘lib xizmat qiladi.

Tovarlarni puxta o‘rash-joylash, ularning sifatini saqlash, binobarin, tovarlarni yo‘lda nobud bo‘lishi bilan bog‘liq reklamat-siyalarni kamaytirish, o‘rash-joylash qiymatini tashishdagi transport va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Tovarlarni joylashda saqlash, tashish uchun transportbop holatga keltirish, ixchamlash va kichraytirish hamda kimyoviy, fizikaviy, mexanik va boshqa o‘zgarishlardan asrash uchun tara o‘rash-joylash vositasi hisoblanadi.

Tovarlarni tashish jarayoni tashiladigan tovar va materiallarni ko‘pincha taraga joylash yo‘li bilangina amalga oshirilishi mumkin. Bunda tara tovarlarini transportbop etish, tashishga tayyorlashda yordamchi vosita hisoblanadi. Taraning bunday ishtirokisiz mahsulotni tashish mumkin bo‘lmas edi. Tara transport operatsiyalarini soddalashtirishda va engillashtirishda ularning ishlab-chiqarish texnik darajasini oshiradi.

Tara mehnat vositalarining alohida turi sifatida xom ashyo material, yarim tayyor va tayyor tovar miqdori va sifatini asragan holda tovarlarni ishlab chiqarishda iste‘molchilarga yetkazib berish jarayonida hisob-kitob va ortish-tushirish ishlarini yengillashtiradi. Savdo sharoitida tara savdo-texnologik jarayonlarini takomillashtirish omili bo‘ladi.

Tara ishlab chiqarishning rivojlanishi savdoda o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Savdoda fan-texnika taraqqiyoti savdo texnologiyasiga samarali o‘tish uchun tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish bilan bog‘liq.

Zamonaviy texnologik tovarlar va savdo faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda tovarlarni ishlab chiqarishdan iste‘molchilar sari harakati keng mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, shuningdek, elektron-hisoblash texnikasi ko‘magida jarayonlarni rejalashtirish va boshqarish imkoniyatini beradi. Texnologik qonuniyatlarga amal qilish tovarlarni chakana savdo tarmoqlarida sotishning texnologik jarayonlarining bunday shart-sharoitlariga tovarning kelib tushishi, uni saqlash, sotishga tayyorlash, taklif qilish va iste‘molchilarga jo‘natish kabilar kiradi. Chakana savdo tarmoqlarida texnologik jarayonlarning davomiyligi tovarning ishlab chiqarishdan iste‘molchi sari yalpi harakati ancha ta‘sir ko‘rsatadi. Ayrim texnologik tur va miqdori yetkazib beriladigan tovarlarning iste‘mol qilish uchun qanchalik tayyor ekanligiga bog‘liq bo‘ladi. Bunda yangi turdagi taralar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

temir yo'l boshqarmasiga buyurtma beradilar. Yuk jo'natuvchining bunday buyurtmasini bajarish imkoni bo'lmasa, bu xaqda u 3 kun ichida xabardor qiladi. Joriy oyda temir yo'l orqali yuk tashish rejasini bajarmasalar, yuk jo'natuvchilar shu chorakning keyingi oylarida buning o'rnini ham to'lg'azishlari kerak.

Yuk tashish rejaları o'zgartirilganda chorak rejaları yuk jo'natuvchi boshqarma va idoralarning tavsiyasi bilan rejalashtirilgan chorak tugashidan kamida 35 kun oldin o'zgartirilishi, oylik rejalar esa joriy oy tugashidan kamida 15 kun oldin yuk tashish rejasini tasdiqlaydigan tashkilot tomonidan o'zgartirilishi mumkin.

Yuklarni temir yo'lda tashish turli qatnov yo'llari bilan bajariladi:

- mahalliy qatnov — yuk bitta yo'lda tashiladi;
- bevosita qatnov — yuk ikki va undan ortiq yo'lda tashiladi;
- bevosita-aralash qatnov — yuk temir yo'lda transportning boshqa turlari ishtirokida yagona tashish hujjati bo'yicha tashiladi;
- bevosita xalqaro qatnov — ikki yoki undan ortiq davlatlarning temir yo'llari ishtirokida yuk tashish.

Tashiladigan yuk partiyasining hajmiga qarab yuk tashish quyidagilarga bo'linadi:

- mayda jo'natishlar — bunda yukning og'irligi 10 tonnadan oshmasligi, lekin 20 kg dan kam bo'lmasligi, hajmi esa to'rt o'qli vagonning 1/3 qismidan ko'pini egallamasligi kerak;
- kichik tonnali jo'natishlar — to'rt o'qli vagon og'irligi 10 tonnadan 20 tonnagacha bo'lgan va shu vagonning yarimidan ko'pini egallamay, bitta nakladnoy bilan tashiladigan yuk partiyasi;
- vagonbay jo'natishlar — bunda yukning vazni yoki hajmi alohida vagon talab qilsa, bitta nakladnoy bilan jo'natiladi;
- marshrutli jo'natishlar — bunda yuk butun poyezd sostaviga ortish uchun yetarli miqdorda bo'ladi;
- guruhlab jo'natishlar — bunda marshrutli jo'natish uchun yetarli bo'lmagan yukni vagonlar guruhlarida jo'natadi.

Tashish poyezdi yuk tezligida (oddiy yuk poyezdlarida), katta tezlikda (tezyurar poyezdlarda) va yuk bagaji tarzida passajir poyezdlarida amalga oshiriladi.

Yuk jo'natuvchi har qaysi yuk jo'natishda asosiy tashish hujjati bo'lgan yuk varaqasini yuk jo'natish stansiyasiga berishi kerak.

taralar shu jumla ga kiradi. Tovar joylanadigan taralar shakli, o'lchami va yasaladigan materiallarga qarab juda ham xilma-xildir. Tara turlarining juda ko'p bo'lishi tovarlarning xossalari ga, xususiyatlariga, ularni tashish sharoitlariga bog'liq.

6.2. Taralarga qo'yiladigan talablar

Tara o'z vazifasiga mos bo'lishi uchun unga ma'lum texnik va iqtisodiy talablar qo'yiladi.

Texnik talablar shundan iboratki, bunda tara yasalgan materiallar va taraning tuzilishi tovarlarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularni saqlash uchun eng qulay sharoitlar yaratilishini, ularni tashish paytida ularning yaxshi saqlanishini ta'minlanishi lozim. Tara mustahkam, yengil va ortish-tushirish ishlarini bajarishda hamda idishlarga solingan tovarlarni tashishda qulay bo'lishi kerak.

Tovar sotish ilg'or usullarning keng joriy etilishi, savdo madaniyatining yuksalishi ko'p jihatdan tovarlarni oldindan qadoqlab qo'yilishiga bog'liqdir. Tara o'lchamlari unga joylangan tovar hajmi yoki og'irligi bo'yicha xaridorlar ehtiyojlarini qondirishi lozim.

Iqtisodiy talablar idishning arzon bo'lishini taqozo qiladi. Ko'p ishlatiladigan taralar eng ko'p iqtisodiy samara beradi. Taraga texnik va iqtisodiy talablardan tashqari estetik talablar ham qo'shiladi. Xaridorlarga taralarga (shishaga, bankaga, qutiga, flakonga va hokazolarga) solinib sotiladigan tovarlar taraning tashqi ko'rinishi bilan birga xaridorlar diqqatini o'ziga tortishi lozim. Shuning uchun tara shakli, uning bezatilishi (rangi, rasmlari, yozuvlari) tovarlarning jozibali va ajoyib ko'rinishga ega bo'lishiga, uni tashviqot qilishga, buyumning xususiyatlari va uni iste'mol qilish usuli to'g'risida xaridorlarni xabardor qilishga yordam berishi shart.

Taraga qo'yiladigan iqtisodiy va estetik talablar bir-birini o'zaro to'ldiradi. Bu talablar DST larda yoki texnik shartlarda aks ettiriladi. Taralar ana shu DST larga va texnik shartlarga muvofiq ishlab chiqariladi.

DST lar (texnik shartlar) tara (yashik, quti, biton, bochka, banka, qop va x.k.), tara yasaladigan material, tara o'lchamlarini,

qaysi nuqsonlar bo'lganida taradan foydalanishga yo'l qo'yilishi va boshqa shartlarni o'zida aks ettiradi.

Mamlakatda tovar aylanishida taralar nihoyatda katta ahamiyatga ega. Modomiki shunday ekan, tovarlarning aksariyati ishlab chiqarishdan xaridorga taralarga joylangan holatda yetib boradi. Tovarning og'irligi va shakli ortish-tushirish ishlarida katta ahamiyat kasb etadi: tara qanchalik yengil va qulay bo'lsa, mehnat unumdorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Har yili tara tayyorlash va ta'mirlashga ancha mablag' sarflanadi. Shu sababli, tarani ehtiyot qilish, uning ko'p ishlatilishi (aylanishi)ga erishish muhim xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega.

Fan va texnikaning o'sishi, kimyo sohasida ishlab chiqarishning kengayishi, tara xo'jaligini takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish, tara tayyorlash uchun yengilliklar yaratadi.

6.3. Taralarni asosiy turlari tavsifi va tasnifi

Tara turlari va tiplarining xilma-xilligi tovarlarning fizikaviy-kimyoviy xususiyatlari va ularni tayyorlashga sarflanadigan materiallarning o'zaro farqiga va boshqa omillarga bog'liqdir.

Tovarni o'rash-joylash uchun qo'llaniladigan tara tashqi yoki transport tarasi, ichki yoki iste'mol tarasi kabi turlarga bo'linadi. Tashqi tara tovar saqlash va tashish uchun foydalaniladi. Bular yashik, panjara, bochka, baraban va flyagalar, tunuka idish, shisha, qop va shu kabilardir. Ichki tara iste'molchiga tovar bilan birga keladigan dastlabki o'ramlardir.

Transport tarasi tovar tayyorlanadigan joyda tovar ortib — joylab iste'mol punktiga tashish uchun mo'ljallangan. U turli tovarlar o'rab joylanadigan, universal va biror muayyan tovar o'rab-joylanadigan — ixtisoslashtirilgan bo'ladi.

Mustahkamligi yoki mexanik chidamliligi darajasiga qarab transport tarasi qattiq, yarim qattiq va yumshoq xillarga bo'linadi.

Foydalanish darajasiga qarab tara bir marotabali va ko'p aylanadigan bo'ladi. Ko'p aylanadigan taralar tovardan bo'shashi bilan qayta foydalanish uchun tovar yetkazib beruvchi yoki tara yig'uvchi tashkilotlarga albatta qaytariladi.

topshiriqlari asosida ishlab chiqiladi. Savdo tashkilotlari yuk tashish rejasi loyihalarini rejalashtirilayotgan chorak boshidan kamida 50 kun oldin «O'zbeksavdo» AKga taqdim qiladilar. Yuk tashishning chorak rejalarini loyihalarida vagonlar va tonnalarning o'rtacha sutkalik miqdori ko'rsatiladi. Yuk tashish rejalashtirilayotganda qishloq xo'jalik tovarlarini ishlab chiqarish, tayyorlash va ortib jo'natishning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. «O'zbekiston temir yo'llari» DAK ustaviga binoan tayyorlov tashkilotlari va korxonalari sabzavot, kartoshka, meva va boshqa qishloq xo'jalik tovarlarini reja asosida, shuningdek, ortish boshlanishidan 5 kun oldin beriladigan buyurtmalar bo'yicha ortib jo'nata dilar. Bunday hollarda oylik rejalar 5 kunlik buyurtmalar asosida aniqlanadi, reja bajarilgani uchun jarimalar 5 kunlik buyurtmalar yig'indisiga qarab har qaysi dekada uchun hisob-kitob qilinadi.

Choraklik yuk tashishlar vagonlar va tonnalar bo'yicha yoki faqat vagonlar bo'yicha rejalashtiriladi. Yuk tashish rejalarini «O'zbekiston temir yo'llari» DAK va temir yo'llar boshqarmalarida kelishilib, tasdiqlangandan so'ng Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga va yuk jo'natuvchi korxonalarga choraklik va oylik yuk tashish rejalarini rejalashtirayotgan chorak boshlanishidan 20 kun oldin xabar qiladi.

Yuk jo'natuvchilar o'zlariga ajratilgan vagonlar limitiga binoan oy boshlanishidan 14 kun oldin temir yo'llar boshqarmasiga yuk tashishning kengaytirilgan rejasini taqdim etadilar. Bu rejada yuk jo'natuvchi to'liq nomi va manzili, hisob raqami va Davlat banki bo'limi, yukning aniq nomi, yuk jo'natiladigan va yuk yetkaziladigan stansiyalar, vagon va tonnalar soni, harakatdagi sostavning turi ko'rsatiladi. Rejalar 3 nusxada tuziladi, korxona rahbari tomonidan imzolaniadi va muhir bilan tasdiqlanadi.

Yuk jo'natuvchilar yuk tashish oylik rejalarini asosida dekada boshlanishidan uch kun oldin stansiya boshliqlari orqali temir yo'l bo'limi boshliqlariga yuk ortish uchun buyurtma beriladi.

Stansiya va bo'limlarning boshliqlari yuk jo'natuvchilarga dekada boshlanishidan 1 kun oldin vagonlar berilayotganini xabar qiladilar. Rejadan ortiq yoki rejadan tashqari yuk ortish zarur bo'lib qolganda, yuk jo'natuvchilar yuk ortiladigan vaqtdan kamida 5 kun oldin

Hozirgi vaqtda transport yordamida operatsiyalarni temir yo‘l, dengiz va daryo portlari, umumiy foydalanishdagi transport avtoxo‘jaliklar va boshqarmalarga qarashli avtoxo‘jaliklar vositalari yordamida amalga oshirilmoqda.

Temir yo‘l transportida xizmatlar temir yo‘l va avtotransport korxonalari tomonidan turli xil texnologik sxemalar va mahalliy tartib qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Avtomobil korxonalari keyingi yillarda transport xizmatlari (jo‘natish, ortish, tushirish operatsiyalari, yuklarni stansiya va portlarga markazlashtirilgan tartibda tashib keltirish va tashib ketish, tovarlarni savdo tarmoqlariga markazlashtirilgan tartibda tashib keltirish) sezilarli darajada kengaytirilgan. Bu transport darajasini ancha kamaytirishni, mehnat unumdorligini va transport vositalaridan foydalanish samaramdorligini oshirish imkonini beradi.

Transport yordamida xizmat ko‘rsatish operatsiyalari tashkilotlar va korxonalar o‘rtasidagi shartnomalarga binoan reja asosida amalga oshiriladi. Ularda xizmatlar xarakteri va hajmi, ularni bajarish tartibi va haq to‘lash kabilar belgilab beriladi.

7.2. Temir yo‘l transporti yordamida tovarlarni boshqa joyga tashish

Tashkilotlar va korxonalar temir yo‘l transportida yuk tashishning yillik rejalari loyihalarini (zarur hisob-kitob va asoslar bilan birga) 1 iyundan kechiktirmasdan yuqori tashkilotlarga topshiradilar. Bu loyihalar temir yo‘l boshqarmasiga ham topshiriladi. Temir yo‘l transportida yuk tashishning yillik rejalari loyihalarini ham markazlashtirilgan tartibda, ham joylarda yuk tashishni chorak rejalashtirishning yuklar nomenklaturasini birlashtiruvchi nomenklatura bo‘yicha ishlab chiqaradilar.

Xo‘jalik faoliyatining reja loyihalari va buyurtmalari asosida yuk tashishning (tonna hisobida) yalpi hajmi bo‘yicha yillik reja loyihasini ishlab chiqarish hamda «O‘zbekiston temir yo‘llari» DAKga topshiradi. Yuk tashishning chorak va yillik rejalari, shuningdek, Vazirlar Maxkamasining tegishli qarorlarida belgilangan yuk tashish

Qattiq tara ma’lum geometrik shaklda bo‘ladi, o‘rab-joylangan tovarni mexanik shikastlanishidan saqlaydi, tara devorlariga ichkari va tashqaridan tushadigan yuk bosimiga bardosh beradi. Shuningdek, tovarni tashish paytidagi turtki va siltovlardan asraydi.

Qattiq taraga metall, yog‘och va fanerdan yasalgan yashik, bochka va barabanlar kiradi.

Yumshoq tara yukni mexanik shikastlanishdan saqlaydi, tovar to‘lg‘azilgandagina muayyan shaklga kiradi. Yumshoq tara, asosan, sochilib (to‘kilib) ketadigan tovarlarni tashishda ishlatilib ularni changlanish, ifloslanishdan saqlashga mo‘ljallangan. Yumshoq tara qog‘oz, mato va chiptadan yasalgan paket va qoplardir.

Yarim qattiq tara o‘zining dastlabki shaklini saqlay oladi. Lekin yuk og‘irligi ta’sirida sal o‘zgarishi ham mumkin. Yarim qattiq taraga kartondan yasalgan korobka va yashik, to‘qima savat va qutilar kiradi.

Tara turlari boshqa xususiyatlarga qarab ham belgilanadi:

a) qanday materialdan — yog‘och, metall, oyna, qog‘oz, karton, mato va h.k.;

b) yig‘iladigan, bo‘laklarga ajraladigan yoki ajralmaydigan va hokazo konstruktiv xususiyatlariga qarab;

d) yashik, bochka, korobka, shisha, banka, panjara, biton, qop, chipta qoplar va hokazo shakli va tashqi ko‘rinishiga qarab;

e) quyma, shtamplangan, bochkali, perfolenta yoki sim bilan mahkamlangan va hokazo yasaliş usuliga qarab;

f) havo o‘tkazmaslik, nam o‘tkazmaslik, geometrik, no geometrik kabi spesifik tuzilishiga qarab.

Yog‘ochdan yasalgan tara — hozirgi vaqtda eng ko‘p tarqalgan taradir. Taraning bu turiga taxta va faner yashiklar va fanerlardan yasalgan tarnovchalar, yog‘ochdan va fanerdan shtamplab yasalgan bochkalar, faner barabanlar kiradi. Yog‘ochdan yasalgan yashiklar tuzilishiga qarab bo‘laklarga ajratiladigan, ajralmaydigan hamda yoziladigan, zich va panjarasimon bo‘lishi mumkin. Yog‘och yashiklari oziq-ovqat va yengil sanoat tovarlarini o‘rash-joylashda keng qo‘llaniladi.

Metall tara — (bochqa, balon baraban, korobka, bidon va banqalar). Bu tara ruxlangan tombop po‘latdan hamda yaltiroq tunukadan yasaladi va xiyla qimmat tara hisoblanadi. Metall tara

juda uchuvchan, o'z-o'zidan alanga oladigan tovarlarga, shuningdek, o'simlik moylariga ishlatiladi.

To'qima tara - (zig'ir, jut va kanopdan yasalgan qoplar, qand solish uchun matodan yasalgan qoplar) uch turli bo'ladi:

a) 50 kg hajmli, xoshiyasi mustahkam tikilgan zig'ir-jut, jut-kanop qoplar;

b) 50 kg hajmli, yuqori chidamli zig'ir-jut-kanop qoplar;

d) zig'ir-jut, jut-kanopdan to'qilgan qoplar.

Qog'oz va karton tara — (qog'oz g'oplar va paketlar, karton yashik, korobka va qutilar). Bu tara yog'och taradan ancha yengil, hajmi kichik bo'lib, o'zining izolyatsion xususiyatiga ko'ra boshqa ko'p xil taralardan afzaldir. Gofrlangan karton yashiklar turli xil tovarlarni o'rash-joylash uchun mo'ljallangan. Makaron, kir va atir sovunlarni o'rash-joylash uchun yaxlit qo'yilgan va presslangan qog'oz yashiklardan foydalaniladi.

Shisha tara — suyuq va yarim suyuq oziq-ovqat tovarlarini quyish va saqlash hamda konservalangan tovarlarni havosizlab bekkitish uchun foydalaniladi.

Plastmassadan yasalgan tara — bu taralarni yasash uchun polietilen, polisterol, polivinilxlorid, formaldegid smolasi kabi polimerlardan foydalaniladi. Plastmassa tara tovarni chang va hidlanishdan, shuningdek, chirish va boshqa mikrobiologik o'zgarishlardan saqlaydi.

Tayanch iboralar

Tara. Tara tovari. Transportbop. Fizik-kimyoviy xususiyat. Metall yashiklar. Konteyner. O'rab-joylab sotish. Texnik talab. Iqtisodiy talab. Yog'och tara. Ichki tara. Qattiq tara. Shisha tara. Yumshoq tara.

Nazorat savollari

1. Qanday tara turlarini bilasiz?
2. Taralarga qanday talablar qo'yiladi?
3. Taralarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish do'konlarida taralardan foydalanish qanday samara beradi?

7-bob. YUKLARNI TRANSPORT VOSITALARIDA BOSHQA JOYGA TASHISH TEXNOLOGIYASI

7.1. Savdoda transportlar yordamida har xil operatsiyalarni bajarish va ularning roli

Transport yordamida operatsiyalar deganda, tovarlarni omborlardan jo'natish uchun tayyorlash, ularni transportga yoki yuk jo'natuvchiga topshirish, yuklarni transportdan olish, yuklarni tashish hujjatlarini va yuk tashish hisob-kitoblarini rasmiylashtirish, shuningdek, zarur transport vositalarini yuboriladigan joyga o'z vaqtida keltirishni ta'minlashga doir operatsiyalar tushuniladi.

Tovarlarini ishlab chiqarilgan joyidan chakana savdo tarmoqlariga, shuningdek, ulgurji savdo omborlaridan do'konlarga tashish uchun ular orasidagi masofa va boshqa sharoitlarga qarab transportning har xil turlaridan: temir yo'l, dengiz, avtomobil va havo transportlaridan foydalaniladi.

Ishlab chiqarish rivojlangan sari, uni ixtisoslashtirish va ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirishning ahamiyati ortib boradi. Bunda yuk jo'natuvchilar va yuk qabul qiluvchilarga yuk tashishda ko'rsatiladigan, markazlashtirilgan transport yordamida xizmatlari muhim xalk xo'jalik ahamiyatiga ega.

To'liq ravishda transport yordamida xizmat ko'rsatish, tovarlarni yuk egasining ishtirokisiz yuk jo'natuvchining eshigidan yuk qabul qiluvchining eshigiga qadar etkizib berishni nazarda tutadi va jo'natuvchi omboridan yukni qabul qilish, uni yuk jo'natiladigan temir yul stansiyalari, portlar va pristanlarga yetkazib berish, yuklarni vagonlarga, kemalarga va samolyotlarga ortish, yuklarni tashishga doir hisob-kitob va tovar-transport hujjatlarini rasmiylashtirish, yo'lda yukni kuzatib borish, bojxona operatsiyalarini rasmiylashtirish, yuklarni tushirish va hujjatlarni tekshirib chiqish, yuklarni yuk qabul qiluvchi omboriga yetkazib berish va topshirishni nazarda tutadi.

standart talablariga javob beruvchi va yuqori sifatli tovarlar qabul qilinadi.

Tovarlar do'konda sifati va miqdori bo'yicha qabul qilinish qonun-qoidalariga rioya qilingan holda amalga oshirilishi kerak.

Miqdor bo'yicha tovarlarni qabul qilish. Bunda tovar turlarini ko'pligi, joylarni soni, tovarlar miqdori, tovar transport yuk hujjatlarini va boshqa hujjatlarini taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Agar tovarlar do'konga kerakli hujjatlarsiz kelsa, u holda kelgan tovarlarga akt tuziladi, tovarlar esa saqlanishga olinadi.

Miqdor bo'yicha tovarlar belgilangan muddatlarda qabul qilinadi. Ochiq, buzilgan yoki tarasiz kelgan tovarlar do'konga shu vaqtni o'zida qabul qilinishi kerak. Butun tarada kelgan tovarlar brutto og'irligi va joylarni miqdori bo'yicha ta'minotchidan kelgan paytda qabul qilinadi, netto og'irligi va tovar donalarini miqdori bo'yicha esa, tara ochilgandan so'ng, lekin 10 kundan kechikmagan holda, tez buziluvchan tovarlar esa 24 soatda qabul qilinadi. Kelgan tovarlar miqdori hujjatda ko'rsatilgan o'lchov birligi bilan o'lchanadi.

Netto hajmi birligi belgilangan qonun-qoidalariga rioya qilgan holda tekshiriladi. Tara og'irligi tovarni netto og'irligi bilan birgalikda tekshiriladi. Tekshirish natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Tara og'irligini tekshirish natijalari haqidagi dalolatnomasida tovarlar netto og'irligi ham ko'rsatiladi. Agar qabul qilish jarayonida yetishmovchilik aniqlansa, qabul qilishni to'xtatib turish lozim.

Tovarlar saqlanishini ta'minlash va boshqa tovarlar bilan aralashib ketishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Tovarlar kamomatligi haqida dalolatnoma tuziladi.

Agar tovarning brutto og'irligi hujjatlarda ko'rsatilgan og'irlik bilan to'g'ri kelmasa, do'kon tarani va o'ramni ochmasligi kerak.

Tovarlarni oxirgi qabul qilinishida ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi, qatnashish uchun jo'natuvchi shaxslar taklif qilinishi kerak. Agar tovarlar jo'natuvchisi aybdor hisoblanmasa, tovar ishlab chiqaruvchi vakili (shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa) chaqiriladi. Bir shahar jo'natuvchisining vakili chaqirilgan kunning

Yuk varaqasi yuk bilan birga jo'natiladi va yuk tayinlangan stansiyaga borgach, qabul qiluvchiga yuk bilan birga topshiriladi.

Temir yul transportida umumiy, alohida va mahalliy tariflar amal qiladi. Umumiy tariflar temir yo'llarning barcha tarmoqlarida qo'llaniladi hamda hisob-kitob alohida va mahalliy tariflar bo'yicha o'tkaziladigan yuk tashishdan boshqa barcha yuk tashishlar uchun taaluqlidir.

Temir yul tariflari yuk turi va yuk tashish masofasiga qarab farqlanadi. Umumiy tariflarning asosiy turi vagonbay tarifdir. Bu tarif, odatda, yukli tezlikda (oddiy yuk poyezdlarida) yuk tashilgan vagonga haq to'lash uchun belgilanadi. Tariflarning bunday tuzilishi yuk jo'natuvchilarni harakatdagi sostavning yuk ko'tarish quvvatidan foydalanishni yaxshilashdan iqtisodiy manfaatdor qiladi. Vagonga qancha ko'p yuk ortilsa, transport harajatlari shuncha kam bo'ladi. Yuklarni katta tezlikda tashishda vagon haki ikki barovar ko'payadi.

Mayda yuk jo'natishlarda tarif bo'yicha tashish haqi yukning asl vazniga qarab belgilanadi. Bu tariflar darajasi, odatda, vagonbay jo'natishlarga qaraganda ikki baravar yuqori bo'ladi.

Tez buziladigan yuklar sovitilgan holda tashilganda tashish to'lovlaridan tashqari, yuk jo'natuvchi sovitish transporti uchun ham haq to'laydi. Tariflardan qo'shimcha operatsiya va yumushlar uchun ham yig'imlar, shuningdek, jarimalar belgilanadi.

7.3. Avtomobil transporti yordamida tovarlarni tashish texnologiyasi

Yuklarni qisqa masofaga tashishda transportning asosiy turi avtomobil transportidir. Tashiladigan yuklarni hajmi bo'yicha avtotransport birinchi o'rinda turadiki, buning sababi tashish masofasining qisqaligi. Agar 1 tonna yuk temir yo'l transportida o'rtacha 800 km masofaga tashilsa, avtomobil transporti bilan faqat 13 – 15 km ga tashiladi, holos.

Avtomobil transportida transportning boshqa barcha turlari hammasi qo'shib hisoblagandagiga qaraganda taxminan 3,5 barobar ko'p yuk tashiladi. Avtotransportning yuk aylanmasi unchalik katta

emas bo'lib, mamlakat yuk aylanish umumiy hajmining 5,9 % ini tashkil etadi. Ammo avtotransport salmog'i asosan tumanlararo va viloyatlararo yuk tashish hisobiga yildan yilga ortib bormoqda.

Savdo tashkilotlari tovarlarining asosiy qismi avtomobil transportida tashiladi.

Avtomobilda yuk tashishni muvaffaqiyatli uyushtirish hamda tovarlarni tashish xarajatlarining minimal bo'lishiga erishish uchun avvalo, avtomobil transportining ishlab turgan zarur miqdordagi tarkibi kerak. Yuk avtotransportining harakatdagi tarkibiga avtomobillar, avtomobil tortqichlar, priseplar, yarim priseplar va transport uchun mo'ljallangan ajralma priseplar kiradi.

Yuklarni tashish uchun yuk ko'tarish quvvati turlicha bo'lgan yuk avtomobillaridan foydalaniladi. 1 tonnagacha va 1 tonnadan 2 tonnagacha yuk ko'tara oladigan avtomobillardan kichik partiyadagi yuklarni savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga tashib berish uchun foydalaniladi. Yuk ko'tarish quvvati o'rtacha bo'lgan, ya'ni 2 tonnadan 5 tonnagacha yuk ko'taradigan hamda yuk ko'tarish quvvati ko'p bo'lgan, ya'ni 5 tonnadan 10 tonnagacha yuk ko'taradigan avtomobillar tovarlarni bir viloyat doirasida tashishda ham viloyatlararo yirik partiyalar tashishda ham xizmat qiladi. Yuk ko'tarish quvvati juda ko'p bo'lgan, ya'ni 10 tonnadan ortiq yuk ko'taradigan mashinalardan ham foydalaniladi.

Avtomobilda yuk tashishni uyushtirish tartibi har bir respublika qarorlari bilan tasdiqlangan avtomobil transporti nizomlari, shuningdek, nizomlar asosida nashr qilingan yuk tashish qoidalari bilan belgilanadi.

Avtomobilda yuk tashish mahalliy — 50 km gacha, shaharlararo — 50 km dan ortiq, davlatlararo (2 va undan ortiq davlat) hamda xalqaro (chet elga yoki chet eldan) yuk tashishlarga bo'linadi. Avtomobilda yuk tashish rejali tartibda amalga oshiriladi.

Yuk tashish uchun zarur bo'lgan avtomobillarning soni va turi tashiladigan yukning hajmi va xarakteriga qarab avtoxo'jalik tomonidan belgilanadi.

Transport bekor turib qolmasligi uchun yuk egasi ortiladigan barcha yuklarni tovar — transport hujjatlarini oldindan tayyorlab qo'yishi va yuk jo'natish va qabul qilish punktlarining beto'xtov ishlashini ta'minlashi shart.

Chakana savdo korxonalarining savdo-texnologik jarayoni, do'kon xodimlari bilan xaridorlar, tovarlar va asbob-uskunalar bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

Do'konda savdo-texnologik jarayonlarning tashkil qilinishi savdo xodimlarini mehnat samaradorligining o'sishiga, savdo korxonasining moddiy-texnik bazasidan ratsional foydalanishi eng qulay mehnat sharoiti va tovar-moddiy boyliklarining bir butunligini ta'minlashga, xaridorlarga kam vaqt sarflab, qulay sharoitda tovar xarid qilish imkonini yaratishga yordam berishi lozim.

Ratsional savdo - texnologik jarayonning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- savdoning ilg'or usullarini joriy qilish va ilmiy texnika taraqqiyotiga erishish;

- sermehnat operatsiyalarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;

- tara - jihozlardan foydalanish bilan tovar ta'minotining eng qulay tizimini joriy qilish;

- yuk tushirilgan joydan do'konning savdo zaligacha yuklarni ketma-ket tashib borish harakatidagi texnologik karta — sxemalarini qo'llash asosida texnologik operatsiyalarning uzliksiz bajarilishini ta'minlash;

- mehnatni ilmiy tashkil etish.

8.2. Do'konlarga tovarlarni keltirish va qabul qilish texnologik operatsiyalari

Transport vositalari orqali do'konga keltirilgan tovarlarni to'xtovsiz qabul qilib turishlari shart. Yuklarni ortish-tushirish ishlarini qonun-qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshirish kerak. Tagliklarga qo'yilgan tovarlar avtomobildan elektr yuklaguvchi yordamida tushiriladi. G'ildirakli konteynerlar avtomobil vositalari yordamida tushiriladi.

Do'konga kelgan tovarlar qabul qilish zonasiga yetkazib beriladi. Tovarlarni qabul qilish do'kon savdo-texnologik jarayonini eng muhim operatsiyalardan biri bo'lib hisoblanadi va moddiy javobgar shaxslar orqali qabul qilinishi kerak. Faqat

8-bob. DO‘KONLARDA SAVDO-TEKNOLOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH

8.1. Do‘konlardagi savdo texnologik jarayonning tarkibiy qismlari va uni ratsional tashkil qilish tamoyillari

Chakana savdo korxonalarida savdo-texnologik jarayon tovarning do‘konga tushishdan boshlab, to xaridorning shaxsiy mulkiga aylangunga qadar bosib o‘tgan harakati yo‘lida amalga oshiriladigan alohida operatsiyalarning yig‘indisidan iboratdir.

Do‘kondagi barcha savdo-texnologik jarayonlar asosiy va yordamchi jarayonlarga bo‘linadi. Tovarlarini sotish va xaridorlarga qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish asosiy jarayonlarga kiradi. Bular savdo tarmoqlarining asosiy vazifalarini bajarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan alohida operatsiyalardan tashkil topadi va do‘konning savdo zalida amalga oshiriladi.

Yordamchi jarayonlarga tovarlarni qabul qilib olish, saqlash, savdoga tayyorlash, ularni do‘kon ichkarisida tashish, bo‘sh taralarni qaytarib yuborish va boshqalar kiradi.

Yordamchi jarayonlar asosiy texnologik jarayonlarni bajarish uchun zarurdir. Ular tovarlarni qabul qilib olish, saqlash, sotishga tayyorlash uchun maxsus ajratilgan xonalarda amalga oshiriladi.

Xaridorlar talabini o‘rganish, tovar assortimentini tuzish, rek-lama va axborotlarni tashkil qilish va hokazolar bilan bog‘liq bo‘lgan savdo ishlarining ba’zi turlarini bajarish do‘kondagi savdo-texnologik jarayonning muhim tarkibiy qismlaridandir.

Asosiy va yordamchi jarayonlar hamda operatsiyalar ma’lum izchillikda, bir muncha uzluksiz va bir yo‘lda bajariladi. Do‘konning kattaligi, uning ko‘p qavatlilik, binoning hajm jihatidan rejalash tuzilishi, texnologik jarayonlarni bajarish uchun mo‘ljallangan maydonning katta-kichikligi, do‘kon tovarlarining assortiment strukturasi savdo-texnologik jarayonni tashkil qilishdagi muhim omillardandir.

Tashishda buzilish va zararlanishdan saqlash uchun taraga joylash lozim bo‘lgan tovarlarni standart talablariga javob beradigan taralarga joylash kerak.

Avtoxo‘jalik olingan buyurtmalarga muvofiq belgilangan vaqt va miqdorda texnik jihatdan bekamu- ko‘st avtomobillar yetkazib berishi shart.

Ayrim oziq-ovqat va sanoat tovarlarini maxsus kuzovli avtomobillarda tashish zarur. Yuk jo‘natuvchi tovarlarni tashishga topshirganda asosiy yuk tashish hujjati hisoblangan tovar-transport nakladnoyini haydovchiga berishi kerak. Bu hujjat to‘rt nusxada tuzilib, birinchi nusxada hisob-kitob, ikkinchisi transport ishini hisobga olish, uchunchisi tovarlarni o‘z joyiga yetkazib berishni nazorat qilish va to‘rtinchisi tovar oluvchi uchun mo‘ljallangandir.

Haydovchi yuk qabul qilishda yuk jo‘natuvchiga xizmat guvohnomasini va avtoxo‘jalik muhri bilan tasdiqlangan yo‘l varaqasini ko‘rsatadi.

Yukni ortish, mahkamlash, yopish va tugish-bog‘lashni yuk jo‘natuvchi, uni tushirish, bog‘lam-bog‘ich va yopqichlarni yechib olish yuk qabul qiluvchi tomonidan bajariladi.

Yuk jo‘natuvchi yukning og‘irligi va tara o‘rinlari sonini tovar-transport nakladnoyiga yozib qo‘yadi.

Haydovchi-ekspeditor tovar-transport nakladnoyining ham-ma nusxalarini imzolab, yuk tashishga qabul qilinganini tasdiqlaydi.

7.4. Tovarlarini suv va havo transportida tashish

Mamlakat transport tizimini samarali ishlashida suv va havo transporti muhim ahamiyatga ega.

Dengiz transporti juda arzon, tovarni o‘tkazish darajasi hamda universalligi yuqori bo‘lib hisoblanadi.

Daryo transporti qo‘llanilishi chegaralanganligiga qaramay ayrim tumanlarda xalq iste’mol tovarlarini tashishda qo‘llaniladi.

Havo transporti eng tezkor bo‘lib, bu transportda yuklarni tashish narxi yuqori bo‘lganligi tufayli xalq iste’mol tovarlarini tashishda qo‘llanilishi chegaralangan.

Dengiz transporti qo'llaniladigan joylarda dengiz orqali suzish Savdo Kodeksi, daryo transportida yuk tashishda Ichki suv transporti Nizomi yordamida tartibga solinadi.

Dengiz transportida yuk tashish aloqa turlari bo'yicha portlararo aloqasi to'g'ridan-to'g'ri suv (dengiz va daryo portlari o'rtasidagi) aloqasi va to'g'ri aralash (temir yo'l — suv yoki avtomobil) aloqasi.

Yuklarni tashish uchun alohida to'g'ri va aralash aloqalarga tuziladigan buyurtmalarda yuk egasi haqida ma'lumotlar, yuk tashish hajmi tonnada, yukni nomi va o'ram turi, jo'natish va keltirish portlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Yuklarni topshirishda yuk jo'natuvchi ortish orderini to'ldiradi, uni asosida portni yuk idorasi tashib boruvchi hujjatni — konosamentni yozib boradi. Agar yuk tashish to'g'ridan-to'g'ri aralash aloqa orqali amalga oshirilsa nakladnoy va yo'l vedomosti yozilishi rasmiylashtiriladi, yuk jo'natuvchi konosament o'rniga kvitansiya beriladi va yuk qabul qilinadigan joyda uni ko'rsatilgandan so'ng yuk beriladi. Har bir qabul qilingan yuk o'rniga portda transport marjirovkasi qo'yiladi.

Ortish-tushirish ishlari port mablag'lari va kuchlari yordamida jo'natuvchilar va qabul qiluvchilar hisobidan amalga oshiriladi.

Portda yuk uch kun bepul saqlanadi. Bu muddatdan keyingi 24 soatdan ko'p saqlangan yuklarga to'lovlar tarif bo'yicha olinadi.

Yuk qabul qiluvchi yukni olish paytida konosament va ishonchnomani birinchi nusxasi taqdim etiladi. Kamomat yukni buzilishi, ayrim joylarni shikastlanishi aniqlangan holda yuk qabul qiluvchi tijorat aktini tuzilishini talab qilishi shart.

Daryo transportida aloqalar turlari bo'yicha tashishlar quyidagilarga bo'linadi:

- ichki suv aloqasida;
- bitta kema xo'jaligi ichida tashish;
- to'g'ridan-to'g'ri ichki suv aloqasi;
- bir nechta kema xo'jaligi chegarasida;
- to'g'ridan-to'g'ri suv aloqasida;
- daryo va dengiz transporti ishtirokida.

Bitta yuk tashish hujjatga asosan daryo transportida jo'natish holatida yukni hajmiga ko'ra kichik partiyaligi (og'irligi 20 t ortiq

bo'lmagan), kema me'yoridan kamroq va kema me'yorlariga bo'linadi.

Yukni jo'natishga taqdim etilganda yuk jo'natuvchi yuk hujjatini to'ldiradi.

Daryo portida yukni olish uchun yuk qabul qiluvchi yuk hujjati va ishonchnomani ko'rsatishi kerak.

Daryo transportida yuk tashish muddatiga yukni turi, suv oqimi davri, kemaning tezligi va uni harakat yo'nalishi ta'sir ko'rsatadi.

Havo transportida yuk tashishda tartibga soluvchi asosiy hujjat bo'lib havo Kodeksi hisoblanadi. Kodeks asosida yo'lovchilarni, yuklarni va bagajlarni tashish qoidalari tuziladi.

Havo transportida yuklarni tashish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Bir marotaba talabnomalar bilan kichik partiyadagi tezkor va qimmatbaho yuklar jo'natiladi.

Yuklarni jo'natish yuk hujjatini yozish bilan rasmiylashtiriladi.

Ortish-tushirish ishlari asosan aeroport kuchlari va vositalari bilan amalga oshiriladi. Havo transportida yuklarni saqlash va berish tartibi boshqa transport turlari kabi bajariladi.

Tayanch iboralar

Transport turlari. Yuk jo'natuvchi. Yuk tashish. Masofa. Temir yo'l stansiyalari. Markazlashtirilgan usul. Dengiz transporti. Portlar. Vagon. Kema. Samolyot. Texnologik sxema. Avtomobil transporti. Buyurtma. Yuk ortish. Mahalliy qatnov. Mayda jo'natishlar. Tariflar. Yuk ko'tarish quvvati. Avtoxo'jaliklar.

Nazorat savollari

1. *Yuk tashishda qanday transport turlaridan foydalaniladi?*
2. *Temir yo'l transportida yuklar tashish qanday amalga oshiriladi?*
3. *Yuk tashishda transport vositalarini qanday yutuqli va kamchilik tomonlari mavjud?*
4. *Yuk tashishda qanday hujjat rasmiyatchiliklari amalga oshiriladi?*

8.5. Tovarlarini chakana savdo texnologiyasi

Tovarlar savdosi do'kon savdo-texnologik jarayonining eng oxirgi bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda qilinadigan operatsiyalar javobgarlikni talab qiladi, chunki ular xaridorlarga bevosita xizmat ko'rsatish bilan bog'liqdir.

Tovarlarini savdo bo'yicha operatsiyalarning xarakteri va tuzilishi birinchi o'rinda realizatsiya qilinayotgan tovarlarning assortimentiga va sotish usuliga bog'liq. Shunday qilib, har kuni ishlatiladigan tovarlarini tanlashda xaridor kam talab qilingan tovarlarga nisbatan kamroq vaqt ajratadi.

Chakana savdoda tovar sotishning quyidagi usullari ishlatiladi:

- o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish;
- namunalar bo'yicha;
- buyurtmalar bo'yicha.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish sotish operatsiyalarni tezlashtirishga, tovar sotish hajmini kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Tanlab olingan tovarlar hisob-kitobi kontrolyor-kassir yordamida amalga oshiradi. O'z-o'ziga xizmat qilishda savdo zalining texnologik joylashishi, moddiy javobgarlikning tashkillanishi, tovar ta'minoti hamda do'kon xodimlarining funksiyalari o'zgaradi.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish do'konlarida xodimlarning vazifalari asosan, xaridorlarga maslahat berish, tovarlar saqlanishini nazorat qilish, hisob-kitob operatsiyalarini bajarishdan iborat:

- xaridorlarni kutib olish va unga sotiladigan tovarlar, ko'rsatiladigan xizmatlar haqida ma'lumotlar berish;
- tovarlarini tanlash uchun xaridorlarga aravacha berish;
- xaridor tovarlarini o'zi tanlab olishi va hisob-kitob joyiga olib borishi;
- tanlangan tovarlarini hisob-kitobi va cheklarni berishi.

Hozirgi vaqtda do'konlarda kartochkalardan keng foydalanilmoqda. Do'kon kartochkalari ikki xil bo'ladi: diskont va oldindan to'lash.

Boshlang'ich to'lovni to'lagandan so'ng, diskont kartochkasining egasi uni har ko'rsatishida ma'lum bir belgilangan savdo chegirmasiga ega bo'ladi.

ertasiga yetib kelishi kerak, tez buziluvchan tovar bo'lsa, chaqiralgandan keyin 4 soat ichida etib kelishi kerak. Boshqa shahar vakili bo'lsa, chaqirilgandan keyin 3 kun ichida yetib kelishi kerak.

Tovarlarini qabul qilish oxirgi natijalari bo'yicha dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomada yetishmagan tovarlar miqdori, ularni qiymati, haqiqatdagi og'irligi, kamligi va boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi va belgilangan shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Agar tovar qabul qilishda ortiqcha narsalar aniqlansa, bu haqda ham dalolatnoma tuziladi.

Do'kon manziliga jo'natilgan jo'natma kelmaganda pochta bo'limi orqali bu haqda qidiruv talab qilinadi va jo'natish bazasiga xabar qilinadi.

Agar taralardagi tovarlar butun plombalarda yetib kelgan bo'lsa, qabul qiluvchi transport organlaridan ularni olishda taralarni dona miqdorini hujjatdagi bilan to'g'ri kelishini va tarani butunligini tekshirib olishi shart. Taralar butunligi haqida ishonch paydo bo'lgandan so'ng, tovarlarini qabul qiluvchi do'kon xodimi, tovarlar butun plombada kelganligi haqida hujjatlarda ko'rsatadi.

Tovarlarini sifat bo'yicha qabul qilish. Tovarlarini sifat bo'yicha qabul qilish belgilangan muddatda amalga oshirilishi kerak. Agar tovar yetkazib beruvchi, do'kon joylashgan joyda bo'lsa, undan kelgan tovarlar 10 kun ichida qabul qilinadi. Agar tovar yetkazib beruvchi boshqa shahardan bo'lsa, u holda undan kelgan tovarlar 20 kun ichida, tez buziluvchan tovarlar esa 24 soat ichida qabul qilinadi.

Qabul qilish jarayonida do'kon xodimlari tovarlar sifatini, tarasini, o'ramini va markirovkasini belgilangan talablar bo'yicha talab qiladi.

Agar qabul qilgan paytda sifatsiz tovarlar aniqlansa, u holda qabul qilish tugatiladi va bir tomonlama shartnoma tuziladi.

Tovarlarini sifat bo'yicha tuziladigan dalolatnomasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: tovar qabul qiluvchi do'konning nomi va do'kon, dalolatnoma raqami va tuzish kuni, tovarlarini sifat bo'yicha qabul qilishda va dalolatnomani tuzishda qatnashgan kishilar ismlari hamda shu shaxslar sifat bo'yicha qabul qilish qonunlari bilan tanishganliklari, jo'natuvchining ismi, tovarlarini

yetkazish shartnomasining kuni va raqami, yukni belgilangan joyga kelgan kuni, transport tashkilotiga uni berish vaqti, tara va o'ramlarning butunligi va boshqalarni.

8.3. Tovarlarni saqlash va sotishga tayyorlash texnologiyasi

Ko'pchilik tovarlar do'konlarga taralarda o'rab-joylashgan holda kelib tushadi, bu faqat saqlash va tashish uchun zarurdir. Ba'zi tovarlar tashish va saqlash jarayonida o'zining dastlabki tovarlik xususiyatini yo'qotadi, eziladi, changlanadi, ba'zi nooziq-ovqat tovarlarni buzilishdan saqlash uchun ular ximoya moyi bilan qoplanadi.

Tovarlarni sotishga tayyorlash, do'konda savdo-texnologik jarayonlarni samarali amalga oshirishida katta ahamiyatga ega bo'lib, tovarlarni sotishda yanada ilg'or usullarni kengroq joriy qilishga sharoit yaratadi va xaridorga xizmat ko'rsatishni yaxshilash hamda tezlashtirishga yordam beradi.

Tovarlarni sotishga tayyorlashga doir umumiy operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- tovar solingan idishlarini ochish — tovarlarni sirtqi taralardan bo'shatish. O'ramni ochishda tovar, idish va o'ram sifatini saqlash muhim talablardan biridir;

- tovarlarni saralash — bu tovarlarni assortiment ko'rsatkichlari, ya'ni o'lchamlari, fasoni, navi, narxi bo'yicha, shuningdek narxga tamg'a ko'rsatilgan naviga, ilova qilingan hujjatlarning preyskurantga mos kelishi bo'yicha guruhlashdir;

- tovarlarning sifatini yaxshilash — bunda tovarlar changdan tozalanadi, dazmollanadi, moylari artiladi, mayda kamchiliklar yo'qotiladi, oziq-ovqat tovarlarinig ustki qatlamidagi yo'qotilgan dastlabki sifati tiklanadi;

- tamg'alah — tovarga tovar belgilari, ya'ni artikuli, sorti, nomeri va narxi ko'rsatilgan tovarlik yorlig'ini birkiritish. Tovarga yorliqlar birkiriladi, osiladi, tikilib qo'yiladi. Yorliqning boshqa tomoniga bahosiniing to'g'riligini tasdiqlab, do'kon mudiri imzo qo'yadi.

Amalda ochiq yoyib qo'yishning aralash usuli keng qo'llaniladi. Bunda tovarlarni gorizonta va vertika yoyish usullari birga qo'shib olib boriladi. Bu usullarda jihozlarga yoyish maydonidan unumliroq foydalanish va savdo zalida tovarlarni ko'proq joylashtirishga imkon beradi.

Jihozlarga tovarlarni ochiq yoyib qo'yishda quyidagi asosiy qoidalarni hisobga olish zarur:

- tovarlarni jihozlarga xaridorlar qo'li yeta oladigan darajada joylashtirish kerak;

- savdo zalida tovarlarning ko'zga ko'rinarli bo'lishini ta'minlash zarur. Odamlarda ko'z holatining o'rtacha balandligi 1650 mm ga teng ekanligi uchun savdo jihozlarida tovarlar joylashtirilishi eng qulay, ya'ni 1100 dan 1600 mm gacha balandlikdagi zonada joylashtiriladi. Shuning uchun eng qulay zonaga impuls ehtiyojdagi va sekin oborot bo'ladigan tovarlarni joylashtirish lozim;

- o'rash-joylashda tovarlar to'g'risida bayon qilingan axborotning yaxshi ko'rinishli bo'lishini ta'minlash;

- barcha ko'rgazma maydonlaridan unumli foydalanishni ta'minlash;

- tovarning va o'rash-joylashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

- tovarlarni namoyish qilish maydonlariga ochiq yoyib qo'yish doimiy bo'lishi zarur;

- xaridolarga tovarlarni tanlash imkoniyatini yaratib berishni ta'minlash;

- javonlarning yuqori tokchalari, iloji boricha vazni yengil bo'lgan tovar bilan to'ldirilishi zarur;

- mayda tovar turlari javonlarning o'rta tokchalariga yoyiladi;

- tovardagi baho belgilari aniq va ravshan bo'lishi lozim.

Do'konning savdo zaliga tovarlarni joylashtirish va ochiq yoyib qo'yish ijodiy yondoshishni, aniq sharoitlarni, savdo zalining katta-kichikligi va shaklini, savdo jihozlarining turlarini, tovarlarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini va boshqalarni hisobga olishni talab qiladi.

— tovarlar va moddiy boyliklarni nazorat qilish va saqlanishini ta'minlash;

— savdo zalida zahiralarini to'ldirib turishning eng qulay hal qilinishini nazarda tutish.

Savdo zaliga tovarlarni joylashtirish bilan birga tovarlarni sotishda ularni savdo peshtaxtalariga yoyib qo'yish muhim ahamiyatga ega. Tovarlarni maqsadga muvofiq qilib yoyish jihozlardan unumli foydalanishga imkon beradi, xaridorlar tomonidan tovarlarni ko'zdan kechirish va tanlash sharoitini yaxshilaydi, savdo zalida zahiralarini to'ldirib turuvchi savdo xodimining mehnat sarfini kamaytiradi.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish usulida tovarlarni maqsadga muvofiq qilib ochiq yoyib sotish katta rol o'ynaydi. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish do'konlarida tovarlarni uyib, taxlab, qatorlab, osib, dastlab yoyish usullari qo'llaniladi. Tovarlarni uyib yoyib qo'yish birmuncha foydali hisoblanadi, chunki yoyishga kam mehnat sarflanadi va jihozlarning namoyish qilinadigan maydonidan unumliroq foydalanish imkon yaratiladi. Tara — jihozlar va konteynerlarda tovarlarni uyib qo'yish ayniqsa qulay. Bunday yoyilish usulidan ko'pgina oziq-ovqat tovarlari uchun va bir qator nooziq-ovqat tovarlari uchun foydalanish mumkin.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish do'konlarida chiqarib qo'yishning vertikal va gorizontal usullari qo'llaniladi. Vertikal yoyishning mazkur javonning barcha tokchalariga bir xil nomdagi tovarlar vertikal bo'yicha, ya'ni tikkasiga qo'yiladi, bu esa tovarlarni ko'zga yaxshi ko'rinishini va yoyilgan tovarlarni aniqroq farqlashni ta'minlaydi.

Bir xil nomdagi tovarlarni gorizontal usulda yoyib qo'yishda tovarlarni uzunasiga o'rnatilgan jihozlarning bir yoki ikki tokchasiga uzunasiga joylashtiriladi. Bu usul yirik gabaritli va kasetalardagi mayda tovarlarni realizatsiya qilishda birmuncha foydali.

Yoyib qo'yishning gorizontal usulida quyi tokchalarga talab kuchli bo'lgan tovarlarni qo'yish tavsiya etiladi.

— qadoqlash va dastlabki kesib qo'yish - tovarlarni xaridorlar uchun o'ng'ayroq o'lchamlarda qilib, tortib tayyorlash va gastronomiya tovarlarini kesib qo'yish;

— tovarlarni savdo zaliga chiqarib yoyish uchun tayyorlash - maxsus taralarga taxlash, maxsus taxtachalarga yoyish, qismlarga bo'lib keltirilgan tovarlarni yig'ish;

— sovg'abop naborlarni butlash — chini buyumlar, sovg'alar va garnituralar.

Uncha katta bo'lmagan do'konlarda tovarlarni do'kon sotuvchilari xaridorlarga xizmat qilishdan bo'sh paytlarida sotishga tayyorlaydilar. Tovarlarni sotishga tayyorlash maxsus mo'ljallangan va zarur asbob-uskuna hamda jihozlar yordamida tayyorlanadi.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatiladigan do'konlarda tovarlar xaridorlarning tovarlarni mustaqil tanlashlari hisobga olingan holda sotishga tayyorlanadi. Tovarlarni sotishga tayyorlaydigan xonalarda ko'chma kasetalar, kataklar to'ldirib qo'yiladi, suriladigan javonlar, stellajlar, aravachalar to'lg'azib qo'yiladi; tayyor kiyimlar batamom tayyor ko'rinishda suriladigan osgichalar, shtangalarga osib qo'yiladi. Gazlamalardan oldindan yubkalik, ko'ylaklik, kostumlik, shimlik, pidjaklik, nimchaliklar tayyorlab qo'yiladi. Har bir kiyimlikka uzunligi, kengligi, kiyimlik narxi ko'rsatilgan yorliq osib qo'yiladi.

Oziq-ovqat tovarlarni sotish vaqtiga, xaridorlar oqimining intensivligiga, tovarlarning xarid qilish tezligiga, sifatiga, narxiga qarab dozalarda qadoqlanadi. Qadoqlanadigan tovarlarning dozalanadigan miqdorlari xaridor talabiga mos tushishi zarur.

Qadoqlash uchun qog'ozli, selofanli, polietilenli paketlar va xaltachalar, kapronli qoplar, shisha bankalar, qog'oz stakanlar ishlatiladi. Tovarlarni sotishga tayyorlash va ularni savdo zaliga o'tkazishda xizmat zonasida tovarlar zonasining mavjudligi, har kungi sotiladigan tovar hajmi, ayrim tovarlarni tezroq sotish zarurligini hisobga olish kerak.

8.4. Tovarlarni savdo zalida joylashtirish va yoyib qo'yish

Tovarlarning joylashuvi tovar guruhleri va guruhchalari bo'yicha ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda savdo zaliga ketma-ket joylashtirilishini belgilashdan iboratdir.

Tovar aylanmasining hajmi va strukturalari, xaridor talabining xarakteri savdo zalida tovarlarni joylashtirish uchun asos hisoblanadi.

Do'konning savdo zalida tovarlar assortimenti quyidagi bosqichlar bo'yicha joylashtiriladi:

- savdo zali maydonini tovarlarning alohida guruhleri bo'yicha taqsimlash;

- tovarlarning guruhlar va guruhchalarga bo'lib, ketma-ket joylashtirilishini belgilash;

- tovarlarni guruhlar va guruhchalar bo'yicha joylashtirishning texnologik chizmasini ishlab chiqish.

Ayrim tovarlarni joylashtirish uchun ajratiladigan savdo zali maydonning kattaligi xaridorlarning tovarlarini ko'zdan kechirish va tanlashga sarflanadigan vaqti, xarid qilingan tovarlarning gabariti va miqdori bilan aniqlanadi. Bu omillarning ba'zi tovarlarni sotish uchun savdo zali maydonning hajmiga ta'siri har bir kadrat metriga savdo maydonidagi tovar oboroti miqdorining ko'rsatkichida o'z ifodasini topadi. Bundan tashqari, ba'zi tovarlarni sotish uchun ajratilgan savdo zali maydonning hajmi, tovarlarni sotish miqdori va do'kon savdo zali maydonning umumiy ko'lami ham ta'sir ko'rsatadi.

Savdo zaliga ba'zi tovarlar guruhini joylashtirishda qabul qilish hamda saqlash xonalari bilan ularning savdo zalida turgan o'zni orasidagi yo'lining qisqa bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Do'konning savdo zaliga tovarlarni joylashtirishning ketma-ketligi ko'p jihatdan talabning kam - ko'pligi bilan aniqlanadi. Xaridorgir tovarlarni ular saqlanadigan yoki qabul qilib olinadigan xonalarga yaqinroq joylashtirish tavsiya etiladi, bu esa savdo zaliga tovarlar zahirasi to'ldirib turishda do'kon xodimlarining sarflaydigan mehnatini bir muncha qisqartiradi. Xaridorgir

tovarlarning savdo zalining ichkarisiga joylashtirish tavsiya etiladi, bu bilan do'konga kirish va undan chiqish eshigi oldida xaridorlarning to'planib qolishning oldini oladi.

Kam talab qilinadigan tovarlarni ularning sotilishini tezlashtirish maqsadida xaridorlar harakati yo'nalishi bo'ylab o'ng tomonga o'rnatilgan uchastkalarga, ya'ni qulay zonaga joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Savdo zalida tovarni joylashtirishning ketma-ketligini aniqlashda ularning gabaritlari va og'irliklari ham albatta hisobga olinadi. Og'ir va yirik gabaritli tovarlarni xaridorlar harakati yo'nalishining oxiriga va bu tovarlar saqlanadigan hamda qabul qilib olinadigan xonalar yaqiniga joylashtirilishi zarur.

Tovarlarni joylashtirishda xaridorlar harakati yo'nalishi, ularning psixologiyasi, tovarlarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini inobatga olish kerak.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish sharoitida xaridorlar oqimi harakatining asosiy qonuniyatlaridan biri uning soat strelkasi harakatiga teskari yo'nalishdir. Bu yo'nalishning qulayligi shundaki, xaridorlar inventar savatchani chap qo'lda ushlab, ung qo'l bilan tovarlarni bemalol tanlaydilar va ularni savatchaga soladilar.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatishda tovarlar guruhi va ayrim tovarlar uchun doimiy zonalar ajratib qo'yish, savdo zaliga tovarlarni to'g'ri joylashtirishdagi muhim shartlardan biridir. Xaridorlar tovarlarni shunday joylashtirishga ko'nikadilar va savdo zalini osonlikcha mo'ljallay oladilar.

Savdo zaliga tovarlarni joylashtirishdagi yakunlovchi bosqich tovarlarni guruhlar va guruhchalariga qarab joylashtirishning texnologik chizmalarini ishlab chiqishdir.

Savdo zalida tovarlarning joylashtirishning texnologik chizmasiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- xaridorlarning tovar guruhleri joylashgan joyi tezda mo'ljallab olishlari va kam vaqt sarflab, maksimal qulayliklar bilan xarid qilishlarini ta'minlash;

- barcha tovarlarni ilg'or usullar bilan sotishni tashkil qilishni ta'minlash;

- savdo maydonidan unumli foydalanishni ko'rsatish;

- Tovar ta'minoti jarayonining boshqarilish darajasi;
- Tovarlariga bo'lgan talabni aniqlash uchun ishlatiladigan tijorat axborotlarining haqqoniyligi;
- Chakana savdo tarmog'ining joylashganligi;
- Ombor xo'jaligining joylashganligi va holati;
- Transport sharoitlari;
- Chakana savdo korxonalarining savdo-texnologik vositalar bilan ta'minlanganligi.

9.3. Tovar ta'minoti shakllari va chakana savdo tarmog'iga tovarlarni tashib keltirish sxemalari

Tovarlarning ko'pi ulgurji korxonadan chakana savdo tarmog'iga tashib keltiriladi. Non va non tovarlari, sut va go'sht tovarlari singari kundalik talabdagi iste'mol tovarlari korxonaga bevosita ishlab chiqarish korxonasidan keltiriladi. Yirik maxsuslashtirilgan universal do'konlarga tranzit asosida sanoat korxonalaridan boshqa tovarlar, jumladan, murakkb assortimentli tovarlar keltirilishi mumkin. Murakkab assortimentdagi (madaniyatga doir tovarlar, kiyim-kechak, poyafzal va h.k.) tovarlarning ko'pchiligi do'konga butlovchi korxonalar, shaxsiy tadbirkor yoki fermer xo'jaliklaridan keladi.

Tovar ta'minoti manbaining tanlanishi ko'p omillarga bog'liq:

- Tovar assortimenti;
- Do'kon tipi va o'lchamlari;
- Tovar aylanish hajmi;
- Do'konlarni doimiy tarzda ta'minlanish imkoniyati;
- Tovar harakati zvenolari soni;
- Tovar aylanish tezligi;
- Transport harajatlari qiymati.

Tovarlarning qayerdan kelayotganiga, ya'ni manbayiga qarab chakana savdo tarmog'ini tovar bilan ta'minlashning tranzit va ombor shakllari qo'llaniladi.

Tovarlarni do'konlarga yetkazib berishning tranzit shakli bevosita sanoat yoki qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalaridan amalga oshiriladi. Bunday shaklda tovar aylanishi tezla-

Oldindan to'lash kartasi bo'lgan mijoz, hali sotib olmagan tovar uchun avans to'lovi ko'rinishida bo'lgan o'zini pul mablag'larini do'kon kassasiga qo'yadi. Keyinchalik xizmat ko'rsatishda xaridor kartasidan mablag'larni oddiy ko'chirilishi amalga oshiriladi. Xaridorlarni oldindan to'lash kartochkalariga qiziqtirish uchun qoidaga ko'ra, do'konlar mijozga taklif qilinadigan kerakli savdo chegirmasi va kerakli savdo tizimini ishlab chiqardi. Shunday qilib, hisob-kitob kartochkalar diskont kartalarida bo'lgan elementlarni o'zi ichiga oladi.

Do'kon kartochkalarini ishlatishni do'kon tovar aylanishiga yaxshi ta'sir etadi. Bundan tashqari, oldindan to'lash kartochkalariga ega bo'lgan kliyent, hali berilmagan tovarning qiymatiga do'konni kreditlaydi. Bu esa do'konga qo'shimcha pul mablag'larini beradi hamda berilgan savdo korxonasining statusi va obro'sini oshirishga sabab bo'ladi. Do'kon kartasi shu kartani chiqargan korxonaning samarali reklama atributi bo'lib ham hisoblanadi va nafaqat do'kon obro'sini, balki mijoz obro'sini ham oshiradi, chunki plastik kartalar hozirgi paytda tovarlar va xizmatlar uchun obro'li to'lov bo'lib hisoblanadi.

Plastik kartalar bilan ishlash do'kon avtomatlashgan tizimi asosida doimiy mijozlar bazasidan to'lovlar kiritishga va ularni sotib olingan narsalari dinamikasini kuzatishga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi paytda do'konlar magnit sxemali va mikrosxemali kartochkalardagi do'kon tizimini olganlar. Kartochkalarni ikki turi ancha qulay bo'lib hisoblangan, chunki ular to'la himoyalanganidir. Bundan tashqari maxsus terminal kassalarni ishlatilishi ularni avtorizatsiyasini osonlashtiradi.

Do'konlarda smat-kartalar bo'yicha xizmat ko'rsatish punkting tashkillanishi 3 variantda ishlatilishi mumkin.

Birinchidan, kassa xizmat ko'rsatish avtomatlashgan tizimining oddiy elektron kassa apparatidan foydalanish mumkin. Bu apparat esa pipad orqali PIN kodni (mijozni shaxsiy indensifikatsiya nomeri) kiritish uchun klaviatura bilan va kartalardan ma'lumotlarni hisoblash uchun qo'shimcha uskuna bilan ta'minlangan.

Ikkinchidan, maxsuslangan savdo terminal kassasi ishlatilishi mumkin.

Uchinchidan, do'konda terminal sifatida PIN-kodni chiqarish uchun pinpad bilan va savdo cheklarini chiqarish uchun printer bilan oddiy shaxsiy kompyuter ishlatilishi mumkin.

Xaridorga xizmat ko'rsatishda, operator mijoz kartasini pinpadga qo'yadi va unga o'zini PIN kodini kiritishga taklif qiladi. Agar PIN kod noto'g'ri terilgan bo'lsa va karta nomeri xizmat ko'rsatishga taqiqlangan ro'yxatda bo'lsa, unda operatsiya bajarilmaydi, karta esa holatga qarab, yo qaytariladi, yo olib qo'yiladi.

Keyin sotuvchi terminalda tovar qiymatini teradi. Terminal qiymatni hisoblaydi, elektron karta mablag'ini yangilaydi, operatsiyani reestrda saqlab qo'yadi va savdo chekini chiqaradi.

Rastalarda xizmat ko'rsatish orqali tovarlarni sotish quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

- xaridorni kutib olish va uning istagini bajarish;
- tovarlarni taklif etish va ko'rsatish;
- tovarlarni tanlashda yordam qilish va maslahat berish;
- yangi tovarlarni taklif qilish;
- texnologik operatsiyalarni o'tkazish, ya'ni o'lchash va taroziga qo'yish;
- hisob-kitob operatsiyalari;
- o'rash va xarid qilingan narsani berish.

Do'konga kelgan xaridor sotuv personali tomonidan xushmuomala munosabat bilan kutib olinishi kerak. Agar savdo zali toza bo'lsa, u holda xaridor bu do'kon haqiqatda yaxshi fikrda qoladi. Xaridor niyatini bilish uni modellarga, fasonlarga va boshqa ko'rsatkichlarga bo'lgan munosabatida aniqlanadi. Bu operatsiya savdo personali tomonidan muloyim tarzda bajarilishi kerak.

Xaridor niyatini bilgandan so'ng sotuvchi kerakli tovarlarni ko'rsatadi. Shu paytda sotuvchi tovarlar xususiyatlariga e'tibor beradi va yo'q tovarlarni o'rniga boshqa o'xshash tovarlarni taklif qiladi. Agar kerak bo'lsa, sotuvchi shu tovarlar nima uchun kerak, ularni qanday ishlatish kerakligi haqida xaridorlarga zarur bo'lgan maslahatlarni berishi shart. Maslahatlar yangi tovarlar tashviqotiga qo'shilishi kerak va xaridorlarda estetik didlarni tarbiyalashi kerak. Yirik do'konlarda maslahatlarni o'tkazish uchun xalq xo'jalik

Tovar ta'minotini ratsional tashkil etishning muhim sharti bo'lib, uning tezkorligi sanaladi. Bu tamoyil tovarlarni tashib keltirish tovarlarga bo'lgan talab o'zgarishi, mavsumiy va boshqa tebranishlar hisobiga ko'paytirilishi yoki qisqartirilishi kerak, deb qaraydi. Chakana savdo tarmog'ini tovar bilan ta'minlovchi ulgurji baza va boshqa korxonalar bunday o'zgarishlarni tezkorlik bilan hisobga olishlari va o'zgartirish kiritishlari kerak. Buning uchun ular chakana savdo korxonalaridan o'z vaqtida tovarlar realizatsiyasi va tovar zahiralari holati haqidagi axborotni olishlari kerak.

Tovar ta'minotining iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi tovarlarni chakana savdo tarmog'iga yetkazish jarayonida ish vaqti, material va pul vositalarining minimal xarajatlarini aks ettiradi. Bu tamoyil asosida transport vositalari, ortish-tushirish ishlari mexanizatsiyalaridan foydalanish, tovar harakatining ratsional zvenosini o'rnatish, tovar harakatining ishlab chiqarishdan iste'molchigacha bo'lgan oralig'ida ortiqcha ombor texnologik operatsiyalarini yo'qotish, tovar qabul qilish va topshirishda hujjatlarni aniq rasmiylashtirishning samaradorligiga erishiladi. Shunday qilib, chakana savdo tarmog'ining tovar ta'minoti yuk aylanishini kamaytirishni, optimal tarzda zvenolashtirishni, tovar partiyalari o'lchami va yetkazib berish chastotalarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan tovar olib kirishning ratsional sxemalari asosida amalga oshirilishi kerak.

Markazlashganlik chakana savdo korxonalarini yetkazib beruvchi korxona kuchi va vositalari asosida tovar bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Buning natijasida do'kon ishchilari tovar ta'minotiga tijoriy jihatdan javobgar bo'lishlariga qaramasdan, o'zlarining bevosita xaridorlarga xizmat ko'rsatishdan chalg'imaيدilar.

Tovar ta'minotining barcha bosqichlarida qabul qilinadigan progressiv-texnologik qarorlar asosida tovar bilan ta'minlash amalga oshirilishi kerak. Bu yerda chakana savdo tarmog'ini tovar bilan ta'minlashni sanoatlashtirish (industrializatsiya)ning asosi bo'lgan modulli transport tizimlari katta rol o'ynaydi.

Chakana savdo tarmog'ini tovar bilan ta'minlanishini tashkillashtirishga quyidagi muhim omillar ta'sir ko'rsatadi:

— Tovar ta'minotining mukammal ishlab chiqarilgan tizimi tovarlarni tashib keltirish va saqlashdagi xarajatlarni minimal-lashtirishni ta'minlashi kerak.

Chakana savdo korxonalarining tovar ta'minoti quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak:

- Rejaga asoslanish;
- Ritmlilik;
- Tezkorlik;
- Iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lish;
- Markazlashganlik;
- Texnologiklik.

Rejaga asoslanish chakana savdo korxonalarini tovar bilan ta'minlash jarayonining reja bilan olib borilishini ifodalaydi. Do'kon va boshqa sotish punktlariga tovarlarni keltirish assortiment turlarni hisobga olgan holda, reja grafiklari asosida olib borilishi kerak.

Ta'minotning ritmliligi tovarlarni bir xil vaqt oralig'ida keltirilishini ko'zda tutadi. Tovarlarni do'konlarga yetkazib berishdagi ritmlilik tovar aylanmasi tezligini oshirish, chakana savdo korxonalarini ishini tovar yetkazish muddati buzilgan holatlarda to'xtatmaslik uchun kerak bo'lgan ortiqcha tovar zahiralarini paydo bo'lishining oldini oladi. Undan tashqari, chakana savdo korxonasi tovar ta'minotining ritmliligi ombor, ulgurji baza, transport korxonalarining ishlashi uchun optimal sharoitlar yaratadi. U ishchi kuchidan unumli foydalanish imkonini beradi.

9.2. Chakana savdo korxonalarini tovar bilan ta'minlashning ritmlilik darajasi

Chakana savdo korxonalarini tovar bilan ta'minlashning ritmlilik darajasini aniqlash uchun ta'minotning *ritmlilik koeffitsiyenti* ko'rsatkichidan foydalanish mumkin:

$$K_r = SP_f / SP_n,$$

bunda, P_f — tegishli davr uchun tovarning real yetkazib berilishi;
 P_p — har bir davr uchun tovarning grafik asosida yetkazib berilishi.

tovarlarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalar mutaxassislari, modelerlar, vrach - kosmetologlari va boshqa mutaxassislar taklif qilinadi. Sotuvchi majburiyatlariga xaridorga kerakli tovarlarni taklif qilish ham kiradi.

Kesish, o'lchash, taroziga qo'yish bilan bog'liq bo'lgan texnologik operatsiyalarni bajarishga ko'p vaqt va mehnat sarflanadi. Ularni bajarish sifatiga va xaridorlarga xizmat ko'rsatish darajasiga sotuv personalining malakasi va sotuvchining ish joyida xizmat ko'rsatish darajasi ta'sir ko'rsatadi.

Tovarlarining sotilishi xaridor bilan hisob-kitob va tovarlarni berish bilan tugaydi.

Texnik tomondan murakkab bo'lgan va kafolat muddati bilan bo'lgan tovarlarni sotilishida, sotuvchi tovar pasportida belgilar qilishi shart, tovar chekini yozish va nusxasini xaridorga berish kerak.

Tovarlarini namuna bo'yicha sotish, namunalarni sotuv zalida qo'yilishi bilan ko'rsatiladi va xaridor uni o'zi (yoki sotuvchi yordamida) ko'radi, tovar tanlangandan va xarid qilingandan keyin sotuvchi xaridorga namunaga o'xshash tovarni beradi. Savdoni bu usulida ishchi zahiralarini namunalari alohida bo'lgan holda joylashtiriladi. Bu usul shunisi bilan qulayki, hatto maydoni kichik bo'lgan savdo zalida juda keng assortimentdagi tovarlar namunalari qo'yish mumkin. Odatda, bu usul texnik tomondan murakkab bo'lgan va katta gabaritli tovarlarni sotishda ishlatiladi. Bu usul bilan muzlatkichlar, kir yuvish mashinalari, isitish va yoritish uskunalarini, tikuv mashinalari, televizorlar, radiopriyomniklar, musiqa asboblari, motosikllar, motoroller, velosipedlar, mebellar, gazlamalar va boshqa tovarlarni sotishni amalga oshiradi.

Savdo zalida qo'yilgan tovar namunalari - tovar nomi, artikuli, navi, ishlab chiqaruvchining nomi, narxi aniq ko'rsatilgan bo'lishi shart. Kerak bo'lgan vaqtda sotuvchilar xaridorlarga konsultativ yordam ko'rsatishadi.

Namunalar bo'yicha katta gabaritli tovarlarning sotilishi ularni do'kon omborlaridan, ulgurji bazalaridan yoki sanoat ishlab chiqaruvchi korxonalardan xaridor uyiga yetkazib berish bilan farqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, omborxonalardagi chakana savdo

korxonalariga bo'lgan ehtiyojni qisqartirishga, transport harajatlarini kamaytirishga va xaridorlarni sotib olingan tovarlarni yetkazish bilan bo'lgan jarayonlarni osonlashtirishga imkon yaratadi.

Tovarlar ochiq taxlangan holda sotilishida xaridorlar o'zlari sotuvchi ish joyida qo'yilgan tovarlarni ko'rish va tanlash imkoniyatlariga egadir. Ular rastalarga, peshtaxtalarga, stendlarga qo'yiladi. Bunday tovar sotish usulida sotuvchi funksiyalariga xaridorlarga maslahat berish, tarozida tortish, o'rash va tanlangan tovarlarni berishdan iborat.

Hisob-kitob operatsiyalari savdo zalida o'rnatilgan xossalarda yoki sotuvchining ish joyida amalga oshirilishi mumkin.

Tovarlarini ochiq taxlangan holda sotilishi boshqa usullarga qaraganda ancha qulay, chunki ko'p xaridorlar sotuvchilarni o'z funksiyalarini bajarishda chalg'itmasdan turib, o'zi ochiq holda qo'yilgan tovar namunalari ko'rish imkoniyatiga ega. Bu usul esa, o'z navbatida, tovar sotish bo'yicha operatsiyalarni tezlashtirishga, do'kon tovarlarini o'tkazish imkoniyatlarini oshirishga va sotuvchining mehnat qilish hajmini oshirishga katta imkoniyatlar yaratadi.

Tayanch iboralar

Texnologik jarayon. Sotish. Xizmat ko'rsatish. Saqlash. Asosiy jarayonlar. Asbob-uskunalar. Mehnat unumdorligi. Moddiy-texnika bazasi. Tovar xarid qilish. Samarali savdo. Savdoning ilg'or usullari. Tara-jihozlar. Karta-sxema. Konteynerlar. Tovarlarini qabul qilish. Miqdor. Son. Sifat.

Nazorat va mulohaza savollari

1. *Do'kon savdo-texnologik jarayoni qanday qismlardan iborat?*
2. *Do'konda ish faoliyatini samarali tashkil etish qanday prinsiplarini bilasiz?*
3. *Tovarlarini saqlashda nimalarga e'tibor berish kerak?*
4. *O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish do'konlarida tovarlarini sotishga tayyorlashda qanday o'ziga yarasha xususiyatlari mavjud?*

9-bob. CHAKANA SAVDO KORXONALARINI TOVAR BILAN TA'MINLASH TEXNOLOGIYASI VA TASHKIL ETILISHI

9.1. Tovar yetkazib beruvchi tashkilotning vazifasi va uning oldiga qo'yiladigan asosiy talablar

Chakana savdo tarmog'ini tovar bilan ta'minlash deganda tovarlarni chakana savdo korxonalariga yetkazib berishdagi tijorat va texnologik operatsiyalarning murakkab kompleksini o'zida aks ettiruvchi tadbirlar tizimi tushuniladi. Chakana savdo korxonalarida ratsional tashkil etilgan tovar ta'minoti tovarlar assortimentining to'liqligi va barqarorligini, tovar zahiralarining zaruriy darajasini, aholi talabining qondirishni hamda savdo tashkilotlari va korxonalarini ishining yuqori moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini ta'minlaydi, ya'ni kafolatlaydi.

Chakana savdo korxonalarini tovar ta'minotini tashkil etishda quyidagi asosiy talablarni hisobga olish kerak:

— Ta'minotning manbalari va maqbul shakllari sanoat va boshqa ishlab chiquvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar hajmi, assortimenti, chakana savdo korxonasining ta'minotchi savdo korxonalaridan hududiy uzoqligi bilan aniqlanishi kerak;

— Tovarlarini tashib keltirish aholi talabi hamda do'konlar uchun o'rnatilgan majburiy assortiment rejasi asosida amalga oshirilishi kerak;

— Keltiriladigan tovarlar hajmi korxona tipi, quvvati, tovar aylanmasini xarakterlovchi hajmi va savdo maydonining o'lchamlari bilan aniqlanishi kerak. Savdo korxonalarini tegishli savdo-texnologik vositalar (sovitish vositalari va h.k.) bilan jihozlanganligi alohida ahamiyatga ega;

— Bir vaqtda yetkazib beriladigan tovar partiyasi hajmi mavjud tovar zahiralarini, kundalik o'rtacha realizatsiya miqdori va tashib keltirishni o'rnatilgan vaqt oralig'i asosida hisoblanishi kerak;

Tovarning turi bo'yicha bo'linishi do'kon xodimlarining alohida yoki bir necha tovar guruhlari bo'yicha ixtisoslashishiga ko'mak beradi. Bu narsa tovarlarning turlarini chuqurroq o'rganishga, xaridorlarga yuqori saviyada xizmat ko'rsatishga yordam beradi.

Mehnatning kvalifikatsiya bo'yicha bo'linishi xodimlarning majburiyatlari va tajribalariga qarab belgilanadi. Tajribali kadrlarni to'g'ri (o'z bilimi bo'yicha) ishlata bilish xaridorlarga ko'rsatiladigan xizmatni yuqori darajaga olib chiqadi. Kvalifikatsiya bo'yicha ishchi xodimlarni birinchi, ikkinchi va uchinchi toifalarga bo'lish mumkin.

Savdo qiluvchi tashkilotlarning turli toifadagi bir necha xodimning mavjud bo'lishi taqdim etilayotgan tovarlarning turiga qarab belgilanadi. Shunday qilib, tovar aylanmasida ko'p qismi xarakter jihatdan qiyin tovarlar taqdim etilsa, do'kon shtatida xodimlar soni va kvalifikatsiyasi shuncha bo'lishi kerak.

Mehnatning taqsimlanishi asosiy shartlaridan biri mujassam qilish (birlashtirish, kooperatsiya) hisoblanadi, do'kon xodimlarining kasblarini, ixtisosligini, funksiyalarini, o'rindoshlik qismini namoyon qiladi. Bu narsa butun ish kuni mobaynida do'kon xodimlarining to'liq va to'g'ri taqsimlangan holda ish bilan ta'minlashga imkon beradi, xaridorlarga xizmat ko'rsatish jarayonini tezlashtiradi. Natijada mehnat birlashuvi (kooperatsiya) do'kon xodimlarining tajribasini yanada oshiradi, ular qo'shimcha bilim va ishni o'rganishga imkon beradi.

Har bir do'konning mehnat kooperatsiya darajasi do'konning ish tartibi bilan belgilanadi, mehnatning tashkillashtirish shakllari va moddiy javobgarlik kun davomida xodimlarning ish bilan qay darajada bandligi va bo'sh vaqtiga qarab belgilanadi. Masalan, tovar bo'lim boshlig'i lavozimi bilan ma'mur, tovarshunos, sotuvchi, nazoratchi, nazoratchi-kassir lavozimlari bilan o'rindoshlik qilishi mumkin; sotuvchi lavozimi — bo'lim boshlig'i, ma'mur, nazoratchi, nazoratchi-kassir, farrosh lavozimlari bilan va h.k. Shu kabi lavozimlarni o'rindoshlik qilishni xodimlarning qo'shimcha ixtisoslikni o'rganish xaridorlarga yanada sifatli xizmat ko'rsatishga undaydi, chunki qo'shimcha olingan bilim va tajriba

shadi, tovarning ushlanib qolinishi qisqaradi, yo'qotilishi kamayadi. Shuningdek, tovar ta'minotining bu shakli chakana savdo tarmog'ining ko'pligi va yo'nalganligi tufayli cheklangan tarzda qo'llaniladi. Bu shakl asosan oddiy assortimentdagi tovarlar, shuningdek, iste'mol tumanlarida ishlab chiqarilishi amalga oshiriladigan (non va non mahsulotlari, sut va go'sht mahsulotlari va h.k.) tovarlar uchun qo'llaniladi.

Qayta sortirovkaga ehtiyoj sezadigan murakkab assortimentdagi tovarlarning ombor shakli do'konga ulgurji korxona omborlaridan keltiriladi.

Chakana savdo korxonalari tovar ta'minotining optimal manbalari va shakllarini har bir tovar guruhi uchun ishlab chiqilgan tashib keltirish sxemalari yordamida tanlash mumkin. Bu sxemalar tovarning sanoat korxonalari, ulgurji baza va boshqa yetkazib beruvchilardan chakana savdo korxonalariga harakat qilish tartibini har bir tovar guruhi, zaruriy holatlarda alohida kichik tovar guruhi bo'yicha aniqlanadi. Sxemalar tovarlarni har bir chakana savdo korxonasiga yetkazib berilishining aniq tartibini nazarda tutadi. Ularni ishlab chiqish bir qator tamoyillar asosida amalga oshirish tavsiya etiladi. Masalan, iste'mol kooperatsiyasida sxema quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

— Tovarlarning kerakli va minimal oraliq ombor zvenolaridan o'tishi: sanoat korxonasi-tumanlararo ulgurji baza-do'kon;

— Murakkab assortimentli tovarlarning ulgurji savdosini yirik tumanlararo ulgurji bazalari orqali bir yo'nalishga qo'yilishi;

— Tovarlarni chakana savdo tarmog'iga markazlashgan tarzda yetkazib berilishining kengayishi;

— Tovarlarning harakatlanuvchi omborlar, tovar namunalari zali, tovarshunoslar va pochta operatsiyalari orqali amalga oshiriladigan keng ulgurji savdosi.

Tovarlarni tashishning sxemasini ishlab chiqish uchun, eng avvalo, tovar harakatining tumanlararo ulgurji bazasi va tuman kooperativ tashkilotlarining ulgurji korxonalarigacha bo'lgan yo'li aniqlanadi. Tovarlarning bu ulgurji zvenolarga sanoat korxonalari, tovar chiquvchi boshqa manbalar va savdo-sotiq bazalaridan tashib kelinishi ko'rib chiqilishi lozim.

Murakkab assortimentli tovarlarning ugurji savdosini yirik tumanlararo ulgurji bazalari orqali bir yo'nalishga qo'yish mayda ulgurji korxonalarda bu tovarlarning chang bosib qolishiga to'sqinlik qiladi va ishlab chiqarish korxonalari bilan ratsional aloqani o'rnatish imkoniyatini tug'diradi.

Bir qator talablarni e'tiborga olgan holda ishlab chiqilgan tovarlarning ulgurji korxonalarga olib kirish sxemalari shu tovarlarni chakana savdo tarmog'iga olib kirishning aniq sxemalarini ishlab chiqishga asoslanadi.

Ulgurji bazalar bilan bir qatorda chakana savdo korxonalariga ulgurji korxonalar orqali aylanib o'tgan holda keltirilishi lozim bo'lgan tovar sxemalari ishlab chiqiladi. Ularda mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi tovarlarining do'konlarga tashib keltirish tartibi ko'rib chiqiladi. Bu, birinchi navbatda, non va non mahsulotlari, sut va go'sht mahsulotlari va boshqalarni tashib keltirishga tegishli.

Tovarlarni ulgurji korxona va chakana savdo tarmog'iga olib kirish sxemalarini ishlab chiqishda malakali savdo xodimlari ishtirok etishlari kerak.

Tovarlarni tashish sxemalari doimiy tarzda ko'rib chiqilishi, tovar kelishining yangi manbalarini paydo bo'lishi yoki boshqa holatlar aniqlanishi kerak.

Tayanch iboralar

Tovar ta'minoti. Ratsional tashkil etish. Oraliq ombor zvenolari. Murakkab assortimentli tovarlar. Tumanlararo ulgurji bazalar. Tovarlarning ombor shakli. Tovarlarni tranzit shakli. Xizmat ko'rsatish. Saqlash. Asosiy jarayonlar.

Nazorat savollari

1. *Do'kon savdo-texnologik jarayoni qanday qismlardan iborat?*
2. *Do'konda ish faoliyatini samarali tashkil etish qanday tamyillarini bilasiz?*
3. *Tovarlarni saqlashda nimalarga e'tibor berish kerak?*
4. *O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish do'konlarida tovarlarni sotishga tayyorlashda qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?*

Tovarshunosning asosiy vazifasi tijorat ishlari va savdoni tashkillashtirishdan iborat. Bularning ichiga aholining tovarga bo'lgan talabini o'rganish, tovar yetkazib beruvchilar bilan shart-nomalar tuzish va ularni nazorat qilish, shikoyat hujjatlarini tayyorlash, tovarning zahirasi nazorat qilish, tovarning sifatini tekshirish va ularning saqlanishini ta'minlashdan iborat.

Tovar bo'lim (seksiya) boshlig'i o'ziga qarashli bo'limlarning ishini tashkillashtiradi, tovarlarning talab darajada saqlanishini nazorat qiladi, tovarlarning soni va sifatiga qarab qabul qiladi, tovar-moddiy boyliklarni saqlanishini ta'minlash, bo'limlar bilan bog'lik barcha funksiyalarni bajaradi.

Asosiy (savdo-operativ) xodimlar-sotuvchilar, nazoratchi-kassirlar, nazoratchilar, kassirlar, ya'ni savdo zalida xaridorlarga xizmat ko'rsatish bilan mashg'ul bo'lgan ishchilar.

Sotuvchilarning majburiyatlariga ish joyini tayyorlash va tozalikka rioya qilish (qadoqlaydigan tovarlarning qabul qilish, savdo-asbob va jihozlarining ishga yaroqliligini nazorat qilish, maxsus idishlarni tozalash, talab qilinadigan darajada sanitar holatiga rioya qilish), tovarlarning savdoga chiqarishga tayyorlash, xaridorlarga xizmat ko'rsatish, ta'minlanmagan talabni hisobga olish va boshqalar kiradi.

Nazoratchi-kassirlar ish joyini hisobot opeasiyalarning bajarish uchun tayyorlaydi (kassa nazorat mashinasi ishga yaroqliligini tekshirdi, schetchik ko'rsatkichini yozadi, qaytim uchun mayda pullar oladi), xaridorlar bilan hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshiradi, savdo tushumini topshiradi va h.k.

Nazoratchi tovarlar turini, shaklini, hajmini, yaroqlilik sifati va narxini tekshiradi. Tovarlarni qayta o'lchaydi, xaridorlarga maslahatlar beradi, tovarlarning xaridorlar uchun qadoqlab beradi va topshiradi.

Yordamchi xodimlar asosiy xodimlarning xizmat ko'rsatishiga ko'maklashadi, hamda do'konning tozaligiga javob beradi. Bu guruhga ishchilar, quyi xizmat ko'rsatadigan xodimlar (far-roshlar), qadoqlovchilar, elektromontyorlar, texniklar va h.k.lar kiradi.

kichlarga bog'lik bo'lib, bajarilayotgan xizmatni (ishni) qay darajada qiyinligini ko'rsatadi.

Shuning uchun, do'kon xodimlariga mehnatni to'g'ri taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu narsa xodimlarning savdo-texnologik operatsiyalarning to'g'ri maqsadli yunaltirishga, har bir xodimga aniq funksional ma'suliyat yuklatiladi. Do'konda mehnatning asosiy taqsimlanishi quyidagilardan iborat: funksional, tovarga yunaltirilgan va kvalifikasiyalangan.

Funksional taqsimlanish (bo'linish) xodimlarning alohida maxsuslashtirilgan ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Tashkilotlar uch guruhga bo'linadi: boshqaruv, asosiy yoki savdo-amaliy va yordamchidir.

Xodimlar boshqaruvi bir necha savdo-texnologik va mehnat jarayonini boshqaruvchi xodimlardan iborat. Bunga, boshqaruvchi, muhandis-texnik xodimlar va ishchilar—direktor, direktor o'rinbosari, tovarshunos, seksiyalar boshqaruvchisi, bosh buxgalter, buxgalterlar, kassir va h.k. kiradi.

Do'konning boshqaruvini direktor amalga oshiradi, u ham reja-iktisodiy ishlarni, kadrlarni yollashdi va ularning lavozimi malakasini oshiradi, mehnat xavsizligini ta'minlaydi, texnik va yong'in xavsizligi ta'minlaydi, ulushchilar ko'rsamalarini bajarishni tashkillashtiradi. Undan quyi lavozimdagilar mehnat va ish haqi (maosh) oid masalalar, buxgalteriya hisoboti va moliyaviy ishlarni olib boruvchilar kiradi.

Direktor o'rinbosari do'konning tijorat faoliyatini amalga oshiradi, texnologik operatsiya va xo'jalik xizmati masalalari bilan shug'ullanadi.

Buxgalterlik bo'limi moddiy javobgar shaxslardan savdo-pul hisobotlarini qabul qiladi, tekshiradi va ularni qayta ishlaydi, pul mablag'larini va bank kreditlarini hisobga oladi hamda boshqa buxgalteriya ishlarini olib boradi.

Ma'mur tovarlarning tahlanihi va savdo maydonida reklamalarni bezatish, oldi-sotdi (savdo)ni qonuniy to'g'ri bajari-layotganini kuzatadi, xaridorlarning shikoyati ustidan sotuvchilarga nisbatan chora ko'radi va qaror qabul qiladi va h.k.

10- bob. TIJORAT-TEXNOLOGIK JARAYON VA DO'KONDAGI MEHNATNI TASHKILLASHTIRISHNI BOSHQARISH

10.1. Jarayonni tashkillashtirish

Do'konning tijorat-texnologik jarayon vaqti-vaqti bilan qaytarilib turadigan operatsiyalardan iborat, shunda uning sikl namoyen bo'ladi. Bir vaqtning o'zida tijorat-texnologik turli dinamika davomiyli-gi (kun maboynida xaridorlarning qatnovligi va tovarlar oqimi, hisob-kitob va boshqa operatsiyalar) o'zgaradi. Bundan tashqari, alohida operatsiyalar taqdim etilgan mezonlar bilan chiqishi mumkin, bu narsa do'konda tijorat-texnologik jarayonga ma'lum xarakter taqazo etadi. Bularning hammasiga turli omillar ta'sir etadi.

Do'konda ratsional shaklda tijorat-texnologik jarayonni ta'minlash uchun barcha operatsiyalarning puxta o'ylangan boshqaruv tizimi zarur. Bularning barchasi do'kon maydonidan, tijorat-texnologik jihozlardan, ish kuchidan unumli foydalanishga olib keladi va nihoyat xaridorlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatishga muhit va sharoit yaratadi.

Do'konning boshqaruv predmetlari deganda, tovar zahiralar, tovar turlari, tovar va xaridorlar oqimi, mehnat jarayoni va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish tushuniladi.

Tovar zahiralarini boshqarish. Do'konda tovar zahiralar hajmi kam bo'lganda ham to'xtovsiz savdoni ta'minlash, hamda saqlash jarayonida tovar yo'qotishlarning oldini olish, do'kon ichida tovar joyini o'zgartirish va sotish kabilar kiradi. Bu har kunlik tovar zahiralarini boshqarish yo'li bilan erishiladi. Do'konda zahiradagi tovarlarning hajmi kunlik sotiladigan tovarlar hajmi, bir martalik ta'minotning optimal o'lchovi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Do'kon xodimlari zahiradagi tovarlarning haqiqatda mavjudligi bilan o'rnatilgan zaruriy xajm bilan taqqoslab nazorat qiladi va ularni to'g'rilashga chora ko'radi.

Zahiradagi tovarlarning hajmi pasayib ketish sabablarni aniqlaydi va do'konga tovar olib kelishni tezlatishga chora ko'radi yoki o'rniga almashtirish mumkin bo'lgan tovarlarni sotishni taklif qiladi.

Agar do'konda haqiqatda zahiradagi tovarlar zarur bo'lgan hajmdan oshib ketsa, unda do'kon xodimlari, birinchi navbatda, oshib ketganlik sabablarini, qaysi omil ta'sirida sodir bo'layotganini aniqlashadi:

- moda o'zgarishi ta'sirida iste'mol talabining pasayishi, narxlarning ko'tarilishi, yangilari chiqishi, tovarlarning zamonaviy turlari chiqishi va hokazo;

- tovarlarga bo'lgan talabni aniqlashda do'kon xodimlarining qayta hisob-kitobi;

- taqdim etilayotgan tovarlarning sifati pastligi;

- do'konga tovarlarning kelish muddatini nazorat qilish.

Zahirada haqiqatdan ham qolib ketgan tovarlarning sababi aniqlangandan so'ng, bu tovarlarning tezroq sotish choralari ko'rib, do'konga shu kabi tovarlarning olib kelishni chegaralash amalga oshiriladi. Tovarlarini taklif qilishni (sotishni) tezlatish faol reklama qilish yoki boshqa aholi turar joylarida yarmarka-sotuvini tashkillashtirish kerak. Olib kelingan tovarlarning ortiqcha qismini ulgurji bazaga qaytarilishi mumkin.

Chakana savdoni amalga oshiruvchi tashkilotlarda asosiy tovarga yo'naltirilgan, do'konning boshqarish darajasi aholini tovar bilan ta'minlashga bog'liq. Shuning uchun, har bir do'konda tovarlarning zahirasi ustidan doimiy nazorat o'rnatilishi zarur, bu narsa faqatgina o'rnatilgan hajminigina emas, balki har kunlik tovarning saqlanish nazoratini ta'minlaydi.

Tovarlarning turlarini boshqarish. Bu narsa do'konda doimiy bo'lishi darkor bo'lgan bir qancha tovarlarning turlarini tizim orqali nazorat qilishni, o'z vaqtida o'zgartirish bo'yicha taklif etishni inobatga oladi. Uning vazifasiga tovar guruhi chegarasiga binoan yetarli darajada to'liq tovar miqdorini ta'minlash, taklifning raqobatbardoshligi va kompleksligi kiradi. Tovar turlarini boshqarish, tovar zahiralarini boshqarish bilan chambarchas bog'liq.

Do'kondagi tovarning turlarini boshqarish va nazorat qilishda quyidagi usullardan foydalaniladi: savdo zalida tovar turlarini joylashtirishga texnologik xaritalar ishlab chiqiladi. Xarita ishlab chiqilayotgan do'konning joylashganligi, tovarlarning savdo maydonida joylashtirish, ularning aylanmasi, qaytib keladigan tara oqimi va savdo zalida saqlash uchun qadoqlash, xaridorlar oqim yo'nalishlarining inobatga olish kerak.

Xaridorlar oqimini boshqarish do'konning ish kunlari, xaridorlarning serqatnovlik soatlari tahlil qilish bilan amalga oshadi, do'kon xodimlarining xaridorlar oqimi serqatnovlik vaqtida joylashtirish, aniq do'kon ichki axborotiga ega bo'lish, teng taqsimlangan holda xaridorlar oqimiga qarab tovarlarning savdo maydonida joylashtirish va hokazo.

10.2. Do'kon xodimlarining mehnatini tashkillashtirish

Do'kondagi mehnatni tashkillashtirish, tashkiliy-texnik, iqtisodiy va sanitariya-gigiyena talablariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak-ki, bu narsa tijorat-texnologik jarayonni, savdo va boshqa maydon (yer, hudud)dan unumli foydalanish, jihozlar va ishchi xodimlar, mehnat (ishlash) uchun yaxshi sharoit ishlab chiqish, bularning barchasi aholiga savdo xizmati yuqori darajada ko'rsatishni ta'minlashi kerak.

Mehnatni tashkillashtirish shakl jihatdan ikkiga bulinadi, yakka tartibdagi va jamoat tartibdagi shakllaridir. Mehnatni tashkillashtirishni yakka tartibdagi shaklida — do'kon xodimiga (ishchisiga) ma'lum bir savdo-texnologik jarayonga ega bulgan maydon ajratiladi. Tovar-moddiy boyliklarni saqlashga shaxsan javobgar hisoblanadi, xaridorlarga yakka o'zi xizmat ko'rsatadi va h.k. Mehnatni tashkillashtirishning jamoat tartibdagi shakli bir necha ishchi xodimlarning birgalikda bo'lim, seksiyalarda xizmat ko'rsatish nazarda tutiladi. Ular ish natijasiga birgalikda ma'sul bo'lishadi.

Ishchi xodimlarning soni va do'konning shtat tizimi tashkilotning turi va savdo maydonining kattaligi, hajmi, shartlari, ish vaqti, tovarni sotish usullari, ishchi o'rinlar soni va boshqa ko'rsat-

mustahkam, chidamli, ovozni yutadigan, suv o'tkazmaydigan, gigiyenik, ishlatishga qulay bo'lishi kerak. Ular estetika talablariga javob berishi va arzon bo'lishi kerak.

Turli xildagi do'konlarni bezashda ba'zi talablar material tanlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, oziq-ovqat tovarlari do'konlarida devorlar, kolonnalar, qatorlar uchun tekis, ho'llanmaydigan material qo'llanilishi kerak. Chunki bunday materiallar yig'ishtirish, namlab tozalash va dezinfeksiya jarayonida o'z ko'rinishini o'zgartirmasligi kerak. Bu yerda chang to'playdigan, perforatsiyalangan materiallardan foydalanish mumkin emas. Bunday do'konlarga ko'proq keramik plitkalar, qavat-qavat plastiklar, polivinilxlorid plyonkalar kabi vositalardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Nooziq-ovqat tovarlari do'konlarini bezashda ixtiyoriy bezash materialidan foydalanish mumkin.

Savdo zalida mozaik panno, vitrajlar va turli murakkab qurilish detallaridan foydalanmaslik yaxshiroq. Chunki bunday bezaklar xaridorlarning diqqatini sotilishi kerak bo'lgan tovardan chetlashtiradi. Bunday badiiy vositalar savdo zalining yo'nalishlarni ko'rsatadigan joylarga, tovar sotish zonalar yonlariga qo'yilishi kerak.

Pollarni qoplashda yuqori darajada mustahkamlikka ega bo'lgan va yemirilishga qarshiligi katta materiallardan foydalaniladi. Pol sirti tekis, sirpanchiq bo'lmagan, namga ta'sir qilmaydigan bo'lishi kerak. Agar pol qancha sirpanchiq bo'lmasa, issiqlikni qancha o'ziga singdirmasa, ovozni qancha ko'p yutsa, xaridorlar va savdo xodimlari uchun shuncha qulay muhit yaratiladi. Pol konstruksiyasini rejalashtirish paytida turli zararlangan va eskirgan qismlarini almashtira olish imkoniyatini ham oldindan xisobga olish lozim.

Devorlarning pastki qismini bo'yash o'rniga maxsus vositalardan foydalanish mumkin. Perforatsiyalangan shchitlar va ko'tarma kolonnalarni bezashda foydalanish tovarlarni reklama qilishga yordam berishi mumkin. Kolonnalarni bezashda qattiq va o'ta mustahkam materiallardan foydalanish kerak. Shu narsa ayniqsa, mexanik qarshilikka ko'p uchraydigan tranzit joylarda joylashgan kolonnalarga tegishli.

doim hamroh bo'ladi. Tikuv tovarlari sotuvchisi, trikotaj yuqori va quyi darajasidagi sotuvchining ixtisosligini o'zlashtirish oson kechadi, radiotovarlar va televizor sotuvchisi - kino va fototovar ixtisosligi va h.k.

Lavozimlarning to'liq o'rindoshlik qilishdan tashqari, do'kon xodimlari o'zlarining asosiy majburiyatlari bilan bir qatorda alohida funksiyalarni bajarishi orqali, boshqa kasbga taalluqli ishlarni bajarishlari mumkin. Masalan, bo'lim boshliqlari xaridorlarga xizmat ko'rsatishlari mumkin, sotuvchilar o'zlarining asosiy ishlarining bo'sh vaqtlari maboynida qo'shimcha yordamchi ishlar bilan shug'ullanishlari kerak.

Do'kon mehnatining bo'linishi va kooperatsiyasi, tashkilot va savdo maydonining hajmi, tovarlarni sotishda qo'llaydigan usullari, tovar aylanmasining hajmi va strukturasi, xaridorlarga xizmat ko'rsatishning qo'shimcha usullari va do'konning boshqa shartlariga qarab amalga oshiriladi. Lekin mehnatning bo'linishi va kooperatsiya tadbirlari xaridorlarga sifatli xizmat ko'rsatishga va do'kon xodimlarining sharoitiga yomon ta'sir qilish kerak emas.

Do'konda mehnatni tashkillashtirishning asosiy yangiligi — tashkilot va ish joylariga xizmat ko'rsatishni yaxshilashdan iborat. Tashkilot va ish joyi xizmati do'kon xodimlariga yaxshi sharoit va ish vaqti jarayonida jihozlardan unumli foydalanish mehnat unumdorligini oshiradi. Bularga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

— ish joyini to'g'ri jihozlanganligi, kerakli bo'lgan inventar va jihozlar qulay joylashtirilganligi;

— uzluksiz ish joylarni tovar, qadoqlovchi materiallar bilan ta'minlash va hokazo;

— ish joylarning qat'iy savdo-texnologik operatsiyalarni bajarish ketma-ketligi bilan amalga oshirish;

— yaxshi mehnat sharoitini ishlab chiqish, devorlarni bo'yash, jihozlar, moslama va mebellar.

Ish joyini rejalashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

U ma'lum bir joyda ish joy hududida funksional jihatdan bir-biri bilan bog'liq texnologik elementlar, jihozlar, tashkiliy jihozlar (mebel) va inventar zarur bo'lgan tijorat-texnologik jarayonni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan vositalar hisob-

lanadi. Ish joyi va o'rinni uzunligi tovarning turlari va taklif qilinayotgan tovarlar sotilishining qiyinligiga qarab, tovarning xaridorgirligi va aslligiga qarab belgilanadi.

Ish joylarining xolati tayyorlov-tugatuv, transport va xo'jalik maishiy funksiyalarga bog'liq.

Tayyorlov-tugatuv funksiyalar o'z ichiga: tovarni sotuvga tayyorlashni, tovarlar turlarining va jihozlarning to'liqligini; inventarlarni tayyorlash va ish joyida joylashtirishni; tovarlarni joylashtirishni; kassa mashinani ishlatishga tayyorlashni; savdoning umumiy tushumini hisoblash va o'rnatilgan tartibda topshirish va ish joyini tozalashni oladi.

Transport vazifasi do'kon ichidagi tovarlarni va bo'shagan taralarni tashishdan iborat.

Xo'jalik va maishiy funksiyalar ish joyini zarur jihozlar, inventar, qadoqlash materiallari va kiyim formalarni ta'minlashdan iborat.

Do'kon xodimlarining mehnat unumdorligining oshishi, ko'pincha, mehnat uslub va usullarining rivojlanishiga bog'liq. Mehnat usullari deganda, yagona va maqsadli yo'nalishga qaratilganligi, mehnat harakatlarining umimlashgan va ketma-ket bajarilib turadigan operatsiyalar tushuniladi. Mehnat usullari — mehnat jarayonini amalga oshiruvchi omil hisoblanadi. Ishlatiladigan uslub va usullar taqdim etilayotgan tovarlarning turlariga, tayyorgarlik uslublari va tovarning sotiwi, xodimlarning tajribasiga va boshqa omillarga bog'liq. Mehnat uslub va usullarini o'zlashtirish bajariladigan mehnat jarayonlariga, vaqtini tejashga, mehnat xavfsizligini ta'minlashga, mehnatning maksimal ta'minotini saqlashga olib keladi. Bu narsa xaridorlarga xizmat ko'rsatish vaqtini tejashga va xodim (ishchilar)ning toliqishini oldini oladi.

Chakana savdoni amalga oshiruvchi tashkilotlarning mehnat unumdorligini oshirishning asosiy omili uni normalashtirishdir, bu narsa xodimlarning soni va shtat tizimini belgilashga yordam beradi, jihoz va ish vaqtidan unumli foydalanishda, xodimlarning moddiy qiziqishini oshirishga olib keladi.

Tijorat-texnologik operatsiyalarni bajarishga sarflanadigan

va etiketkalar; paketlar; qutilar va turli o'rash vositalari; xodimlarning kiyimlari.

U yoki bu firma elementidan foydalanish savdo do'konining turiga va uning maydonining hajmiga, do'konning joylashgan joyi va turli boshqa ko'rsatkichlarga bog'liq bo'ladi. Do'kon elementlari bilan firma stilining oqilona uyg'unligi orqali xaridorlarning esida yaxshi qoladigan ajoyib firma stilini yaratish mumkin.

Savdo zalini oqilona rejalashtirish faqatgina bu yerda amalga oshiriladigan savdo-texnologik jarayonlariga ta'sir qilib qolmasdan, samarali interyerni yaratish imkonini ham beradi. Samarali interyer deganda, savdo zalini bezash bilan birgalikda, do'kon ichki muhitini tashkillashtirish va barcha tashkiliy elementlar — ko'rgazmalar, yoritkichlar, savdo qurilmalarini to'g'ri joylashtirishni tushunish mumkin.

Shuning uchun savdo zali interyerining ijodiy sifatlari quyidagi masalalarning kompleks yechimi darajasi bilan aniqlanadi:

— binoda optimal proporsiyalarni qo'llash, qatorlar, zinalar, eskalatorlar, asosiy o'tishlar joylashishini e'tiborga olgan holda jihozlarni joylashtirish;

— vitrina va turli reklama vositalarini joylashtirish;

— pol, shift, devor va qatorlarning qismlari;

— binoda rang bilan bog'liq xususiyatlari;

— yoritkichlarni joylashtirish;

— savdo zali arxitekturasini hisobga olgan holda shiftlarga osiladigan e'lonlar, ustunlarga o'rnatiladigan narsalarni joylashtirish.

Savdo zali interyerini ishlab chiqishda tovarlarni namoyish qilish va savdo-sotiqni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan optimal shart-sharoitlar yaratishni hisobga olish maqsadga muvofiq.

Do'kon interyerini ijodiy tasvirlashda bezash vositalari asosiy vosita bo'lib hisoblanadi. Bu vositalar savdo-sotiq korxonasining o'ziga xos xususiyati, vazifasi, hajmi va arxitekturasini, ulardan foydalanish va estetik sifatlari asosida tanlanadi. Bezash materiallarini tanlashda hal qiluvchi ko'rsatkich ularning fizik ko'rsatkichlaridir. Binoni bezashda ishlatiladigan materiallar chiroyli,

11-bob. DO‘KON INTERYERI VA UNI REKLAMA AXBOROTLARI BILAN BEZASH

11.1. Do‘konning firma stili (uslub) va interyeri

Chakana savdo tashkilotini muvaffaqiyatli shakllantirish do‘konning firma stilini yaratishda yordam beradigan turli elementlardan foydalanish bilan ko‘p jihatdan bog‘liq.

Firma stili bezashning yagona prinsipini qo‘llash, ranglar uyg‘unligi, reklama obrazlari, ish qog‘ozlari, do‘kon va savdo zali e‘lonlarida bir xillikni qo‘llash orqali yaratiladi.

Firma stilining asosiy tashkil etuvchilari quyidagilardan iborat: savdo belgisi, firma ranglari, logotip, reklama shiori va reklama personaji.

Savdo belgilari so‘zli va tasviriy bo‘ladi. So‘zli savdo belgisi o‘zida tasviriy jihatdan ishlangan, original, esda qoladigan shriftlarda yozilgan firma yoki tashkilot nomini ifodalaydi. Tasviriy savdo belgisi — ro‘yxatdan o‘tgan ushbu firma yoki tashkilotga qarashli shartli belgi.

So‘zli yoki tasviriy savdo belgisini tuzish uchun ma‘lum bir ranglar tanlanadi. Do‘kon nomini alohida ko‘rsatish uchun logotipdan foydalaniladi.

Reklama shiori qisqa iboradan yoki firma (tashkilot) shioridan iborat bo‘ladi.

Firmaning reklama personaji sifatida reklama tadbirlari va turli boshqa tadbirlar jarayonida firma nomidan ishtirok etadigan ma‘lum personajni tanlash mumkin.

Firma stilini asosiy tashuvchilari bo‘lib quyidagilar xizmat qiladi: do‘konga kirish tepasidagi (yoki yonidagi) e‘lon; savdo zali binosining elementlari (devorlar, qatorlar, chegaralar); turli ko‘rinishlardagi vitrinalar; savdo jihozlari; do‘kon ichidagi ko‘rsatkichlar va e‘lonlar; narx ko‘rsatilgan qog‘ozlar, nakleykalar

vaqtni normalashtirmasdan do‘kon xodimlarining mehnatini ratsional tashkillashtirish mumkin emas. Do‘kon xodimlarining ish kuni — mehnati va tanaffusdan iborat. Ish vaqti tayyorlov-tugatuv, asosiy va yordamchi operatsiyalarni bajarishga sarflanadi.

Xodimlarning mehnatini normalashtirishda vaqt me‘yorlari, qayta-ishlash va xizmat ko‘rsatish hisobga olinadi.

Vaqt me‘yorlari deganda — ratsional tashkiliy-texnik sharoitlarda bir yoki bir necha xodimlarning ma‘lum hajmdagi mehnatini (ishini) amalga oshirish tushuniladi.

Qayta ishlash deganda — bir vaqtning o‘zida bir yoki bir guruh xodimlarning bajarilishi zarur bo‘lgan mehnat hajmi (narxlashtirilgan yoki tabiiy ko‘rsatkichlarda) tushuniladi.

Xizmat ko‘rsatish me‘yori deganda — ish kuni yoki ish vaqti mobaynida bir yoki bir guruh xodimlar tomonidan jihozlarning soni va do‘kon savdo maydoni hajmiga ko‘ra xizmat ko‘rsatish tushuniladi.

Mehnatning texnik-iqtisodiy normalashtirishda ish kunining fotografiyalari va xronometrajdan foydalaniladi.

Ish kunining fotografiyalari yordamida turli ishga va ish mobaynidagi tanaffusga xaqiqatan ketgan ish vaqtini aniqlashga, umumiy ish vaqtidagi sarflangan harajatlar kelib chiqadi.

Ish vaqtining xronometraji yakka va jamoat turlariga bo‘linadi. Kuzatishni ro‘yxatga olish uchun maxsus xarita ishlatiladi, u yerda xronometraj o‘tkazgan kuni, tashkilot va bo‘lim tuzimlar nomi, xodim familiyasi, uning mutaxassisligi, ish tajriba muddati va yoshi, kuzatuv davomiyligi hamda alohida operatsiyalarni bajarishga va tanaffusga sarflanadigan vaqti belgilanadi.

Xronometraj yo‘li bilan alohida va ko‘p qaytaraladigan operatsiyalarga sarflanadigan vaqt belgilanadi. Uning yordamida operatsiya va alohida elementlarning yuqori darajadagi usullar bilan bajaruvchi xodimlarni ajratib olish, shu kabi operatsiya va elementlarga optimal darajada sarflanadigan vaqtni o‘rganishga ko‘mak beradi.

Fotografiya hujjatlari, xronometraj va boshqa usullar ish vaqtida

do'kon xodimlar mehnatini tashkillashtirishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarning oldini olish va uning unumdorligini oshirish uchun qo'llaniladi.

Xaridorlarga sifatli xizmat ko'rsatish, do'kon xodimining yuqori saviyali, tajribali hamda ko'pni biladigan bo'lishi katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, do'kon xodimlarining mehnatini tashkillashtirishning yanada rivojlantirish yo'lidan biri — bu yuqori saviyadagi kadrlarni tayarlashdan iborat. Chakana savdo bilan shug'ullanuvchi korxona xodimlarining tajriba va malakasini oshirish, xaridorlarga xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish, savdoga sarflanadigan vaqtni kamaytirish muhimdir. Boshqa malakasi pastroq bo'lgan xodimga nisbatan malakali xodim ilg'or mehnat usullarini tezroq o'zlashtiradi, alohidagi operatsiyalarni bajarishga kamroq vaqt sarflaydi, ko'proq xaridorlarga xizmat ko'rsatishga ulguradi.

10.3. Do'konidagi ish tartibi va mehnat sharoiti

Xaridorlarga sifatli xizmat ko'rsatish ma'lum darajada chakana savdoni amalga oshiruvchi korxonaning ish tartibiga bog'liq. O'z o'rnida, do'konning ish tartibi xaridorlarning kelish oqimi, kun soatlari, hafta kunlari, mavsumga qarab tovar aylanmasini taqsimlashga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, savdo xodimlariga optimal darajada mehnat tartibi va xordiq chiqarish (dam olish) vaqtini ajratish, haftasiga besh kun ish kuni tayin qilish va ishga chiqishni inobatga olgan holda qulay jadval ishlab chiqiladi. Shu talablarga asosan ishlab chiqilgan ish tartibi mahaliy davlat idoralari bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Xodimlarning ishga chiqish tartibi ishlab chiqish do'konning ish tartibga, mehnat tartibga bog'liq. Ular ko'rsatilgan mehnat qonunchiligiga rioya qilinishiga asoslangan bo'lishi do'kon xodimlari kun va hafta davomida bir tekis (ravon) ishlash va dam olish vaqtning ketma-ketligini ta'minlaydi. Tayyorlov-tugatuv operatsiyalarga sarflanadigan vaqtni ham inobatga olish kerak. Jadval kunning turli soati va haftaning kunlariga qarab, xaridorlar

oqimining o'zgarishiga mos kelishi kerak.

Odatda, har oy do'kon xodimlarining ishga chiqish jadvali yillik ish vaqti fondidan kelib chiqqan xolda ishlab chiqilishi kerak, ma'muriyat tomonidan tasdiqlangan ishga chiqish jadvali do'kon xodimlariga ikki hafta oldindan xabardor qilinadi. Keyinchalik, xodimlarning oy boshlanishidan uch kun oldin xabardor qilinadi. Unda ish boshlanishi va tugashi, tushlik vaqtiga ajratiladigan tanaffus va xordiq chiqarish, dam olish kunlari ko'rsatiladi.

Tayanch iboralar

Tijorat-texnologik jarayon. Tovar zahiralari. Chakana savdo. Omillar. Taklif. Reklama. Taqsimlash. Xodimlar boshqaruvi. Tovar bo'limi. Buxgalteriya. Nazoratchi — kassirlar. Mehnat kooperatsiyasi. Vaqt me'yorlari. Qayta ishlash. Xronometraj. Ish tartibi. Mehnat sharoiti.

Nazorat savollari

1. *Tijorat-texnologik jarayon nima?*
2. *Tovar zahiralarini boshqarish deganda nimani tushunasiz?*
3. *Tovar zahirasiga ta'sir etuvchi omillar qanday?*
4. *Do'kon xodimlarining ishini tashkil etish qanday olib boriladi?*
5. *Mehnatni tashkillashtirida qanday omillarni xisobga olish kerak?*
6. *Do'konning ish tartibi nimaga bog'liq?*

12-bob. ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

«Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1996- yil 26- apreldagi qonunidagi asosiy tushunchalar haqida ba'zi ma'lumotlarni beramiz.

Ushbu qonunda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

— iste'molchi — foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan xolda shaxsiy iste'mol yoki xususiy xo'jalikda foydalanish maqsadida tovar sotib oluvchi, xizmatga buyurtma beruvchi yoki shu niyatda bo'lgan jismoniy shaxs;

— ishlab chiqaruvchi — iste'molchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxona, tashkilot, muassasa yoki xususiy tadbirkor;

— ijrochi — maishiy xizmat, uy — joy, ta'mirlash — qurilish, transport xizmati va xizmat ko'rsatishning boshqa sohalarida shartnoma bo'yicha iste'molchi uchun ishlar bajaradigan yoki xizmatlar kursatadigan korxona, tashkilot, muassasa yoki xususiy tadbirkor;

— sotuvchi — oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha iste'molchiga tovar realizatsiya qiladigan korxona, tashkilot, muassasa yoki xususiy tadbirkor;

— shartnoma — tovar olish-sotishni amalga oshirishda, ish bajarish va xizmat ko'rsatishda sifat, miqdor, muddat, narx va boshqa shartlar to'g'risida iste'molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi og'zaki yoki yozma kelishuv;

— tovar ishlab chiqaruvchi faoliyatining iste'molchiga shartnoma bo'yicha sotish uchun mo'ljallangan mahsuli;

— standart — davlat standarti, sanitariya me'yorlari va qoidalari, qurilish me'yorlari, qoidalar va boshqa hujjatlar,

Xaridorlar bilan muloqot zonalaridan uzoqda joylashgan va zarar etmaydigan devorlarni bezatishda dekorativ suvoq va bezakli bo'yashdan foydalaniladi. Devorlar uchun bezatish materiallari ularning badiiy-dekorativ xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlanadi.

Savdo zalining interyerini rejalashtirishda bitta yoki bir necha devorlarga e'tibor qaratish mumkin. Bunga bezakning ranglari va turi yordamida erishish mumkin. Bu holatda, zal arxitekturasining interyerini hisobga olgan holda, qayta ishlangan yog'och reykalari, gipsdan qo'yilgan relyefli plitalar, tabiiy tosh, g'isht, shtamplangan metall elementlardan foydalanish mumkin.

Savdo zalining eng muhim va eng ajralib turadigan arxitektura elementlaridan biri shift hisoblanadi. Shiftni bezatish uchun lak-bo'yoq materiallari, ganch yoki relefli plitalari kabi materiallardan foydalanish mumkin.

Ba'zida osma shiftlardan foydalanish juda qulay, chunki ular yordamida turli texnik vositalarni berkitgan holda, sun'iy yoritish va akustika vositalaridan foydalanishga imkon bo'ladi. Ular turlicha bo'lishi mumkin: yoritadigan, yarim yoritadigan, akustik. Ularni bezatish uchun ovozni yutadigan va perforatsiyalangan yog'och va gips plitalardan, perforatsiyalangan alyuminiydan, shisha va boshqa materiallardan foydalanish mumkin.

Interyerning alohida elementlarini tanlash va joylashtirish haqidagi qaror binoning umumiy arxitekturasini belgilagan qarordan farqli va unga zid bo'lmasligi kerak. Interyerni bezatishda ishlatiladigan materiallar o'zining rangi, tarkibi, va ko'rinishi jihatdan o'zaro uyg'un bo'lishi kerak. Bunda materiallarni konstruktiv mantiq asosida tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori darajadagi teploizolyasion materiallardan foydalaniladigan do'konlarni qurishda devorlar unchalik qalin bo'lmaydi (20 sm gacha) va oynalar devor bilan bir xil darajada tekis bo'ladi, bu narsa savdo zali interyerini engilroq ko'rsatadi.

Do'kon joylashgan joyning iqlim xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda, oynalar turlicha o'rnatilishi mumkin. Issiq iqlimli

rayonlarda oynalar chetiga maxsus quyosh nuridan himoya qiladigan elementlar, juda sovuq joylar uchun esa ikki qavatli oynalardan foydalaniladi.

Savdo zalining interyerini shakllantirishda ergonomika talablarini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu faqat binoning geometrik parametrlariga emas, balki u yerdagi mebellar va jihozlar uchun ham tegishlidir.

Savdo zalini yoritishga ham katta talablar qo'yiladi. Haqiqiy yoritilish darajasini bilish uchun maxsus yoritish koeffitsiyenti (K_{yo}) quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{yo} = \frac{S_{sh.m.}}{S_{s.z.p.}},$$

bunda, $S_{sh.m.}$ — shishali maydon yuzasi, $S_{s.z.p.}$ — savdo zali polining yuzi.

Ushbu ko'rsatkich 0,125 dan kichik bo'lmazligi lozim. Tabiiy yoritilish yaxshi, lekin kunning qisqaligi tufayli yoki do'konning noqulay joylashganligi tufayli ko'pincha, tabiiy yorug'likdan to'la foydalanishning iloji bo'lmaydi. Shuning uchun do'konlarning savdo zallarini yoritishda sun'iy yorug'likdan ko'p foydalaniladi. U bir xilda tarqaladigan, yetarlicha yorug' va yoqimli tarkibli bo'lishi kerak. Do'konlar savdo zalining sun'iy yoritilish xuddi boshqa binolar kabi turli elektr lampalaridan foydalanish orqali normallashtiriladi.

Do'kon interyerini belgilashda mahalliylik va shu joyning xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Savdo zalining ichki tuzilishi estetik va boshqa barcha talablarga javob berishi kerak. Savdo zalining asosiy qismlarini tashkil qilishda, alohida funksiyalarni bajaruvchi hududlarini qurishda ergonomik omillarga e'tibor berish kerak bo'ladi.

Savdo zalida tovarning borligi haqida, tovar guruhlarining qaysi bo'limlarda joylashganligi va bu bo'limlar uchun maxsus ko'rsatkichlar, dam olish joylari, topilmalar stoli va shu kabilar haqida ma'lumotlar joylashtirilgan bo'lishi kerak.

Savdoga qo'yilgan tovarlarga narx yorliqlari aniq va to'g'ri yopishtirilgan bo'lishi kerak. Narx yorliqlari qog'oz, karton yoki plastmassadan tayyorlanadi. Qog'ozdan tayyorlangan narx yorliqlarida tovarning nomi, navi, og'irligi, o'lchami va narxi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Agar tovarning nomi, og'irligi va navi tovarning upakovkasida ko'rsatilgan bo'lsa, narx yorlig'ida narxi ko'rsatilishi kifoya qiladi. Eng qulay narx yorliqlari sifatida xaridorlarga tovarning asosiy xususiyatlari, foydalanish tartibi haqida ma'lumot beradigan yirik formatlilari hisoblanadi. Narx yorliqlarini tovar joylashgan polkadagi, vitrinadagi maxsus joylarga o'rnatiladi. Ba'zi javonlarda esa narx yorliqlarini joylashtirish uchun maxsus tutqichlardan foydalaniladi.

Tayanch iboralar

Firma stili (uslub). Interyer. Savdo belgisi. Logotip. Reklama shiori. Savdo zali. Vitrina. Statik va dinamik vitrinalar.

Nazorat savollari

1. *Firma stili nima?*
2. *Interyer deb nimaga aytiladi?*
3. *Interyerning kompleks yechimi nima?*
4. *Maxsus yoritish koeffitsiyenti qanday hisoblanadi?*
5. *Tovar vitrinalarining qanday turlari mavjud?*

Vitrinalarni bezashda kerakli ranglarni tanlay bilish kerak. Ranglarni tanlash reklama qilinayotgan tovarga, yilning qaysi fasli ekanligiga bog'liq holda o'zgartirilib turilishi kerak.

Vitrinalarni yoritishda yaltiroq, cho'g'lanma va oynali chiroqlardan foydalaniladi. Ushbu chiroq turlarini yakka holda yoki aralash holda qo'llash mumkin.

Vitrinalarni bezashda oldindan tayyorlangan eskizlardan foydalaniladi. Vitrinalarning bezaklarini ma'lum vaqt oralig'larida o'zgartirib turish kerak. Bu vaqt oralig'i esa vitrinaning vazifasiga, turiga, unda reklama qilinayotgan tovarlarga bog'liq. Masalan, do'kon ichida joylashgan vitrinalar tez-tez almash-tirilib turiladi.

Tovar vitrinalarini doimo nazorat ostida ushlab turib kerak. Vitrina oynalari doimo toza va yarqirab turishi kerak. Unga qo'yilgan tovarlarni bo'lsa, eskirib ketishdan saqlash kerak.

Savdo-texnologik qurilmalar yaqiniga tovarlarni chiroyli qilib terib qo'yish ham xaridorlar e'tiborini jalb qilib, tovarlar sotilishini tezlashtiradi. Masalan, ba'zi do'konlarda tovarlar sotuv taxtalarining ost qismlariga, devorlarga chiroyli qilib terib qo'yiladi. Shu bilan birga ushbu tovarlarga narx yorliqlari ham yopishtirilgan bo'ladi. Ba'zi katta do'konlarda tovarlar savdo zali bo'ylab maxsus ochiq javonlarga terib qo'yiladi va xaridorlar o'zlariga kerakli tovarlarni tanlab, maxsus aravachalarga soladilar va kassa oldida o'tirgan do'kon xodimiga tovarlarning narx yorliqlarida ko'rsatilgan narxlari bo'yicha pulini to'laydilar. Bu holatda javonlarga joylashtirilgan tovarlar o'zlarini o'zlari «sotadilar». Ya'ni butun savdo zali ko'rgazma vazifasini bajaradi.

Do'konlarda ishlatiladigan reklama vositalari do'kon ichidagi axborot beruvchi vositalar bilan mos tushishi kerak. Do'kon ichidagi axborotlarga ko'rsatkichlar, narx yorliqlari, e'lonlar, ma'lumot taxtachalari kiradi. Axborot vositalarini shunday joylashtirish kerakki, xaridor do'kon ichiga kirishi bilan unga ko'zi tushishi va o'ziga kerakli tovarlar joylashgan bo'limlarni osonlik bilan topishiga yordam berishi kerak. Tovarlarni guruhlar nomlari yozilgan ko'rsatkichlar xaridorlar oqimi harakatiga perpendikulyar tarzda joylashtirilishi kerak.

11.2. Do'konni reklama-axborotlari bilan bezash

Savdo jarayonida turli xil reklama va axborot vositalaridan foydalaniladi. O'z navbatida, ushbu vositalarning asosiy qismi yordamida do'konga reklama bezaklari beriladi. Bu kabi vositalar orqali xaridorlarga ma'lum bir reklama axborotlari etkaziladi.

Do'konni reklama-axborotlari bilan bezash oldindan rejalashtirilgan loyiha asosida amalga oshiriladi. Bunday loyihani ishlab chiqishda savdo binosining joylashishi, qurilish xususiyatlari, savdo zalining texnologik joylashishi, savdo-texnologik jarayonining qay tarzda tashkil qilinganligi kabilar o'rganilishi kerak bo'ladi.

Do'konni reklama-axborotlari bilan bezash, uning an'anaviy reklama bezaklaridan foydalanish uslubiga mos kelishi kerak.

Savdo tashkilotining tashqi axboroti asosan osma jiltdan iborat bo'ladi. Osma jiltda savdo tashkiloti turiga mos holda do'kon nomi, firma belgisi va do'konning kunlik ish vaqti ko'rsatiladi. Jild tayyorlashda metall va oq polistiroldan tayyorlangan maxsus qutidan foydalaniladi. Viveska do'kon binosining old sahniga joylashtiriladi.

Jild tayyorlash, uning shakli reglamentlangan bo'lib, ro'yxatdan o'tkaziladi va ijara haqi to'lanadi.

Jildlardan tashqari do'kon yaqiniga, bekatlarga va odamlar ko'p to'planadigan boshqa joylarga o'rnatiladigan maxsus ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ular yordamida do'konning adresi va yo'nalishi ko'rsatiladi.

Do'konga kirish joyida do'konning kunlik ish vaqti bilan birga asosiy tovar guruhlar ham ko'rsatilishi kerak. Bu esa xaridorning o'ziga kerakli bo'lgan tovarini hech qanday qiyinchiliksiz topishiga yordam beradi.

Hozirgi vaqtlarda do'konda reklama-axborotini berishda piktogrammalardan keng foydalaniladi. Piktogrammalarda muayyan turdagi oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarining barchaga tushunarli bo'ladigan uslubdagi ko'rinishi, ramzi aks ettiriladi. Piktogrammalar yordamida xaridorlar o'zlariga kerakli bo'lgan tovarlar guruhini osonlik bilan topishlari mumkin bo'ladi.

Savdo zalini bezashda oshiqcha ko'p elementlardan foydalanish ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Chunki ko'p hollarda xaridorlarga bu unchalik ham yoqavermaydi (ayniqsa, kichik do'konlarda). Savdo zalini bezashda turli xil ranglar kombinasionalaridan foydalanish ham yaxshi emas, chunki bu narsa xaridorda toliqish tuyg'usini hosil qilishi mumkin. Ranglarni tanlashda ularning xususiyatlarini, o'zaro uyg'unligini, tovarlarning ishlatilishiga mos tushish-tushmasligini va xaridorga ta'sirini hisobga olish kerak. Bu holatlarda ranglar jilosi va ranglar mosligi katta ahamiyatga ega. Masalan, ko'k rang oq rangda, qora rang sariq rangda, yashil rang oq rangda, qora rang oq rangda chiroyli ko'rinsa, qizil rang yashil rangda umuman yaxshi «o'tirmaydi».

Do'konni reklama-axborotlari bilan bezashda qo'llanilgan barcha vositalarning o'zaro uyg'unligi ta'minlanishi kerak, ya'ni barcha foydalanilgan vositalar bir-birlariga mos tushishi kerak. Ushbu vositalar do'konda mavjud bo'lgan savdo asbob-uskunalariga ham mos tushishi kerak.

Do'konlar xaridorlarda ijobiy taassurot qoldirishi uchun vitrinalardan unumli va professional darajada foydalana olishlari kerak. Vitrinalar xaridorlarga do'konda mavjud bo'lgan tovar assortimenti va turlari haqida axborot berish vazifasini bajaradi. Vitrina tovarlarni reklama qilish vositasi hisoblanadi va tovarlar sotiladigan joyda joylashtiriladi. Vitrinaga qo'yilgan tovarni ko'rgan xaridorda ushbu tovarni sotib olishga xohish paydo bo'lishi mumkin. Boshqa jihatdan vitrinani qiziqish bilan kuzatayotgan xaridorlar guruhi do'konga endigina kirib kelgan xaridorga ta'sir qilishi ko'p kuzatilgan. Vitrinaga qo'yilgan tovar yana boshqa bir reklama vositasida (masalan, gazeta yoki televideniyeda) reklama qilingan bo'lsa, do'konning tovar aylanmasi bir necha marotaba oshishi mumkin.

Vitrinalar yordamida yangi tovarlar reklama qilinadi, do'kon tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmat turlari, progressiv savdo uslublari haqida ma'lumot beriladi.

Vitrinalar bezatilish jihatidan tovar (bezaksiz), bezakli tovar, syujetli vitrinalariga bo'linadi. Tovar vitrinalarida hech qanday

dekorativ bezaklardan foydalanilmaydi. Bezakli tovar vitrinalarida tovarlar dekorativ bezaklar bilan bezatilgan bo'ladi, turli xil bezaklar, masalan, maketlar, gullar va boshqalardan foydalaniladi. Syujetli vitrinalarda turli xil ertak va shunga o'xshash syujetlardan foydalaniladi.

Tovar vitrinalarining quyidagi turlari mavjud:

- Tor ixtisoslashgan (faqatgina bir tovarni reklama qiladi);
- Ixtisoslashgan (faqatgina bir turdagi tovar guruhini reklama qiladi);
- Qo'shma (bir necha turdagi tovar guruhlarini reklama qiladi);

Tovar vitrinalarini texnik qurilmalari bo'yicha statik va dinamik vitrinalarga ajratish mumkin.

Statik vitrinalarda harakatlantirilmaydigan qurilmalardan foydalaniladi. Dinamik vitrinalardan tovarlar harakatda ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Vitrinalarda ovoz uskunalaridan va chiroq effektlaridan foydalanish mumkin. Tez buziladigan tovarlarni reklama qilish uchun sovitiladigan vitrinalari qo'llaniladi.

Tovar vitrinalarini bezash ma'lum bir shartlar asosida amalga oshiriladi. Bunday vitrinalarga qo'yiladigan asosiy shart tovarlarning haqiqiy nusxalaridan foydalanishdir. Vitrinalarda faqatgina sotuvda mavjud bo'lgan tovarlarga reklama qilinishi kerak. Asosiy e'tibor xaridorlarga tanish bo'lmagan yangi tovarlarga qaratilishi kerak.

Vitrinani turli xil tovar, dekorativ elementlar bilan to'ldirib tashlash ham ijobiy natija bermaydi. Chunki bu narsa xaridorlarga o'zlariga kerakli tovarni topishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Vitrinadagi barcha tovarlarga narx — navo yorliqlari yopishtirilishi kerak.

Tovarlarini vitrinaga joylashtirishda tenglik, barqarorlik va ritm prinsplariga e'tibor berish kerak.

Tenglik — vitrinaga bir xil o'lchamdagi tovarlarni simmetrik yoki aksincha joylashtirishdir. Vitrina barqarorligini ta'minlash uchun vitrinaga yirikroq tovarlarni joylashtirish kerak. Vitrina ritmi deganda bir xil bezaklarning ketma-ket yoki ma'lum bir qonuniyat asosida joylashtirish tushuniladi.

Agar sotuvda xaridorga kerakli mol yo'q bo'lsa, mol kelishini poylashi yoki pulni qaytarib olishi mumkin. Sotuvchi mol kutayotgan xaridorga molning kelganligi haqida xabar beradi.

Molni almashtirish yoki qaytarib olish uchun, u ilgari yaxshi saqlangan, ko'rinishi buzilmagan, plomba, yorliklari but bo'lishi, shuningdek, mol xuddi shu yerdan olinganligini isbotlovchi dalillar bo'lishi kerak.

Tegishli sifatga ega bo'lgan ba'zi mollarni almashtirish yoki qaytarib olishiga ruxsat berilmaydi. Bunday mollar ro'yxati O'zbekiston hukumati tomonidan tasdiqlangan.

Xaridorga sifati talabga javob bera olmaydigan mol sotilsa, uning nuqsoni sotuvchi tomonidan aytilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuniga asosan hal qilinadi.

Xaridor molni sotib olishdan aynishi, to'langan pulni qaytarib berishni talab qilishi mumkin. Sifatsiz mol qaytarib olinadi va sotuvchi buning uchun mas'ul bo'ladi. Mol ishlatilgan bo'lib, ko'rinishini yo'qotgan bo'lsa, narxi tushiriladi va oradagi farq sotuvchi tomonidan qoplanadi.

Sotish oldidan mollarni savdoga tayyorlash tartibi:

- oziq-ovqat mahsulotlari;
- to'qimachilik, trikotaj, kiyim, mo'yna va poyafzallar;
- Uy-ro'zg'orga mo'ljallangan murakkab texnik mollar;
- Pardoziy-andoz mollari;
- Avtomobil, mototexnika, prisep va nomer qo'yilgan agregatlar;
- Qimmatbaho metal va qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlar;
- Dori-dorimonlar, tibbiyotga xos buyumlar;
- Fauna va flora;
- Uy-ro'zg'or uchun kimyo mollari;
- Xashoratlarga qarshi agroximikatlari;
- Videoga olingan filmlar nusxalari;
- Qurollar va ular uchun o'q-dori.

Yuqorida aytilgan qoidalarining bajarilishini nazorat qilish ijroiya hokimiyat va hududiy organlar tomonidan amalga oshiriladi.

ular qonun talabiga binoan, tovarlar sifatiga zarur talablarni qo'yadi.

Tovar, ish, xizmatning xavfsizligi — hayotga, sog'liqqa, tovarlarga va xizmatlarga zarar etkazmasligi kerak. Odamdagi sharoitda iste'molchi sotib olgan tovardan foydalanish, saqlash, tashish va xizmat ko'rsatish davrida shikast etmasligi kerak.

O'zbekiston Fuqarolik kodeksiga va yuqorida aytilgan qonunga asosan, sotuvchi xaridorga tovarning sifati shartnomaga muvofiq keladigan darajada topshirishga majbur.

12.1. Savdoda davlat nazorati

Davlat tomonidan savdoda nazorat o'rnatish respublika taraqqiyotining besh tamoyilidan birining amalga oshirilishidir. O'zbekistonda mulkning turli shakllari paydo bo'ldi va ularni boshqarish, rivojlantirish, ular ustidan nazorat qilish jamiyatning bosh islohotchisi — davlat zimmasiga yuklatiladi.

Savdo sohasida davlat nazoratini o'rnatishdan maqsad respublikada iste'molchilar huquqini himoya qilish bilan birga, mol sotuv aylanishidan davlat xazinasiga kelib tushadigan pul mablag'larini ko'paytirishdir.

Savdo sohasida amalda qo'llanilayotgan qonun va qoidalar tug'ri bajarilayapdimi, agar basharti, qonunbuzarliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, tegishli tekshiruvchi organlar asosli choratadbirlar ko'ryaptimi, davlat ana shularni nazorat qiladi.

«Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» 1996- yil 26- aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonuniga binoan, davlat iste'molchilarning mol sotib olish va undan foydalanish paytidagi huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining himoya qilinishi kafolatlanadi.

Iste'molchilarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyati va boshqaruvchi organlar, shuningdek, sudlar ta'minlaydilar.

Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organlari quyidagilar: tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishini va ularning sifatini ta'minlash maqsadida

«O‘zstandart» agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hamda tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo‘lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi boshqa davlat boshqaruv organlari o‘z vakolatlari doirasida tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo‘lishiga va ularning sifatiga doir majburiy talablarni belgilaydilar hamda bu talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo‘lishiga va ularning sifatiga doir talablar buzilishini bartaraf etish, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, chiqarish va realizatsiya qilishni to‘xtatish (ishlar bajarilishini, xizmatlar ko‘rsatilishini to‘xtatish), ularni iste‘molchilardan qaytarib olish to‘g‘risida ishlab chiqaruvchilarga (ijrochilarga, sotuvchilarga) ko‘rsatmalar yo‘llaydilar, shuningdek bu haqida iste‘molchilarni xabardor qiladilar.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)lar tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo‘lishi va ularning sifatiga doir talablarni buzganlari taqdirda ularning ustidan sudlarda da‘vo qo‘zg‘atadilar. Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo‘lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi hukumati muvofiqlashtirib boradi.

Respublikada belgilangan savdo qoidalari, narx-navoning tovarlarga to‘g‘ri qo‘yilishi, shuningdek, tovarning sifati va iste‘mol uchun xavfsizligi ustidan nazorat olib boriladi. Savdoda suiste‘mol qilishga yo‘l qo‘ymaslik, iste‘mol bozoriga sifatsiz mollarning kirib kelishga yo‘l qo‘ymaslik ularning vazifasiga kiradi. Prezident I.Karimovning 2002- yilning birinchi yarim yilligida O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish yuzasidan ustuvor vazifalar va topshiriqlarning bajarilishi hamda dolzarb muammolarning hal etilishi to‘g‘risida 18- iyulda qilgan ma‘ruzasida chakana savdo tarmoqlariga chiqarilayotgan, ayniqsa, xorijdan kirib kelayotgan sifatsiz tovarlar haqida batafsil aytiladi. Davlat nazoratini kuchaytirish, respublika bozorini sifatli tovarlar bilan to‘ldirish vazifalari haqida so‘z boradi. O‘zbekistonda mulk shakli qanday bo‘lishidan, kimga qarashliligidan qat’iy nazar, hamma savdo

ko‘rishi mumkin. Agar qonunda yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa yoki shartnoma shartlarida belgilangan bo‘lsa, sotuvchi molning sifatini, uning xavfsizligini tekshiradi, tahlil, ekspertiza qiladi. Hamma sotiladigan mollar bir xilda aniq yozilgan narh kog‘oziga ega bo‘lishi shart. Unda molning nomi, xili, narxi, moddiy mas’uliyatli shaxsning imzosi, muhri, narxnomada rasmiylashtirilgan sana bitilgan bo‘lishi lozim.

Xaridorlar bilan qilingan hisob-kitoblar nazorat-kassa mashinasi orqali amalga oshiriladi.

Chakana oldi-sotdi shartnomasi molga pul to‘langanligi haqidagi chekni olib, sotuvchi molni xaridorga bergan paytdan boshlab amalga oshirilgan hisoblanadi. Sotuvchining savdo xizmati, taklifi xaridor o‘zi rozi bo‘lib yordam so‘ragandagina bajarilishi mumkin. Xaridor ko‘rsatiladigan xizmatdan voz kechishi, agar pul to‘lab qo‘yilgan bo‘lsa, uni qaytarib olishga haqli.

Bir xil mol sotib olgan xaridorga sotuvchi ikkinchisini ham tiqshitirish mumkin emas, shuningdek, xizmat ko‘rsatishni ham majburan bajaraman, deyishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Murakkab texnik xususiyatga ega mollarni yig‘ish yoki o‘rnatib ishlatish mol sotib olgan xaridorning qo‘lidan kelmasligi mumkin, bunday hollarda albatta do‘konning xizmati tavsiya etiladi. Yirik, murakkab mollarni sotuvchi xaridorning mashinasiga yuklashda bepul xizmat ko‘rsatishi kerak.

Sotuvchi xaridorga molni tegishli sifatda, o‘ralgan, qadoqlangan, but holda, qo‘shimcha qismlari va tegishli hujjatlari bilan topshirishi shart.

Agar molning yaroqlilik muddati belgilangan bo‘lsa, sotuvchi bu haqda xaridorni ogohlantirishi kerak.

Mol sotilgan bo‘lsa-yu, vaqtincha sotuvchi oldida qoldirilgan bo‘lsa, uni boshqa xaridorga sotib yuborish mumkin emas. Xaridor sotib olgan nooziq-ovqat mollarni o‘lchami, shakli, fasoni, rangi o‘xshashlariga almashtirib olishi mumkin. Buning muddati, agar sotuvchi tomonidan boshka muhlat belgilanmagan bo‘lsa, 14 kun. Almashtiriladigan mollarning narxlar orasida farq bo‘lsa, qaytadan hisob-kitob qilinadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari guvohnomasi haqida ahborot. Yuqorida aytilganlar, reklamalar matn ko'rinishida markirovka, upakovka, etiketka, yorliq va boshqalarda yoziladi hamda sotiladigan mol o'ramiga yopishtiriladi.

Axborot mol ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi tomonidan belgilangan quyidagi ma'lumotlarni o'zida ifoda etishi shart:

- molning nomi;
- mol ishlab chiqaruvchining nomi;
- mol ishlab chiqaruvchi firmaning nomi;
- zararsiz saqlash, tashish, foydalanish, ta'mirlash, tiklash, chiqindiga topshirish;
- asosiy iste'mol ehtiyoji yoki tavsifi;
- shart bo'lgan guvohnoma haqida ahborot;
- mol tayyorlovchining yoki sotuvchining manzili.

Molning hili va texnik murakkabligiga qarab ahborot o'z ichiga quyidagilarni olishi mumkin:

- netto og'irligi, o'lchami, hajmi yoki miqdori;
- tarkibi, butligi;
- mol ishlab chiqaruvchining tovar belgisi va markasi;
- tayyorlangan sanasi;
- yaroqlilik yoki xizmat qilish muddati;
- mol tayyorlanishiga asos bo'ladigan me'yoriy yoki texnik hujjat;
- ixtiyoriy guvohnoma haqida ahborot;
- molning davlat standart belgilariga mos kelishi haqida axborot;
- molning chizgi (shtrix-kod) belgilari.

Mollar haqida ma'lumotlarni yana boshqa ahborotlar bilan ham to'ldirish mumkin. Uning havfsizligi, tejamliligi, energiyani kam sarflashi misol bo'la oladi, ammo bu tegishli manfaatdor organlar tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Xaridor sotilayotgan mol bilan o'zi mustaqil yoki sotuvchi yordamida tanishishi mumkin. U molni tekshirib ko'rish huquqiga ega.

Agar bunday harakat chakana savdo qoidalariga zid bo'lmasa, uning ishtirokida mol xususiyatlarini tekshirish, sinash, ishlatib

korxonalari, muassasalar, tashkilotlar nazorat obyektlari hisoblanadi.

12.2. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish uchun mahalliy hokimiyat organlari

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish uchun mahalliy hokimiyat organlari quyidagilarni amalga oshiradilar:

1. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari bajarilishini tashkil etadilar.

2. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish vakolati berilgan davlat organlari va iste'molchilarning jamoat birlashmalari o'zaro hamkorlik qiladilar.

3. Iste'molchilarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini ko'rib chiqadilar.

4. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilib, sudlarga murojaat etadilar.

5. O'z huquqlari doirasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

Monopoliyaga qarshi faoliyatni amalga oshiruvchi organ va uning mahalliy organlari iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida:

— iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi hujjatlarga rioya etish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradilar;

— iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining qo'llanish masalalari yuzasidan rasmiy tushintirishlar beradilar;

— iste'molchilarning huquqlarini buzayotgan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ishlab chiqaruvchilarga ko'rsatmalar yo'llaydilar;

— iste'molchilarning huquqlarini himoya qilib, sudga murojaat etishga haqlidir;

— qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

«Davlat nazorati haqida»gi qonunda bu vazifalar batafsil bayon etilgan.

Tovardan foydalanish, yaroqlilik, kafolat muddatlari haqidagi suhbatni davom ettiramiz.

Bu moddalar iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, savdoda davlat nazoratini muntazam amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Tovardan foydalanish muddati. Mol uzoq muddat xizmat qilishga mo'ljallangan bo'lsa, tayyorlovchi undan foydalanish muddatini belgilash huquqiga ega. Bu davrida iste'molchi foydalanayotgan mol to'la talabga javob berishi kerak. Agarda mol barvaqt ishdan chiqsa va boshqa nuqsonlari ayon bo'lsa, tayyorlovchi zimmasiga ma'suliyat yuklanadi. Ba'zi hollarda sotib olingan molning xizmat muddati albatta mol ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilanadi. Muddat molning xususiyatiga qarab soat, oy, yil va hatto o'tish masofasi bilan tayinlanadi.

Yaroqlilik muddati belgilangan davr o'tgandan keyin mol yaroqsiz hisoblanadi. Oziq-ovqat va pardoziy mahsulotlariga, dorivorlar, ro'zg'orda ishlatiladigan kimyoviy mollarga yaroqlilik muddati belgilanadi. Mol ishlab chiqaruvchi yaroqlilik muddatini aniqlab beradi.

Belgilangan muddati o'tib ketgan mollarni sotish taqiqlanadi, shuningdek, muddat belgilanishi lozim bo'lgan, ammo yaroqlilik muddati aytilgan mollarni ham sotish taqiqlanadi.

Mol ishlab chiqaruvchi kafolat muddatini belgilashga haqli. Agar belgilangan muddat ichida mol sotib olgan xaridor uning kamchiligini aniqlasa, ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi xaridorning talabini qondirishi, molni sifatli almashtirib berishi shart.

Agar mol ishlab chiqaruvchi kafolat muddatini qo'ymagan bo'lsa, sotuvchi bu ishni bajarishi kerak. Ishlab chiqaruvchi muddat belgilangan taqdirda ham, sotuvchi kafolat muddatini cho'zish huquqiga ega. Mol ishlab chiqaruvchi haqida quyidagi axborot bo'lishi lozim:

1. Firma nomi;
 2. Manzili;
 3. Ish kuni tartibi;
 4. Litsenziya nomeri va muddati, kim tomonidan berilganligi.
- Mollar haqidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Mollarda talablarga mos keladigan standart belgilarining bo'lishi;

2. Molning iste'mol xususiyatlariga bo'lgan asosiy talablar haqida ma'lumot;

3. Tovar bahosi va olish tartiblari;

4. Agar belgilangan bo'lsa, kafolat muddati;

5. Moldan havfsiz foydalanish qoidalar va shartlari;

6. Mollarning xizmati va yaroqlilik muddatlari;

7. Manzili, mol ishlab chiqaruvchi firma, sotuvchining nomi, shuningdek, haridorlarning norozilik shikoyatlarini qabul qiladigan mol beruvchi vakil tashkilotning manzili;

8. Mollarni sotish qoidalar haqida axborot.

Sotib olinayotgan mol ilgari foydalanilgan bo'lsa yoki biron nuqsoni bo'lib u tuzatilgan bo'lsa, iste'molchiga bu haqda albatta axborot berish kerak.

Agar shartnoma tuzilganda iste'molchiga mol haqida axborot berilmagan bo'lsa, u yetkazilgan zararni sotuvchidan talab qilishga haqli. Shartnoma tuzilgan bo'lsa, iste'molchi uni bekor qilishi va to'langan pulni, yetkazilgan zarar miqdorini qaytarib olishi shart. Shartnoma bekor qilingan taqdirda iste'molchi tomonidan mol sotuvchiga qaytariladi.

Ayrim turdagi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mollarni sotishda xaridorlar va sotuvchilar o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasi «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlariga beriladigan axborotlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- mahsulotning nomi;
- mahsulot ishlab chiqaruvchining manzili;
- mol ishlab chiqaruvchining tovar belgisi;
- netto og'irligi, mahsulot hajmi, miqdori;
- mahsulot tarkibi;
- mahsulotning xususiyatini hisobga olib belgilangan bahosi;
- saqlanish sharoiti;
- yaroqlilik muddati;
- saqlanish muddati;
- sotilish muddati.

12.7. Do'konlarni rejalashtirish

Do'konlarni ichki ko'rinishini rejalashtirishda quyidagilarga katta e'tibor berilishi lozimdir:

- savdo zali;
- buyurtmalar qabul qilish bo'limi;
- kafeteriy;
- oziq-ovqat mahsuloti xonalari;
- sovutkich kameralari;
- oziq-ovqatlar saqlanadigan xonalar;
- idishlar saqlanadigan joy;
- ma'muriy-maishiy xonalar;
- yuk tushiradigan zal;
- texnika binolari;
- aholidan idishlar qabul qilish joyi.

Do'konni did bilan rejalashtirganda boshqa bo'sh joylar hisobiga savdo qilinadigan maydonlarni kengaytirish kerak.

Do'kon ichini rejalashtiriganida quyidagi asosiy talablarga rioya qilish lozim:

- yuk tushiriladigan joy mol qabul qilib olinadigan joyga tutash bo'lishi maqsadga muvofiq;
- mol qabul qilib olinadigan joy mollarni saqlaydigan joyga va zallarga yaqin joylashgan bo'lishi kerak;
- mollarni saqlaydigan va savdoga tayyorlash xonalari savdo zallari bilan bir qavatda joylashishi kerak;
- ma'muriy-maishiy xonalar shunday joylashishi lozimki, savdo yoki nosavdo zallari, boshqa xizmat xonalarini bir-biriga bog'lab turadigan bo'lsin;
- savdo zali do'konning ichki qismida maxsus jihozlangan xaridorlarga xizmat qiladigan asosiy qism hisoblanadi;
- tuzilishi bo'yicha savdo zali binoning ichida bo'lib, narsalarning bir-biriga mos joylashish, kirish-chiqish eshik derazalari umumiy ko'rinishga yarashib turishi kerak;
- savdo zalini rejaga solish uning butun maydonnini zonalariga bo'lish va ular ichiga savdo anjomlarini o'rnatishdan iborat.

Savdo zali tuzilishi va rejalashtirilishiga qator talablar qo'yiladi, ya'ni:

Ixtisoslashtirilgan va muxtasarlashgan dukonlar: oziq-ovqat do'konlari; non, qandolat, sabzavot, mevalar, go'sht, baliq, parhezli mahsulotlar, ma'danli suvlar sotadigan do'konlar va h.k. Nooziq-ovqat do'konlari: kiyim-kechaklar, poyafzal, xhjalik mollari, mebel, madaniy mollar, elektr mollari, gazlama, o'yinchoklar, bolalar uchun do'konlar, ayollar uchun do'konlar, erkaklar uchun, hammasi uy ro'zg'or uchun, sport va turizm uchun do'konlar va h.k.

Bundan tashqari «Tabiat», «Urug'liklar», «Zoodo'kon», «Kitoblar» va h.k.lar kabi do'konlar ham bo'ladi. Qishloq joylarida «Kundalik ehtiyoj mollari do'koni» nomi bilan savdo tarmoqlari kengaymoqda. Xaridorlar, iste'molchilar bu yerda o'zlarining kundalik talab-ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Bu do'konlarning savdo maydonlari 100 m² dan kam bo'lmasligi kerak. Savdo tashkilotlarining tiplari mamlakatning iqtisodiy, ilmiy-texnik, ijtimoiy va boshqa omillari asosida doimo o'zgarib va takomillashib turadi.

Chet ellarda va Rossiyaning yirik shaharlarida maydoni 5000 m² dan kam bo'lmagan gipermarketlar keng tarqalgan. Bu yerda minglab nomdagi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mollari jamlangan bo'ladi. Mollarning yuqori darajada aylanishi bu erdagi narx-navoning arzonlashuviga olib keladi.

Chet ellarda diskaunt-do'konlari ham bo'lib, bu yerda arzonlashtirilgan mollar sotiladi. Bizning O'zbekistonda ham narxi arzonlashtirilgan mollar do'konlari bor, ammo mollar oylab, yillab, ya'ni uzoq vaqtlar davomida arzonlashtiriladi. Chet el do'konlarida oy, hafta, hatto bir kunda ham narxi arzonlashtirilib, sotib yuboriladi. Bizda ham bu tartib qo'llanilsa, mollar oylab-yillab omborxonalarda yotmasdan, ishlab chiqarish mufassal ishlab turadi.

Chet ellarda boshqa harajatlarni kamaytirish hisobiga mollarning narxi uzluksiz arzonlashtirib boriladi. Mollar bitta markazdan to'g'ridan to'g'ri tarqatiladi, vositachilar bo'lmaydi, sotiladigan mollar tez aylanadi, o'z-o'ziga xizmat yaxshi yo'lga qo'yilgan, xizmat qiluvchi xodimlarning soniga emas, balki sifatiga e'tibor beriladi. Toshkent shaxrining «Besh yog'och» do'koni

diskaunt nomi bilan yurtilmasa ham oziq-ovqat mahsulotlari shahardagi boshqa do'konlarga qaraganda arzonroq narxda sotiladi. Shuning uchun bu do'kon doimo xaridorlar bilan gavjum.

12.3. Chakana savdo tashkilotlarini joylashtirish

Chakana savdo tashkilotlari imkoniyat boricha aholiga yaqin joylarga joylashtirilishi zarur. Uni joylashtirishda aholi yashaydigan qishloqlarning va ularda yashaydigan aholining talabini, xususiyatini hisobga olish kerak. Shaharlarda esa chakana savdo tashkilotlarini joylashtirish aholiga bir me'yorda sifatli xizmat ko'rsatishni talab qiladi.

Bir maromda xizmat qilish tamoyili bir tipdagi savdo sohasiga tegishli. Bunda birinchi navbatda, talab katta bo'lgan mollarni sotuvchi, xaridorlarga doimiy xizmat qiluvchi do'konlar kiradi. Aholining zichligini hisobga olgan holda shahar hududiga barobar me'yorda do'konlarni joylashtirish lozim.

Guruhlar bo'yicha joylashtirish tamoyili turli chakana savdo tarmoqlarining hududlar bo'yicha yaqin joylashtirilishi, hamda kerakli mollarni birdaniga xarid qilish imkoniyatini berishi lozim. Masalan: non mahsulotlari, meva-sabzavot, sut mahsulotlari, go'sht, baliq va hokazo.

Chakana savdo do'konlari savdo markaziga qarashli mahalliy va umumshahar ahamiyatiga ega bo'lgan avtomagistral yo'llari yoqalarida bo'lishi mumkin.

Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan yoki «qulay do'konlar» shahar zonasining aholi yashaydigan, piyodalar ko'proq yuradigan mikrorayon, uy-joy komplekslarida joylashgan bo'ladi. Bunday do'konlarda oziq-ovqat yoki nooziq-ovqat mollarning yaxlit assortimentlari bo'lishi kerak. Umumshahar ahamiyatiga ega bo'lgan do'konlar butun shahar aholisiga xizmat kiladi. Shuning uchun ular tizimiga universal, ixtisoslashgan va muxtasarlashgan do'konlar kiradi. Bunday do'konlarda xaridorlarga mollarning eng yuqori darajadagi, keng assortimentini tavsiya qilish va qo'shimcha xizmat ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

- mollar saqlanadigan xonalar, sovitqich kameralari;
- mollarni sotishga tayyorlash xonolari;
- buyurtmalarni tayyorlaydigan, o'raydigan, qadoqlaydigan kompleks bo'limlari;

- kafeteriyning yordamchi xonolari.

Bundan tashqari, qo'shimcha yordamchi xonalar yumushlarni bajarishga, texnik jarayonlar uchun xizmat qilishga mo'ljallangan. Bular quyidagilardir:

- almashtiruv fondlari konteynerlari, buyumlar solingan idishlar, o'rab beriladigan, kanop-arqonlar bilan bog'langan materiallar, savdo anjomlari, maxsus kiyimlar, yuvish poroshoklari saqlanadigan xonalar;

- aholidan qabul qilinib olinadigan shisha idishlar saqlanadigan omborxona;

- yuvish, yuvinish xonasi;

- axlat soladigan idishlar, ovqat qoldiqlari tashlanadigan sovitqich kameralari;

- anjomlarni, inventarni yengil ta'mirlovchi ustaxonalar;

- manzarali reklama qiluvchi ustaxona;

- mollarni uyga yetkazib beruvchi ekspeditsiya.

Ma'muriy-guruh xonalariga quyidagilar kiradi:

- boshqaruv apparatining xonolari;

- ayrim xodimlar xonolari;

- xodimlarning ovqatlanadigan joyi;

- bosh g'aznaxona;

- ust kiyim yechiladigan joy;

- tibbiy xona;

- sanitar-maishiy xonalar va boshqalar.

Texnik xizmat kilish sohasiga quyidagilar kiradi:

- sovitkich kameralar va liftlar, mashina bo'limlari;

- shamollatish kameralari;

- elektr shchitlar;

- isitkich qozonlar xonasi;

- isitkich uzeli.

mahsulotlari ishlatilsin, do'konning yer osti xonalariga kirish yo'laklari va savdoga keluvchi xaridor uchun yolg'izoyoq yo'laklar talabga javob beradigan bo'lsin. Iqtisodiy talablar-savdo binolar qurish va undan foydalanish xarajatlarini tejash, qurilish materiallarini imkoniyati boricha tejab-tergab sarflash, arzon detallardan foydalanish kerak.

Sanitar-texnik talablar. Issiqlik bilan ta'minlash sistemasining kurilish, istish, shamaollatish, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, yoritish sistemasi talabga javob berishi kerak.

Yuqoridagilarga jiddiy e'tibor berish savdo unumdorligini oshirishga, ishchi-xizmatchilar sharoitini yaxshilashga, xaridorlarga xizmat ko'rsatish saviyasini ko'tarishga olib keladi.

Do'kon binolarining ichki tarkibi va o'zaro bog'lanishi, do'konning ichki qismi quyidagilarga bo'linadi:

- savdo zallari;
- sotiladigan mollarni qabul qilib olish, saqlash va sotishga tayyorlaydigan joy;
- qo'shimcha yordamchi joylar;
- ma'muriy-maishiy xonalar, texnik xizmat ko'rsatish xonalar. Do'ukonning savdo zallari-eng asosiy obyekt hisoblanadi. Ularning hajmi, joylanishi, rejali belgilanishi savdo-texnik jara-yonlarning va savdo korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lishiga olib keladi.

Do'kon quyidagi qismlardan iborat:

- do'konning savdo zallari;
- buyurtmalar qabul qilish bo'limi;
- kafeteriy zali;
- xaridorlarga qo'shimcha xizmat qilish xonasi yoki may-donchasi.

Bu yerda gazlamalarni bichish, kiyim-kechaklarni mayda ta'mirlash ishlarining amalga oshirilishi, xatto xaridorlar qisqa dam olishi uchun sharoit yaratilishi mumkin.

Mollarni qabul qilish, saqlash va sotishga tayyorlash joylariga quyidagilar kiradi:

- mollarni tushirish joyi;
- qabul qilib olish joyi;

Savdo markazlari tarkibiga kiruvchi do'konlar xaridorlarga oziq-ovqat va nooziq-ovqat mollarinin aralash assortimentini tavsiya etadi. Ko'pincha bu markazlar shaharlardan chetroqda, katta magistral yo'llar tutashgan joylarga quriladi.

Do'konlar, ko'pincha, avtomagistral yoqalarida, mashinalar yoqilgi quyish shoxobchalariga yaqin joylarga joylashtiriladi va bu joylarda asosan, chakana savdo pavilonlari, kiosklar ishlaydi.

Madaniy savdoni tashkil qilishdan maqsad aholi uchun qulaylik yaratishning quyidagi shartlariga rioya qilishni ko'zda tutilgan:

- do'konlar imkoni boricha iste'molchilarga yaqin bo'lsin;
- murakkab, noyob mollari shu yaqin orada yashovchi aholi do'kondan xarid qila olsin;
- bir tipdagi do'konlar aholi soniga qarab bir me'yorda xaridorlar extiyojini qondirsin;
- mollar assortimentiga ega bo'lgan, hammaning talabiga javob beradigan savdoga erishish;
- har bir savdo tashkilotining unumli ishlashi uchun sharoit yaratish.

Qishloq ma'muriy tuman hududlariga chakana savdo tarmog'ini joylashtirishda har bir aholi yashaydigan joyning sharoiti hisobga olinadi. Aholining soniga qarab xo'jaliklararo markazlarda chakana savdo tarmoqlari oziq-ovqat va nooziq-ovqat mollari bilan savdo qiluvchi universam, univermag, ixtisoslashgan «uy-xo'jalik mollari», «texnika», «bolalar dunyosi» do'konlaridan iborat bo'lishi mumkin.

Xo'jalik markazlarida va qishloqlarda bu yerlarda yashovchilarning sonini hisobga olib, asosan do'konlarning «oziq-ovqat mahsulotlari», «sanoat mollari», «kundalik ehtiyoj mollari» kabi turlari tashkil qilish tavsiya etiladi. Bordi-yu, bunday kuchmas chakana savdo do'konlari tashkil qilish imkoniyati bo'lmasa, avto-do'konlar va savdoning ko'chma do'konlarini tashkil qilish kerak. O'zbekistonda ko'p yillardan buyon dalalarda mavsumiy ishlar qizigan davrlarda doimiy ravishda ko'chma do'konlar qishloq mehnatkashlariga xizmat qiladi.

Bayramlarda, to'y-tomoshalarda ham avtodo'konlar ish faoliyati kuchayadi. Dala shiypolarida har besh kunda g'aznachilar ish joylariga chiqib pul tarqatadilar, ularga mos holda avtolavkalar xaridorgir mollar savdosini tashkil qiladilar.

12.4. Savdo tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari

Savdo faoliyatini yuridik shaxs hisoblangan tashkilotlar va shuningdek, yakka ishbilarmonlar — jismoniy shahslar amalga oshirishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga binoan, yuridik shahs mulkka, uni tasarruf qilish huquqiga ega bo'lishi kerak. Yuridik shahs mulk masalalari yoki boshqa ishlar bo'yicha sud oldida javob berishi va sudga davo arizasini berishi mumkin. Yuridik shahslar o'zining mustaqil balansi yoki smetasiga ega bo'ladi. Yuridik shahsning huquq va majburiyati ularning tashkiliy hujjatlarda nazarda tutilgan maqsadlariga mos kelishi shart. Yuridik shahs savdo faoliyatining muayyan turi bilan qonunda belgilangan mahsus ruxsatnoma asosida shug'ullanishi mumkin. Mulkning shakllariga qarab yuridik shahslar: shahsiy, davlat va jamoaga bo'linadi. Yuridik shahslar tashkiliy-huquqiy shakllar qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ta'sis hujjatlari asosida o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar. Bu hujjatlar Ustav, ta'sis shartnomasidan iborat.

12.5. Savdo binolari va inshootlarining turlari

Savdo binolari va inshootlari savdo-texnologik ishlarni amalga oshiradigan joyda barpo qilinadigan qurilishlar va imoratlardir. Savdo binolari va inshootlariga xos quyidagi belgilar mavjud:

- qurilishning kapitalligi;
- hajm rejalanihi bo'yicha o'ziga xos xususiyati;
- tashqi ko'rinishdagi materiallar bo'yicha.

O'zining kapitalligi jihatidan savdo binolari va inshootlar ikki turga bo'linadi:

- do'konlar joylashishi uchun kapital qurilishlar;
- ixchamlashtirib qurilgan inshootlar.

Bulardan mayda chakana mol savdosi uchun, yirik do'konlarning filiallari sifatida foydalaniladi. Binolar bir qavatli, ko'p qavatli, shuningdek, erto'lada joylashgan bo'lishi ham mumkin. Binolarning ko'p qavatli yoki erto'lada bo'lishiga qaraganda bir qavatli bo'lishi ko'p jihatdan qulaydir. Mollarni olib chiqish, olib tushish, xaridorlarning to'g'ridan-to'g'ri xarid qiladigan mollar oldiga kelishlari bir qavatli binolarda yaxshi qulaylik tug'diradi.

Shahar sharoitida yer sathining tansiqiligi, ko'p hollarda ko'p qavatli do'konlar qurishga majbur qiladi, buni ham albatta hisobga olish zarur. Ammo ko'p qavatli do'kon binolarida erto'la qavatini albatta oziq-ovqat mollari bilan savdo qilishga moslash kerak.

Savdo binolari sirti toshdan ishlangan, g'isht shlakablokli, temir-beton va yog'ochdan qilingan bo'lishi mumkin. Bular asosan, ob-havo sovuq, yog'ingarchilik ko'p bo'ladigan shimol tomonlarga xos jihatlar. Ammo O'zbekistonda havo quruq, shuning uchun ayniqsa qishloq joylarida xom g'ishtlardan ham do'kon binolarini qurish mumkin. Do'konlar, pavilonlar, laryoklar qurilishida ko'pincha yog'och-temir konstruksiyalaridan foydalanilmoqda. Qulaylik tug'dirish uchun ba'zan alyumindan foydalaniladi, chunki ularni bir joydan ikkinchi joyga ko'tarib ko'chirib o'tish ancha qulay. Bularni tayyorlashda rangli va maxsus oynalardan keng foydalanilmoqda.

12.6. Savdo binolari va inshootlariga qo'yiladigan talablar

Savdo binolari va inshootlariga texnologik, arxitektor-qurilish, iqtisodiy va sanitar-texnik talablar qo'yiladi.

Texnologik talablar. Savdo binolari shunday qurilishi kerakki, savdo-texnologik jarayonlar unumli tashkil etilsin; yuk ortish, yuk tushirish kompleks-mexanizatsiya asosida bo'lsin, mollar sotish progressiv usulda amalga oshirilsin.

Arxitektura-qurilish talablari. Savdo binosining konstruksiyasi mustahkam bo'lsin, anjomlar bilan uskunalashda albatta zavod

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. Savdo jarayonlari texnologiyasining tuzilish asoslari	5
1.1. Savdo jarayonlari texnologiyasi va uni tashkil etish fanining mohiyati	5
1.2. Tovarlarini tarmoqlardan o'tib borishi	6
1.3. Texnologiya va uning usullaridan foydalanish	6
1.4. Savdo texnologik jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	7
1.5. Texnologik jarayonlarning ratsional tuzilish tamoyillari ..	10
2-bob. Ulgurji savdo tashkilotlari, ularning vazifalari, tiplari va turlari	13
2.1. Savdo-texnologik jarayonida ulgurji savdoning roli	13
2.2. Ulgurji savdoning zamonaviy masalalari	14
2.3. Ulgurji tashkilotlarning turlari	14
2.4. Ulgurji tashkilotlarning turlari va vazifalari	15
3-bob. Tovar omborlari, ularning tuzilishi va joylashtirilishi ...	17
3.1. Omborlarni maqsadi, vazifalari, ularni tavsifi	17
3.2. Omborlarni tuzilishiga qo'yiladigan texnologik va umumtexnik talablar	20
3.3. Ombor xonalarining turlari va ularning joylashtirilishi	23
3.4. Ombor maydonlariga va ombor hajmiga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash	25
4-bob. Omborlarning texnologik jihozlari	29
4.1. Tovarlarini saqlash uchun jihozlar	29
4.2. Tovarlarini tashishda tagliklardan foydalanish	30
4.3. Omborlardagi ortish-tushirish jihozlari	31
4.4. Yuk tashuvchi mashina va moslamalar	33
4.5. Og'irlikni o'lchash va qadoqlash jihozlari	34
5-bob. Savdo omborlarida umumiy texnologik jarayonlari	37
5.1. Ombor texnologik jarayoni va uni tashkil etish prinsiplari ...	37

— iste'molchilarning kirib-chiqish uchun eshiklar va bo'limlarning joylashishi xaridorlarga qulay bo'lishi kerak;

— mollarni saqlanish va sotishga tayyorlash joyidan sotish joyiga- peshtaxtalarga chiqarish uchun zarur sharoit yaratish;

— savdo anjomlarini shunday o'rnatish lozimki, savdo zali maydonlaridan unumli foydalanilsin;

— xaridorlarning do'kon ichida bir-biriga xalaqit bermay, erkin yurishlariga erishish;

— hisob-kitoblar uchun xazinachilar oldida erkin sharoit yaratilishiga erishish.

Bu savdo-texnik ishlarini oqilona amalga oshirish bilan birgalikda, mollarning joylashishini xaridorlar atroflicha ko'ra olishlari va unumli savdo qilishlariga ham imkon yaratadi.

Aholida binoda joylashgan do'konlarning savdo zallari maydonni 1:1, 1:3 kvadratga yaqinroq bo'lsa, yuqoridagi talablarga yana ham tuliqroq javob beradi. Do'konlar haddan tashqari uzun, koridor nisbati 1:10 va undan ham oshiq bo'lsa, mollarni rejali joylashtirish qiyin bo'ladi.

Savdo zalining rejali tuzilishida xaridorlar okimining harakati tugri xisobga olinishi kerak. Ular kiradigan va chiqadigan eshiklar, savdo jihozlarning joy-joyiga qo'yilishi va nazorat-gazna joyining maqsadga muvofiq tomoniga urnatilishi ahamiyatga egadir.

Xaridorlar kirib-chiqadigan eshiklar do'kon binosining o'rtarog'iga o'rnatilishi, ko'pincha peshtaxtalarda savdo qiluvchi tarmoqlarda bo'lishi kerak. Bu hol xaridorlarning savdo zal-larida gavjum bo'lib yurishlari va xarid kilishlari uchun sharoit yaratadi.

Savdo zalning butun maydonini shartli ravishda quyidagicha taqsimlash mumkin:

- yordamchi maydoni;
- xaridorlar o'tadigan va mollarni tashiydigan maydon;
- xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ish joylari maydoni;
- nazorat-xazinachi maydoni.

Savdo zallaridagi maydonlarning hammasidan unumli foydalanish, ularning ayrim qismlari bo'sh yotmasligi ham savdo uchun ahamiyatlidir.

Ko'tarma-transport bilan yuk tushiradigan do'konlarda o'tish maydonlari kengroq bo'lishi kerak.

Katta do'konlarda xaridorlarga qulaylik yaratish uchun devor tomonidan magistral yo'laklar qoldiriladi. Bu yo'laklar savdo zali zonalarini ham o'zaro bog'laydi.

Peshtaxtalarda savdo qiluvchi do'konlarda xizmat qiluvchi xodimlar ishlashi uchun maydonlar bo'lishi kerak. Ularning hajmi peshtaxtalar uzunligida bo'ladi.

Sotuvchining ish joyi peshtaxta kengligida bo'lishi va 0,9 m dan kam bo'lmasligi kerak.

Nazorat-xazinachi maydoni kassa xonasi, erkin o'tuv joyi, xaridorlar mollarni tanlab oladigan savatlar, aravachalar, mollari saranjomlab, o'rab beradigan stollar qo'yilgan joylardir. O'z-o'ziga xizmat qiladigan do'konlarda bu maydon 15% dan oshmasligi kerak, nazoratchi-xazinachining ish o'rnini kattaligi do'konning ixtisoslashishi va savdo zalining maydoniga bog'liq.

12.8. Do'kon savdo zalini rejalashtirish turlari

Do'kon maydonlaridan oqilona foydalanish savdo jihozlarining o'z o'rnida did bilan o'rnatilishiga bog'liq.

Savdo zalining hajmi, u yerdagi narsalarning bir-birlariga mutanosibligi, sotiladigan mollar assortimenti, sotish usullari yo'laklarida alohida hona, ko'rgazmali va aralash rejalashtirish talab qiladi.

O'z-o'ziga xizmat qilish usuli bilan savdo qilinganda yo'laklarda rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zal ichidagi harakat qiluvchilar va jihozlar qatorasiga parallel holda bo'ladi.

Oxirida nazorat-xazinachi o'rnashadi, shuning bilan birga, do'konning qator jihoz-buyumlari savdo zalining devorlariga taqab qo'yilgan bo'ladi. Bu ham zal maydonidan oqilona foydalanishga imkon yaratadi.

Yo'laklardagi qatorli rejalashtirishda xaridorlar oqimi nazoratchi-xazinachiga aniq ko'rinib turadi. Xaridorlar ham oz vaqt sarf qilib, o'zlariga zarur mollarni ancha tezroq sotib oladilar. Qatorli rejalashtirishning uch turi bor:

ADABIYOTLAR

1. *Karimov I.A.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent. «O'zbekiston», 2009 y.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining «2008-yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida»gi Qarori. 2009- yil 13- fevral.

3. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008- yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009- yil 14- fevral. 33-34- soni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009.

5. *Егоров В.Ф.* Организация торговли. Учебник. Москва – Санкт-Петербург: Питер. 2004.

6. *Дашков Л.П., Памбухчиянц В.К.* Организация, технология и проектирование торговых предприятий. Учебник. Москва: ИВЦ Маркетинг, 2005 г.

7. *Памбухчиянц О.В.* Технология розничной торговли. Учебник. Москва: Издательский дом «Дашков и К», 2006.

8. *Панкратов Ф. Г., Памбухчиянц В. К.* «Коммерция и технология торговли», М. ИВЦ «Маркетинг» 2007.

9. *Панкратов Ф.Г* и другие. «Организация и технология торговых процессов» М. Экономика 2005.

10. Маркетинг. Журнал в России и зарубежом. Москва. 2009.

11. www.dis.ru

12. www.piter.com

13. <http://www.rambler.ru/>

14. <http://yandex.ru/>

Vaqt normalari — ratsional tashkiliy-texnik sharoitlarda bir yoki bir necha xodimlarning ma'lum hajmdagi mehnatini (ishni) amalga oshirish vaqti.

Mayda jo'natishlar — yukning og'irligi 10 tonnadan oshmasligi, lekin 20 kg dan kam bo'lmasligi, hajmi esa to'rt o'qli vagonning 1/3 qismidan ko'pini egallamasligi.

Kichik tonnali jo'natishlar — to'rt o'qli vagon og'irligi 10 tonnadan 20 tonnagacha bo'lgan va shu vagonning yarimidan ko'pini egallamay, bitta yuk hujjati bilan tashiladigan yuk partiyasi.

Vagonbay jo'natishlar - yukning vazni yoki hajmi alohida vagon talab qilsa, bitta yuk hujjati bilan jo'natilishi;

Marshrutli jo'natishlar — yuk butun poyezd sostaviga ortish uchun yetarli miqdorda bo'lishi.

Guruhlab jo'natishlar — marshrutli jo'natish uchun yetarli bo'lmagan yukni vagonlar guruhida jo'natilishi.

— uzunasiga — savdo jihozlari butun savdo zali bo'ylab o'rnatiladi;

— kundalangiga — jihozlar savdo zalining kundalangiga o'rnatiladi;

— muxtasarlashtirilgan — jihozlar ham o'ator bo'ylab, ham ko'ndalangiga qo'yiladi.

Do'konning savdo zali 12 metrgacha ichkariga kirgan bo'lsa, uzunasiga rejalashtirilgan qatorlar qo'llaniladi. Savdo zali ichkariga ko'proq cho'zilib ketgan sharoitlarda ko'ndalang yoki muxtasarlashgan rejalashtirish amalga oshiriladi.

Alohida xonachalarga — bokslarga bo'linishi deyilganda, savdo zalining qismlarga, ayrim-ayrim xonachalarga bir-biridan ajratilishi tushuniladi. Bunday hollarda har bir boksning o'z nazoratchi-xazinachisi bo'ladi. Biroq shuni ham aytish kerakki, xaridorlar uchun rejalashtirish ancha noqulaylik tug'diradi, turli xil mol savdo qilgan kishi har safar alohida-alohida hisob-kitob qilishiga to'g'ri keladi.

Yuqoridagicha rejalashtirish yirik do'konlarda hamda aholi zichroq joylashgan ko'p qavatli uylar yaqinida barpo etiladi. Nooziq-ovqat mahsulotlari universal assortimentga ega bo'lgan do'konlarda bu usulni qo'llash hollarda o'zini oqlaydi.

Xaridorlar o'zlari kiyib ko'rib, o'lchab oladigan mollar: poyafzal, kiyimlar yoki zargarlik buyumlari shular jumlasiga kiradi.

Ko'rgazmali rejalash namunali mollar sotadigan do'konlarda rejalashtiriladi. Turli mollar namunali namoyishga qo'yiladi. Mollarning namunalari stendlarda, balandroq joylarda, stel-lajlarda, savdo zalining ko'zga ko'rinarli boshqa joylarida o'rnatiladi.

ATAMALARNING QISQACHA IZOHLI LUG'ATI

Texnologiya — u yoki bu ishni bajarish uchun kerak bo'lgan operatsiya, harakat va usullar ketma-ketligi.

Transport omillari — transport aloqa yo'llarining holati, tovarlarni yetkazib berishda qo'llanadigan transport turlari.

Ishlab chiqarish omillari — ishlab chiqarishni joylashtirish, ishlab-chiqarish tashkilotlarini ixtisoslashtirish, ayrim tovarlarni mavsumiy ishlab chiqarish.

Savdo omillari — savdo tashkilotlarining joylashishi, katta-kichikligi, ixtisoslashganligi, tovar assortimentining murakkablik darajasi va ularning xususiyatlari, chakana savdo tarmoqlarini tovar ta'minlanishini tashkil etish darajasi.

Umummilliy darajadagi ulgurji tashkilotlar — tovarlarni butun mamlakat bo'ylab sotadigan tashkilotlar.

Ulgurji aylanma tashkilotchilari — tovar birjalari, ulgurji yarmarkalar, auksionlar, ulgurji oziq-ovqat bozorlari.

Saralovchi-taqsimlovchi omborlar — odatdagi tovar zahiralirini to'plashga mo'ljallangan omborlar.

Tranzitli — o'tkazib yuboruvchi omborlar — temir-yo'l stansiyalarida, suv bo'ylari pristanlarida joylashib, yuklarni bir joydan ikkinchi joyga o'tkazib yuboradigan omborlar.

Mavsumiy saqlash omborlari — kartoshka va sabzavotlar omborxonalari va mavsumiy tovarlarga ishlov berish va saqlash omborlari.

Muddatdan oldin keltiriluvchi omborlar — uzoq vaqt mobaynida saqlanadigan tovarlar joylashtiriladigan omborlar.

To'plab boruvchi omborlar — sanoat korxonalaridan kichik partiyada tovarlarni qabul qilib, katta partiyalarda iste'mol qiluvchi rayonlarga jo'natuvchi omborlar.

Universal omborlar — oziq-ovqat yoki nooziq-ovqat tovarlarining keng assortimenti mujassamlanadigan omborlar.

Ixtisoslashgan omborlar — bir tovar yoki bir necha bir-biriga mos kelgan tovar guruhlarini saqlaydigan omborlar.

Umumtovar omborlari — maxsus rejimni talab qilmaydigan oziq-ovqat tovarlari saqlanadigan omborlar.

Maxsus omborlar — sabzavot saqlovchi omborlar, sovitkichlar va boshqalar kiradi.

Yordamchi xonalar — taralarni, ko'p oborotli konteynerlarni saqlashga mo'ljallangan xonalar.

Qo'shimcha-texnik xonalar — mashina bo'limlari, ventilyatsiya kameralari, isitish, xo'jalik mollari va inventarlarni saqlash, ta'mirlash xonalar.

Ma'muriy-maishiy xonalar — ma'muriy-kontora xizmatlari, dam olish va ovqatlanish joylari, garderob, tovar namunalari zali, dush, sanitariya uzellari uchun mo'ljallangan xonalar.

Tovar namunalari zali — bevosita hisoblash markazi yoki ma'lumotlarni mexanizatsiyalashgan usulda ishlov berish byurosi xonalari.

Kranlar — yuklarni vertikal va gorizontal tashish, ortish-tushirishda ishlatiladigan moslama.

Qadam — ko'ndalang qo'yilgan ustunlar, ya'ni devorlar orasidagi masofa.

Oraliq — uzunasiga qo'yilgan konstruksiyalar orasidagi masofa.

Qavat balandligi — ship bilan pol o'rtasidagi masofa.

Rezervuar — po'latdan tayyorlangan, sig'imi 5, 10, 25, 50, 75, 100 m³ bo'ladigan, neft tovarlarini quyish va to'kish, va havo chiqarish uchun moslama.

Mahalliy qatnov — yuk bitta yo'lda tashilishi.

Bevosita qatnov — yuk ikki va undan ortiq yo'lda tashilishi.

Bevosita-aralash qatnov — yuk temir yo'lda transportning boshqa turlari ishtirokida yagona tashish hujjati bo'yicha tashilishi.

Bevosita xalqaro qatnov — ikki yoki undan ortiq davlatlarning temir yo'llari ishtirokida yuk tashish.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI» bosmaxonasi
100000, Toshkent, Qori-Niyoziy ko'chasi, 39-uy.

5.2. Omborlarga tovarlarni keltirish va qabul qilish texnologiyasi	38
5.3. Tovarlarni joylashtirish, taxlash va saqlash texnologiyasi	41
5.4. Omborlardan tovarlarni yetkazib berish texnologiyasi	42
6-bob. Savdoda tara va tara operatsiyalari	44
6.1. Savdo texnologik jarayonida o'ramni va taralarni roli	44
6.2. Taralarga qo'yiladigan talablar	49
6.3. Taralarni asosiy turlari tavsifi va tasnifi	50
7-bob. Yuklarni transport vositalarida boshqa joyga tashish texnologiyasi	53
7.1. Savdoda transportlar yordamida har xil operatsiyalarni bajarish va ularning roli	53
7.2. Temir yo'l transporti yordamida tovarlarni boshqa joyga tashish	54
7.3. Avtomobil transporti yordamida tovarlarni tashish texnologiyasi	57
7.4. Tovarlarni suv va havo transportida tashish	59
8-bob. Do'konlarda savdo-texnologik jarayonlarni tashkil etish	62
8.1. Do'konlardagi savdo texnologik jarayonning tarkibiy qismlari va uni ratsional tashkil qilish tamoyillari	62
8.2. Do'konlarga tovarlarni keltirish va qabul qilish texnologik operatsiyalari	63
8.3. Tovarlarni saqlash va sotishga tayyorlash texnologiyasi	66
8.4. Tovarlarni savdo zalida joylashtirish va yoyib qo'yish	68
8.5. Tovarlarni chakana savdo texnologiyasi	72
9-bob. Chakana savdo korxonalarini tovar bilan ta'minlash texnologiyasi va tashkil etilishi	77
9.1. Tovar yetkazib beruvchi tashkilotning vazifasi va uning oldiga qo'yiladigan asosiy talablar	77
9.2. Chakana savdo korxonalarini tovar bilan ta'minlashning ritmlilik darajasi	78
9.3. Tovar ta'minoti shakllari va chakana savdo tarmog'iga tovarlarni tashib keltirish sxemalari	80

10-bob. Tijorat-texnologik jarayon va do'kondagi mehnatni tashkillashtirishni boshqarish	83
10.1. Jarayonni tashkillashtirish	83
10.2. Do'kon xodimlarining mehnatini tashkillashtirish	85
10.3. Do'kondagi ish tartibi va mehnat sharoiti	92
11-bob. Do'kon interyeri va uni reklama axborotlari bilan bezash	94
11.1. Do'konning firma stili (uslub) va interyeri	94
11.2. Do'konni reklama-axborotlari bilan bezash	99
12-bob. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish	104
12.1. Savdoda davlat nazorati	105
12.2. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish uchun mahalliy hokimiyat organlari	107
12.3. Chakana savdo tashkilotlarini joylashtirish	114
12.4. Savdo tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari	116
12.5. Savdo binolari va inshootlarining turlari	116
12.6. Savdo binolari va inshootlariga qo'yiladigan talablar	117
12.7. Do'konlarni rejalashtirish	117
12.8. Do'kon savdo zalini rejalashtirish turlari	122
Atamalarning qisqacha izohli lug'ati	124
Adabiyotlar	126

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna
Saidkarimova Muazzam Yunusovna
Tashpulatov Salix Shukurovich
Miryusupova Miyassar Kamilovna

SOHA TEXNOLOGIYASI

O'quv qo'llanma

Muharrir: M.Po'latov
Texnik muharrir: M.Alimov
Badiiy muharrir: M.Odilov
Kompyuterda sahifalovchi: S.Po'latov

Bosishga ruxsat etildi 12.10.2010. Bichimi 60×84¹/₁₆.
«Times TAD» garniturasi. Bosma tabog'i 8,25. Adadi 154.
Buyurtma №59.